

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

**UO‘K:373.091.33:808.545.**

**MURODOVA SHAXLO IBRAGIMOVNA**

**O‘QUVCHILARDA O‘QISH SAVODXONLIGINI  
RIVOJLANTIRUVCHI O‘QUV TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH  
METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: G‘.H.Hamroyev  
pedagogika fanlari doktori

## MUNDARIJA

**KIRISH**.....

### **I BOB. ONA TILI DARSLARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TA’LIMY, IJTIMOY ZARURATLARI**

1.1. Ona tili darslarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....

1.2. Ona tili darslarida o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlariga qo‘yiladigan talablar.....

1.3. Ona tili darslarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning mavjud holati tahlili.....

1-bob bo‘yicha xulosa.....

### **II BOB. ONA TILI DARSLARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI O‘QUV TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI**

2.1. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn tanlash va o‘quv topshiriqlari tuzish masalasi.....

2.2. Ona tili darslarida o‘qish savodxonligini oshiruvchi matn va o‘quv topshiriqlari ustida ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar.....

2.3. Matn ustida ishlash orqali o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi .....

2-bob bo‘yicha xulosa.....

### **III BOB. O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLARNING AMALIYOTDA QO‘LLANILISHI**

3.1. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni.....

3.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari.....

3-bob bo‘yicha xulosa.....

**UMUMIY XULOSALAR**.....

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**.....

**ILOVALAR**.....

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida shaxsni takomillashtirish, unga berilayotgan ta'lim mazmunini hayotda qo'llanilish darajalari nuqtayi nazaridan tashkil etish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Yoshlarga berilayotgan ta'lim sifati ularning egallagan ko'nikma va malakalariga bog'liq ekanligi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof qilinib kelinadi. Bugun dunyo miqyosida ta'lim sifati baholashning xalqaro talablari faol qo'llanilmoqda, jumladan, PISA tadqiqotining muhim jihati ham o'quvchilarda matematik, tabiiy-ilmiy, o'qish savodxonligi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini tekshirishdir. Xususan, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tadqiqotlari o'quvchida hayotiy va XXI asr ko'nikmalarining shakllanganlik darajalarini turli aspektlarda tekshirib ko'radi. Bunda, asosan, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, ularda matni o'qib tushunish malakasini hosil qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Dunyoda ta'lim sohasidagi islohotlar xalqaro baholash tashkilotlari tomonidan tahlil qilinmoqda. Xususan, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan tashkil etiladigan PISA xalqaro tadqiqot dasturi umumiy o'rta ta'lim tizimiga oid tahliliy va qiyosiy ma'lumotlarni, shuningdek, mamlakatlar ta'lim siyosatiga oid qarorlarni qabul qilishda muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida barcha yo'nalishlarda anglash, farqli jihatlarini topish, solishtirish, tahlil qilish kabi ko'nikma va malakalarni hosil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari – AQSH, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos yutuqlari PISA tadqiqotlari asosida aniqlangan, jumladan, Finlandiya ta'limi o'qish savodxonligi bo'yicha ham yuqori natijalarni qo'lga kiritgan. Xalqaro miqyosda ham ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshiruvchi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, turli uslubda yozilgan matnlarni o'qib tushunish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ham PISA xalqaro baholash dasturi asosida 2022-yilda tadqiqotlar olib borildi va 2023-yilda e'lon qilingan natijalarga ko'ra

o‘qish savodxonligi bo‘yicha eng past ko‘rsatkich kuzatildi. “Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta’limning barcha bosqichlarida o‘zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o‘rgatishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o‘zbek tilida ravon o‘qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin”<sup>1</sup>. Bu ona tili ta’limi oldiga, xususan, o‘qib tushunish, o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 12-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi 419-son “Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to‘g‘risida”, 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari 2020-2030-yillarda amalga oshirish dasturida zamonaviy o‘qitish metodikasini yaratishga doir belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

### **Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor**

---

1 Мирзиёев Ш.М. <https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

2Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения: автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 1994. – 44 с.; Розыков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. – М.: Учитель, 1981. – 103 с.; Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: Қори Ниёзий номли ЎзПФТИ, 2002. – 265 б.; Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 280 б.; Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари: пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 42 б.

**yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda keyingi yillarda ona tili o‘qitish metodikasiga doir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Ona tili ta’limida ilk darsliklar shakllanishida A.Fitrat, O.Usmon, B.Avizov, Y.Abdullayev, M.Omilxonovalarning xizmati katta bo‘lgan, ammo darsliklarning dastlabki variantlarida o‘quv topshiriqlari berilmagan.

Sh.Yusupova<sup>2</sup> va N.Yuldasheva<sup>3</sup> tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish masalalari tadqiq qilingan. A.G‘ulomov<sup>4</sup>, M.Saidov<sup>5</sup> va N.Alovuddinovalar<sup>6</sup> esa ona tilini o‘qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Uzluksiz ta’limda ona tilidan til sathlarini uzviylikda o‘qitish, xususan, gapning bosh bo‘laklarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha T.Yusupova tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan<sup>7</sup>, X.Muxitdinova ta’lim bosqichlarida uzviylikni ta’minlashning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqishga oid tadqiqotini olib borgan<sup>8</sup>. Qayd qilingan ushbu tadqiqot ishlarida o‘quv topshiriqlarining turlari, matnni o‘qib tushunishga doir tavsiyalar, mashq va topshiriqlar, ulardan nutq o‘stirishda foydalanish masalalari ham yoritilgan. Ta’kidlash joizki, N.Mahmudov, A.Sobirov, I.Mirzayev o‘quv topshiriqlarini darsliklarda milliy yondashuv asosida

---

<sup>3</sup> Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 137 б.

<sup>4</sup> Юлдашева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида луғавий синонимларни янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 123 б.

<sup>5</sup> Гулямов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1991. – 37 с.

<sup>6</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2000. – 25 б.

<sup>7</sup> Алавуiddинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2008. – 24 б.

<sup>8</sup> Юсупова Т. Узлуksиз таълим тизими асосида мактабда ўқувчиларга бош бўлакларни ўргатиш: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 22 б.

<sup>9</sup> Мухиддинова Х. Таълим bosқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуksизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ – Тошкент, 2011. – 270 б.

takomillashtirishga hissa qo'shdilar. B.Mengliyev ona tili o'qitishda ortiqcha grammatizmdan voz kechib, o'quvchilarda o'qish savodxonligi ko'nikmasini rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatiga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning nazariy-amaliy masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda<sup>9</sup>. Uning muallifligida yaratilgan darsliklarda o'quv topshiriqlari ayni shu ta'lim maqsadini bajarishga moslandi.

Keyingi yillarda til ta'limiga kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish borasida pedagogika, filologiya fanlari doktorlari, professorlar R.Safarova<sup>10</sup>, Sh.Yusupova<sup>11</sup>, X.Muhiddinova<sup>12</sup>, B.Mengliyev, Sh.Yuldasheva, Q.Husanboyeva<sup>13</sup>larning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim.

Tadqiqotchi A.Bobomurodova, T.Ziyadova, T.G'aniyev, M.Saidov A.Hamroyev<sup>14</sup>, K.Mavlonova<sup>15</sup>lar tomonidan ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, o'zining ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchining bilish faolligini oshirish masalalari tadqiq qilingan. H.Suyunovning adabiyot o'qitishda savol va topshiriqlar ustida ishlashga o'rgatish usullariga doir tadqiqoti adabiy ta'lim, shuningdek, ona tili ta'limi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir I.Allayorov, O.Rozikov, R.Ibragimov, B.Adizov, M.Mahmudov, I.Davronov<sup>16</sup>lar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-

---

10<http://uza.uz/oz/education/-uvchini-mayib-ilyetgan-k-rinmas-va-samarasiz-milliardlar-14-11-2019>.

10Қаранг: Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон мактабларида она тили таълими назарияси ва амалиёти: пед. фан. док. ... дисс. –Тошкент, 1995. – 242 б.

11 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

12 Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ. – Тошкент, 2011. – 270 б.

13 Ҳусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.

14 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

15 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

16 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

biluv faoliyatini rivojlantirish, o‘quv topshiriqlari orqali o‘quvchi faolligini oshirish muammolari ham o‘rganilgan.

Shu o‘rinda ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri bo‘lgan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash bo‘yicha Sh.Abdirayimov<sup>17</sup> ning tadqiqotlarini ham alohida ta’kidlash mumkin. Mazkur tadqiqot mohiyatan bizning ishimizga yaqin, ya’ni o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholovchi o‘quv topshiriqlari<sup>18</sup> ustida ishlagan.

MDH metodist-olimlari A.Leontev, J.Ponomarev, L.Rubenshteyn<sup>19</sup>, avstraliyalik olim Jak Richards<sup>20</sup> larning ona tili o‘qitilishiga doir tadqiqotlaridagi o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarining tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalanilmoqda.

Ayniqsa, pedagogika fanlari doktori G‘.Hamroyevning ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlari borasida olib borgan tadqiqoti topshiriqlardan foydalanish bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniqlab berdi<sup>21</sup>.

Biroq ona tili ta’limida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari ustida ishlash bo‘yicha metodik ta’minot yaratilmagan. Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi savol va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi hamda ulardan foydalanish metodikasi takomillashtirilishi lozim.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Ushbu tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining “Til va adabiyot o‘qitish muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi rejasi asosida bajarilgan.

---

17 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

18 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

19 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

20 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

21 Ҳамроев Ф. Она тили таълимида ўқув топширикларини ишлаб чиқишнинг лингводидактик асосларини такомиллаштириш: педагогика фанлари д-ри...дисс. автореф. –Тошкент. 2022. 56 б.

**Tadqiqotning maqsadi** ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** matn mazmunini ochib beruvchi, muallif maqsadini anglashga xizmat qiluvchi, fikrlashga undaydigan pragmatik o'quv topshiriqlardan foydalanilganda o'quvchilarning o'qish savodxonligi sezilarli oshganini aniqlash;

kreativ xarakterdagi savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarda o'qish savodxonligi rivojlantirilsa, ularda mantiqiy fikrlash, anglash, mushohada qilish va amalda qo'llash malakalari hosil bo'lishini asoslash;

turli nutq vaziyatiga doir matnlardan foydalanilganda fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar o'quvchilarda matn va matndan tashqari ma'lumotlarni mavzuga bog'lay olish, matnosti ma'nolarni kalit so'zlar asosida aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi o'qish savodxonligini rivojlantirishini aniq misollar orqali dalillash;

o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi savol va topshiriqlar tizimi ona tili ta'limida o'qish savodxonligi kompetensiyasini shakllantirish vositasi ekanligini o'quv topshiriqlari orqali takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyektini** umumta'lim maktablarining 8-, 9-sinf o'quvchilariga ona tili mashg'ulotlarida matn bilan ishlash orqali o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqish, ulardan foydalanish usullari, tizimi va texnologiyasini takomillashtirish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, suhbat, statistik tahlil, intervyu, anketa-so'rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov kabi bir qator usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

matn mazmunini ochib beruvchi, muallif maqsadini anglashga xizmat qiluvchi,



fikrlashga undaydigan kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanilganda o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matnni o'qib tushunish ko'nikmasi sezilarli darajada oshgani aniqlangan;

kreativ xarakterdagi savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarda o'qish savodxonligi rivojlantirilsa, ularda mantiqiy fikrlash, anglash, mushohada qilish va amalda qo'llash ko'nikma va malakalari hosil bo'lishi asoslangan.

turli nutq vaziyatiga doir matnlardan foydalanilganda fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar o'quvchilarda matn va matndan tashqari ma'lumotlarni mavzuga bog'lay olish, matnosti ma'nolarni kalit so'zlar yordamida aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, shuningdek, o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlar aniq misollar asosida dalillangan;

o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi badiiy, ilmiy va publitsistik matnlar, savol va topshiriqlar tizimi ona tili ta'limida o'qish savodxonligi kompetensiyasini shakllantirish vositasi ekanligi tahliliy materiallar orqali ochib berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

matn mazmunini ochib beruvchi, muallif maqsadini anglashga xizmat qiluvchi, fikrlashga undaydigan pragmatik o'quv topshiriqlari orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish tizimi ishlab chiqilgan;

kreativ mazmundagi savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi, ularda mantiqiy fikrlash, anglash, mushohada qilish va amalda qo'llash malakalarini hosil qiluvchi o'quv topshiriqlar to'plami ommalashtirilgan;

turli nutq vaziyatiga doir matnlardan foydalanilganda fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar o'quvchilarda matn va matndan tashqari ma'lumotlarni mavzuga bog'lay olish, matnosti ma'nolarni kalit so'zlar asosida aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi maxsus matnlar majmuasi yaratilgan;

o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi savol va topshiriqlar tizimi ona tili ta'limida nutqiy kompetensiyani shakllantirish vositasi sifatida tatbiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo'llanilgan tadqiqot usullari va

ilmiy-nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, keltirilgan tahlil hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot ishi pedagogika va o'zbek tili o'qitish metodikasini takomillashtirishda, o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarining ta'limda tutgan o'rnini belgilashda muhim nazariy ahamiyat kasb etib, dissertatsiyada aks etgan nazariy qarashlar mavzu doirasidagi yangi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajarishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar ona tili va adabiyot darsliklari, o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda manba bo'la oladi, oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishlarida "Ona tili o'qitish metodikasi", "Ona tili", "Til ta'limida o'quv topshiriqlardan foydalanish" fanidan amaliy mashg'ulotlarda dars samaradorligini oshiruvchi material bo'lib xizmat qilishi, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ham o'qish savodxonligi kompetensiyasini hosil qilishda muhim metodik tavsiya bo'lishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqotlar asosida:

matn mazmunini ochib beruvchi, muallif maqsadini anglashga xizmat qiluvchi, fikrlashga undaydigan kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanilganda o'quvchilarning o'qish savodxonligi sezilarli oshgani bo'yicha ishlab chiqqan taklif va tavsiyalaridan 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 4-dekabrda 01/4-2586-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning nazariy qismi yangi ilmiy fikrlar, g'oyalar bilan boyitilishiga erishilgan;

kreativ mazmundagi savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarda o'qish

savodxonligini rivojlantiruvchi, ularda mantiqiy fikrlash, anglash, mushohada qilish va amalda qo'llash malakalarini hosil qiluvchi o'quv topshiriqlar to'plami ommalashtirilganligi to'g'risidagi xulosalardan PZ-202004165 "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-dekabrda 01/4-2689-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning amaliy qismi yangi manbalar bilan boyitilishiga erishilgan.

turli nutq vaziyatiga doir matnlardan foydalanilganda fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar o'quvchilarda matn va matndan tashqari ma'lumotlarni mavzuga bog'lay olish, matnosti ma'nolarni kalit so'zlar asosida aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi o'qish savodxonligini rivojlantirishi aniq misollar orqali dalillashga doir tavsiya va xulosalaridan 2021-2023-yillarga mo'ljallangan 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 4-dekabrda 01/4-2586-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratishda tadqiqot materiallaridan foydalanib, yangi manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi savol va topshiriqlar tizimi ona tili ta'limida nutqiy kompetensiyani shakllantirish vositasi sifatida tatbiq etish bo'yicha ishlab chiqqan taklif va tavsiyalaridan PZ-202004165 "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-dekabrda 01/4-2689-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha asosida yaratilgan platformaning yangi o'quv metodik ta'minot bilan boyitilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari sifatida 11 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 5 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

## **I BOB. ONA TILI DARSLARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TA’LIMY, IJTIMOYIY ZARURATLARI**

### **1.1-§. Ona tili darslarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida**

Har bir davr ta’lim oldiga o‘z vazifasini qo‘yadi. Yuz yil oldingi ta’lim mazmuni bilan bugungisining o‘rtasida ancha farq bor, xususan, ona tili o‘qitish masalasida ham. Aslida, til o‘qitish muayyan o‘zgarish talablarga ega bo‘ladi, biroq zamonning ehtiyojiga ko‘ra mazkur mezonlar bosqichma-bosqich takomillashtiriladi. Bugungi ona tili ta’limi grammatizmdan voz kechib, o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. To‘g‘ri, grammatik ma’lumotlarsiz ona tili ta’limini tasavvur etib bo‘lmaydi, biroq tilning tashuvchilariga quruq grammatik qoidalar orqali ham tilni o‘rgatib bo‘lmaydi. Zamonaviy ona tili ta’limining asosiy muammosi o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini qanday qilib samarali rivojlantirishga erishishdir. Bu borada shuni ta’kidlash kerakki, har bir hodisa muayyan tizimga ega ekan, o‘qish savodxonligi ko‘nikmalari ham shu tizimga mos rivojlantirilishi zarur. Zero, insoniyat tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida “Nimani o‘qitish va qanday o‘qitish kerak?” degan savolga javob izlab kelgan va hamon izlamoqda.

Darhaqiqat, “Matn ko‘rinishidagi ma’lumotlar bilan ishlash oddiy yozuv usulidan kompyuter erkanlaridan tortib smartfonlargacha bo‘lgan zamonaviy qurilmalar bilan amalga oshirilayotgan ekan, matnlarning tuzilishi va formatlarida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchidan yangidan yangi aqliy strategiyalarini rivojlantirishni va maqsadli o‘qish jarayonida aniq maqsadlarni qo‘yishni taqazo etmoqda. Shuning uchun o‘qish savodxonligida muvaffaqiyatga erishish deganda biror sodda matnni o‘qib tushunish nazarda tutilmasligi lozim. Katta hajmli, jumladan, badiiy matnlarni o‘qib, talqin qila olish qobiliyati o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda, o‘qish savodxonligining o‘zlashtirilishi ma’lumotlarni qayta ishlashning murakkab strategiyalari, jumladan, ko‘p matnli (yoki ma’lumot) manbalardan tegishli ma’lumotlarni olib tahlil qilish, sintezlash,

umumlashtirish va talqin qilishni ham talab etadi. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli va qobiliyatli shaxslar ilm-fan va matematika kabi barcha sohalarda ma'lumotlardan foydalanadi va qator ma'lumotlarni samarali qidirib topish, tizimlashtirish va filtrlash uchun texnologiyalardan foydalanadi. Bular mehnat bozorida, tahsilning keyingi bosqichlarida hamda XXI asrning ijtimoiy va fuqarolik hayotida to'laqonli ishtirok etish uchun kerak bo'lgan muhim ko'nikmalar hisoblanadi"<sup>22</sup>.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tiliga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ona tili ta'limi mazmunining yangilanishi mazkur sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab berdi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti ta'lim sohasiga oid muammolarga to'xtalib shunday degan edi: "Shu kungacha hech kim boshlang'ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o'qiyotgan o'quvchilarga qaysi sinfda nimani o'qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtai nazardan to'la asoslab bergan emas"<sup>23</sup>.

Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta'lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Y.Lerner va M.N.Skatkinlar<sup>24</sup> ta'lim mazmuniga o'rganish uchun tanlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlariga mo'ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar.

Metodik adabiyotlarda "ta'lim mazmuni" tushunchasi bilan birga "o'quv materiali" atamasi ham qo'llaniladi. Didaktikada o'quv materiali tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda u "ta'lim mazmuni" tushunchasiga teng bo'lsa, tor ma'noda ma'lum darajada o'rganilishi kerak bo'lgan, o'quvchilarning o'zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi tushuniladi. Biz ko'nikma va malakalar doirasida mulohaza yuritsak-da, ularning hosil bo'lishi o'quv materiali, xususan, o'quv topshiriqlari asosida ro'y beradi.

---

22 O'qish savodxonligi qamrov doirasi. "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi –Toshkent. 2022.

13 Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. –Т.: Маърифат-мадаккор, 2002. – 62 б.

24 Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер.–М. : Педагогика, 1981. – 186 с.

Avvallari, o'quvchining o'qish savodxonligini baholashning asosiy usuli sodda matnlarni o'qib, tushunish, talqin qilish va ular ustida mulohaza yuritishdan iborat edi. Mazkur ko'nikmalarni saqlab qolgan holda, informatsion texnologiyalarni insonlar ijtimoiy va kundalik hayotiga yanada integrallashuviga ko'proq e'tibor qaratilishi insonning o'qish savodxonligi doimiy ravishda yangilanib, kengayib borishini taqozo etadi. Endi ushbu soha XXI asrda talab etiladigan savodxonlikka oid masalalar bilan chambarchas bog'langan keng miqyosdagi yangidan yangi ko'nikmalarni o'zida aks ettirishi lozim. Savodxonlik tushunchasiga berilgan ta'rif orqali tobora o'zgarib borayotgan vaziyatlar va yangi texnologiyalarning ta'siri tufayli savodxonlik mohiyati mudom o'zgarishlarga yuz tutishini anglab yetish bilan yuqori saviyadagi raqamli o'qish ko'nikmalari va asosiy o'qish jarayonlarini qamrab olish talab etiladi. Matn ko'rinishidagi ma'lumotlar bilan ishlash oddiy yozuv usulidan kompyuter erkanlaridan tortib smartfonlargacha bo'lgan zamonaviy qurilmalar bilan amalga oshirilayotgan ekan, matnlarning tuzilishi va formatlarida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Bu, o'z navbatida, o'quvchidan yangidan yangi aqliy strategiyalarni rivojlantirishni va maqsadli o'qish jarayonida aniq maqsadlarni qo'yishni taqazo etmoqda. Shuning uchun o'qish savodxonligida muvaffaqiyatga erishish deganda biror sodda matnni o'qib tushunish nazarda tutilmasligi lozim<sup>25</sup>.

O'spirinlik davrida shaxs mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan individ sifatida o'zi uchun yangi tuyg'ularni, holatlarni boshdan kechira boshlaydi. Bu davr o'smirlik davridan jo'shqinlik, tashabbuskorligi bilan farq qiladi, ayniqsa, o'quvchilarda qiziqqonlik, faollik, qiziquvchanlik kabi axloqiy sifatlar, mustaqillik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik kabi irodaviy sifatlar, muhabbatga moyillik, o'z kuchiga ishonish, hazilkashlik, yangilikni tez qabul qilish kabi emotsional xislatlarning ko'zga tashlanishi bilan xarakterlanadi.

Bu esa o'quvchilarning jamiyat ichida o'zini tutishida, ta'lim olishida, shaxslar bilan munosabatida o'zini namayon qiladi. Shuningdek, bu davrda o'quvchi shaxs sifatida jismoniy va aqliy jihatdan shakllanib, barkamollik kasb eta

---

25 [https://qlapi.stesting.uz/media/publications/PISA\\_2018\\_Oqish\\_savodxonligi\\_qamrov\\_doirasi.pdf](https://qlapi.stesting.uz/media/publications/PISA_2018_Oqish_savodxonligi_qamrov_doirasi.pdf)

boshlaydi. Moddiy va ma'naviy voqelikka o'z munosabatini bildirishi shakllanadi. Jamiyat orasida o'zini ko'rsatish, shaxs ekanligini tan oldirish hissiyotlari ustun bo'ladi<sup>26</sup>.

O'qish savodxonligi maktabda fanlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan asosiy ko'nikmalardan, o'qitishning amaliy maqsadlaridan biridir. O'qish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, u orqali o'quvchi o'z atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini boyitib boradi.

O'qish o'quvchilarning aql-zakovatini rivojlantiradi. Bu xotira, iroda va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Matnni o'qiyotganda o'quvchi tovushlar va harflar, so'z va grammatika orqali qaraydi, so'zlarning imlosini, so'z va iboralarning ma'nosini eslab qoladi va shu bilan ularning til haqidagi tasavvurlarini takomillashtiradi. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilarini yaxshi o'qishga o'rgatsa va ular o'qiyotgan narsalarni yetarli ravonlik va to'liq tushunish bilan o'qiy olsa, bir paytning o'zida ularning gapirish va yozish malakalarini egallashlariga ham yordam beradi.

O'qishning ikki yo'li bor: ovoz chiqarib va ovoz chiqarmay ichida o'qish. Odatda kishilar og'zaki o'qishni o'rgana boshlaydilar. Odamlar o'qiy olaman deganda, demak, shaklga emas, ma'noga e'tibor qaratishlari mumkin. Yaxshi o'quvchi harflarga ham, hatto so'zlarga ham tez-tez bir-bir qarab turmaydi; u bir vaqtning o'zida ikki, uch, yoki to'rt so'zning ma'nosini tushunadi.

Maktabda o'qishga o'rgatish vositasi sifatida o'zgacha mashqlar tizimidan keng foydalaniladi:

1. Harflar – talaffuz mashqlari o'quvchilarning ona tilida grafema-fonematik yozishmalarni o'zlashtirishlariga yordam beradi.

2. O'quvchilarga leksik va grammatik tahlilni olib borishga yordam beradigan strukturaviy axborot mashqlari strukturaviy belgilarga ergashgan gaplarda mantiqiy mavzu va predikatni topish.

---

26 Абдираимов Ш. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолашнинг илмий-методик асослари: пед. фан. фал. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 22 б.



3. O'quvchilarga matndan ma'lumot chiqarishga yordam beruvchi semantik va kommunikativ mashqlar.

O'quvchilar ma'lum bir tovushni, unlilar birikmasini, undalmani yoki so'zlardagi turli pozitsiyadagi undoshlar birikmasini o'qishni bilishlari kerak. O'qituvchi o'quvchilarga tildagi qiyin so'zlarni o'qish uchun mavjud bo'lgan barcha qoidalar va istisnolarni, afsuski, o'rgatmaydi.

O'qib tushunishni o'rganishning eng qiyin qismi faqat so'zlarning ma'nosini emas, balki strukturaviy belgilarni bilishga asoslangan jumla yoki paragrafdan ma'lumot olishdir. O'quvchilar ko'pincha grammatik jihatlarga e'tibor bermay so'zlar haqidagi bilimlari asosida o'qiganlarini tushunishga harakat qiladilar.

O'quvchilar ba'zan matndagi asosiy g'oyalarni ifodalovchi tegishli gaplarni aniqlashni qiyinlashtiradilar. O'qishni osonlashtirish uchun yangi iboralar, iboralar va gap qoliplarini o'quvchilardan ularni o'qish talab qilinishidan oldin og'zaki o'rganishi lozim.

Shuning uchun o'qitishning eng samarali usullarini topishda o'qituvchi o'quvchilar qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligini bilishi kerak.

1. Birinchi guruh mashqlari o'quvchilarning grafik belgilarni fonik belgi bilan bog'lash qobiliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan.

Ona tilida ham so'zlarni adabiy me'yorlarga rioya qilgan holda o'qish uchun o'quvchilarni matnlarni o'qishga o'rgatish uchun audio qurilmalardan foydalanish mumkin. Hatto talaffuzi qiyin tovushlar uchun transkripsiya orqali o'qishga o'rgatishda ham foydalaniladi. Bu o'quvchiga bir xil grafema turli tovushlar turgan hollarda so'zni o'qishga yordam beradi.

2. Ikkinchi guruhga tarkibiy-axborot mashqlari kiradi. Ular ovoz chiqarib o'qishda ham, so'zsiz o'qishda ham amal qiladi. O'quvchilar gaplar, paragraflar va matnlarni to'g'ri o'qishga o'rgatiladi. Intonatsiyaga alohida e'tibor beriladi, chunki gaplarning haqiqiy bo'linishi, ulardagi mantiqiy predikatni yoritish uchun katta ahamiyatga ega. Ba'zan matnni belgilash foydalidir. O'qishni o'rganishning dastlabki bosqichida o'qituvchi sinfga hukm yoki parchani o'qib berishi kerak. U

o'quvchilar o'tilganlarni tushunishlariga ishonch hosil qilgach, shaxs va sinfdan keyingi gaplarni takrorlashni so'rashi mumkin.

Bu xildagi elementar o'qish amaliyoti faqat cheklangan miqdordagi darslar uchun o'tkazilishi kerak. Sinf ko'proq mustaqil o'qishga tayyor bo'lish uchun yetarlicha jihozlangan bo'lsa, dialogik tarzda o'qish kamaytirilishi mumkin.

Til o'rgatish va o'rganish metodi sifatida ovoz chiqarib o'qish barcha shakllarda amalga oshirilishi lozim. Bu esa o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish uchun amalga oshiriladi.

Ovoz chiqarib o'qishdan ko'proq o'qituvchi foydalanadi:

1) diagnostik o'qish (o'quvchilar o'qiydi va u o'qishda ularning zaif nuqtalarini ko'radi);

2) ta'limiy o'qish (o'quvchilar o'qituvchi yoki notiq tomonidan o'qilgan namunaga amal qiladilar);

3) nazorat (test) o'qish (o'quvchilar matnni o'qib, iloji boricha chizmaga yaqin olishga harakat qiladilar).

Ovoz chiqarmay o'qish. Maxsus mashqlar o'quvchilarning ovoz chiqarmay o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun taklif qilinishi mumkin. Bu ona tili darslarida ba'zan ko'chada va uyda ham amal qilinadigan o'qish turi.

Ovoz chiqarmay o'qishni o'rgatish ikki muammo bilan chambarchas bog'liq:

1. O'quvchilarga ma'lum tarkibiy belgilar bilan o'qiganlarini tushunishni o'rgatish, o'quvchilar grammatika va so'z boyligi haqida ma'lum bilimga ega bo'lishlari mumkin.

2. O'quvchilarning taxmin qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Leksik tahlil o'quvchilarga shakliy so'zlarni o'rganish, uning gapdagi mavqeidan kelib chiqqan holda so'z ma'nosini aniqlash, notanish so'zlar ma'nosini hamda tanish ko'ringan, ammo so'z strukturasi mos kelmaydigan narsalarni topishga yordam beradi.

Topshiriqlardan ba'zi misollar:

1-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing va bilmagan so'zlaringizning ma'nosini taxmin qiling.

2-topshiriq. Matndagi eng muhim soʻzni toping.

Uchinchi guruh mashqlari. Oʻquvchilarga matndan maʼlumot olishga yordam beradi. Matni oʻqish uchun oʻquvchi matn mazmunini tushunib olishi kerak. Oʻquvchini taqqoslash, kontrastlash, taxmin qilish va voqealarni oldindan koʻra bilishga oʻrgatish kerak.

Avval savollar oʻqib tushunish uchun juda foydali boʻlishi mumkin. Oʻquvchi fikrlarini matni oʻqib boʻlib bayon qiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarga matndan maʼlumot olishni buyuradi. Mutolaa mashqlari tavsiya etiladi.

Matnga quyidagicha savollar berish mumkin:

1. Matni oʻqing va nima uchun ...
2. Quyidagi savollarni oʻqing va javob toping.
3. Matni oʻqing. Tayanch soʻzlarni toping.
4. Matni oʻqing va tushunganingizni gapirib bering.
5. Matni oʻqing va fikringizni dalillar keltirib asoslang.

Bundan tashqari, quyidagi topshiriqlar yordamida oʻqib tushunishni tekshirish mumkin:

1. Oʻqing va chizing.
2. Quyidagi maʼlumotlarni toping.
3. Quyidagi gaplarning oʻrniga siz qanday jumla taklif qilasiz, toʻgʻrilang.
4. Matndagi eng muhim gaplarni toping.


Baʼzi topshiriqlar yozma ravishda bajarilishi mumkin.

Oʻspirin yoshidagi oʻquvchilarda tafakkur rivojlanishi tezlashadi. Bu davrda oʻquvchilarning aqliy qobiliyati quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turishi qayd etiladi<sup>46</sup>:

- tafakkur mazmundorligi;
- tafakkur kengligi;
- tafakkur mustaqilligi;
- aqlning tashabbuskorligi;
- aqlning pishiqligi;


Taʼlim mazmuni deganda oʻquv rejalari, oʻquv dasturlari, darsliklar,

shuningdek, o'quv-metodik qo'llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o'quvchilarning o'rganishlari uchun tanlangan va ularning o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o'z ichiga oladi<sup>27</sup>. Takomillashtirilayotgan milliy o'quv dasturlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmasini rivojlantirish nazarda tutilgan. Mazkur ko'nikma quyidagilarni o'z ichiga oladi:



**1.1.1-rasm.**

Bugun zamon talablariga mos holda dasturlar mazmuni takomillashtirilmoqda. Uzluksizligi muayyan darajada ta'minlanayotgan ona tili ta'limi boshqa fanlarni tushunishga yordam berishni maqsad qilmoqda. Ayniqsa, umumta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan dasturlar, yangi avlod darsliklarini yaratishga mos keladi, asos vazifasini o'taydi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviy bog'langan, biri ikkinchisini to'ldiradi. O'rta maxsus ta'lim bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar ham o'qish savodxonligini rivojlantirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilishi kerak. O'qish savodxonligining inson hayotidagi ahamiyati:




15 Қаранг: Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Она тили ўқитувчилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.

### 1.1.2-rasm. O‘qish savodxonligining ahamiyati

Umumta’lim tizimi uchun yozilgan qismida darslik yozishda nazarda tutilishi lozim bo‘lgan matnlar asosan publitsistik uslubda bo‘lib qolgan, o‘quvchi ijtimoiy hayotda turli o‘qish savodxonligi vaziyatlariga duch kelishini inobatga olib, ilmiy, rasmiy, oddiy so‘zlashuv, badiiy matnlar bilan ishlash ham nazarda tutilishi kerak.

Bizningcha, oliy ta’limgacha bo‘lgan ta’lim dasturlari mazmuni o‘quvchida nutq, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘zbek tilining amaliy grammatikasi bilan tanishtirishga xizmat qilishi, oliy filologik ta’lim, o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishlarida esa chuqur nazariy ma’lumotlar o‘qitilishi kerak. Maktab ta’limida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir. O‘qish savodxonligini rivojlantirish matn asosida va matndan tashqari ma’lumotlar bilan ishlashni taqozo qiladi. Quyida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bosqichlari berilgan:



### 1.1.3- rasm. O‘qish savodxonligini rivojlantirish bosqichlari

Ona tili har bir kishi hayotida muhim o‘rin tutadi. Inson o‘z ona tilida fikrlaydi, ta’lim oladi, borliqni o‘zlashtiradi, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadi. Har bir mutaxassisning o‘z sohasida muayyan natijalarga ega bo‘lishida ona tilining ta’siri katta, biroq mamlakatimizda tildan foydalanish, savodxonlik

qoniqarli emas. O‘quv dasturlarida grammatik ma’lumotlarga ko‘p o‘rin ajratilgan, zero o‘zbek o‘quvchisi grammatika asosida gapirmaydi. Qolaversa, dunyoda grammatika deyilganda fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis bo‘limlaridan iborat sistema tushuniladi. Bizda grammatika morfologiya va sintaksisdan iborat. Aslida, grammatika so‘zi lotinchadan “o‘qish va yozishni o‘rganmoq” degan ma’noni beradi. O‘zbek tilining asosini tashkil etgan grammatika, ma’lumki, o‘qish va yozishni, adabiy tilda gapirishni qoniqarli o‘rgatmayapti.

Ona tili o‘qitish metodikasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, PISA, PIRLS xalqaro baholash talablari asosida jahonning ilg‘or o‘qitish metodikalarida mavjud baholashga qulay bo‘lgan malaka talablari ishlab chiqilishini talab etadi. Albatta, mazkur talablar ona tili fanining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Dunyo tajribasida e’tirof etilayotgan til o‘rganishga doir ***tinglab tushunish, o‘qish, yozish*** va ***gapirish*** ko‘nikmalari o‘quvchining o‘qish savodxonligi kompetensiyasini rivojlantirish va baholash imkonini berayotgani ko‘pchilik davlatlarda tan olingan. Jumladan, mamlakatimizda ham chet tili o‘qitishda o‘z samarasini bermoqda. **O‘zbek tilini ikkinchi va davlat tili sifatida o‘qitishda bu xorijiy tajribadan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanish mumkin.** O‘zbekistonda yashovchi boshqa millat vakillarining o‘zbek tilini bilish darajasi ***tinglab tushunish, o‘qish, yozish*** va ***gapirish***ga qo‘yilgan minimal talablarga (masalan, ingliz tilidagi kabi) javob bersa, o‘zbek tili fani o‘z oldiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmani bajargan bo‘ladi.

O‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitish metodikasi esa biroz murakkabroq, chet tili o‘qitishga qo‘yilgan ***tinglab tushunish, o‘qish, yozish*** va ***gapirish*** kabi talablarni aynan qo‘llab bo‘lmaydi. Xalqaro tajribadan ijodiy foydalangan holda mazkur to‘rt ko‘nikmani ona tili o‘qitishga moslashtirish lozim bo‘ladi, chunki ona tilida shunchaki o‘qiy olishning, qo‘lidan kelgancha yoza olishning yoki gapira olishning o‘zi yetarli emas. Ingliz tili o‘rganishga qo‘yilgan minimal talablarni ona tili ta’limiga quyidagicha tatbiq etish mumkin:

1. Tinglab tushunish (anglash)
2. O‘qib tushunish (fahmlash)

3. Yozish (savodli yozish)

4. Gapirish (nutq so'zlash)

Rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya) ona tili ta'limida *tinglab tushunish* bo'yicha o'qish savodxonligi ko'nikmasi tekshirilmaydi, uning o'rniga (analitic writing (tahrir) ko'nikmalarining shakllanganligi baholanadi. O'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish metodikasini takomillashtirishda ona tili ta'limi mazmunini ortiqcha grammatizmdan xalos qilish, o'qish savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan nazariy ma'lumotlarnigina tanlab olish, fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksika va punktuatsiya mavzularini spiralsimon 1-sinfdan 11-sinfgacha o'qitish hamda grammatik minimum ishlab chiqilishi vazifalari ham turibdi.

Bu borada ona tili o'qitishda mashq va topshiriqlar farqlanishi lozim, o'qish savodxonligi ko'nikmalari mashq orqali shakllanadi. Yangi o'qitish metodikasida takrorga asoslangan mashqlardan foydalanish, zamonaviy o'quv topshiriqlar va mashqlar tizimini ishlab chiqish va qo'llash mexanizmi, foydalanish metodikasi yaratilishi kerak.

Shu o'rinda "mashq" va "topshiriq" atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rnini hamda ahamiyati haqida to'xtalish joizdir. Metodist M.Saidov o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va ko'pincha o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli" degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi<sup>28</sup>.

G'.Hamroyevning ta'kidlashicha, topshiriq mashqni o'z ichiga oladi, topshiriqlar o'quvchini yo'naltiradi, fikrlashga undaydi; takrorga asoslangan

---

28 Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф.ТДПУ. –Тошкент, 2000. – 25 б.

mashqlar ko'nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi<sup>29</sup>. Olim o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlariga ham o'z tadqiqotlarida alohida o'rin ajratgan.

K.Mavlonova matn tuzilishini o'rganish, matn tuzish, bog'lovchi vositalarni qo'llash, maqol, hadis, hikmatli so'z, she'riy misralarni matn tarkibiga kiritish talab etiladigan mashqlarni quyidagi turlarga ajratadi:

- 1) tahliliy (analitik) mashqlar;
- 2) konstruksiyalash-sintezlash mashqlari;
- 3) qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash mashqlari;
- 4) matn tuzish va xatolar ustida ishlash mashqlari;
- 5) tuzilgan matnni tahrir qilish mashqlari.

Dissertatsiyada ushbu mashq turlari mufassal bayon qilingan<sup>30</sup>.

O'qish savodxonligini rivojlantirishda, xalq og'zaki ijodi namunalari, bizgacha yetib kelgan boy adabiy meros mahsuli bo'lgan iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlar, tasviriy ifodalardan ona tili ta'limining mazmunini tashkil etuvchi bir vosita sifatida mashg'ulotlarda, har bir o'quv topshirig'i tarkibida unumli foydalanish kerak. O'z vaqtida o'quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va o'zlarida hosil bo'lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Amaldagi dastur va darsliklar o'quvchini ona tili ta'limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga to'liq undamaydi, jarayon tizimli emas, ayrim topshiriqlargina o'quvchini mantiqiy fikrlashga undaydi. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma'lumotlar bazasi emas, balki o'quvchiga ona tilimizning sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanishni o'rgatadigan o'quv topshiriqlari tashkil etmog'i lozim. Chunki maktabda ona tili ta'limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy

---

29 Xamроев F. Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Баёз нашриёти. 2018. 13-б.

30 Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш: пед. фан. фал. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 22 б.



tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni taqozo etadi. Demak, o'quv topshiriqlari o'quvchini izlanishga unday olsagina ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin bo'ladi. Hozirda respublika miqyosida amalda bo'lgan maktab darsliklaridagi o'quv topshiriqlarining aksariyati ona tili ta'limi maqsadiga mos kelmaydi. Chunonchi, ona tili darslarida tez-tez uchraydigan *“Quyidagi gapda nechta ot turkumiga doir so'z qatnashgan?”* kabilarni o'qish savodxonligi ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari darajasida baholab bo'lmaydi, sababi, ular o'quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qila olmaydi.

Fikrimizcha, o'qish savodxonligi ko'nikmasini rivojlantiruvchi maxsus o'quv materiallarni shakllantirish tarixiy va zamonaviy tajribalar uyg'unligidan kelib chiqadi. Bu borada jahon va mahalliy tajribalardan unumli foydalanib muammolarni atroflicha o'rganish ularning yechimini topish imkonini beradi.

O'qish savodxonligini rivojlantirish uchun, avvalo, uning mezonlarini ishlab chiqish zarur.

### **1.2-§. Ona tili darslarida o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlariga qo'yiladigan talablar**

Ona tili darslarida matnga alohida xabarlarni bir-biri bilan bog'lash, bunda to'g'ridan to'g'ri yetkazilmagan matndan olingan ma'lumotlar, yashirin semantik aloqalarni o'rnatish lozim. Savolga javob berish uchun o'quvchilar ba'zan matn xabaridan xulosa chiqarishlari kerak, asosiy va ikkilamchi tafsilotlar, faktlar va fikrlarni ajratib olish va qisqacha shakllantirilgan asosiy fikrlarini keltirishi zarur. Axborot birliklarini bog'lash ularning umumiy rolini aniqlash demakdir. Bular o'quvchilardan o'qish savodxonligi ko'nikmasini egallashni talab qiladi.

Mazkur ko'nikma o'quvchida matnning o'xshashlik yoki farqlarni ko'rsatish, sababni aniqlash yoki mantiqiy bog'lanishlarni topish malakasini hosil qiladi, axborotni bog'lash va interpretatsiya qilish o'rtasida o'qish jarayonida ikki tomonlama yaqin aloqalar yo'lga qo'yiladi. Ichiga axborot birliklarini bog'lash mazmunli butunlik har doim bog'langan har birining ma'nosini talqin qilish aktidan oldin bo'ladi. Tushunishning chuqurligini aniqlaydigan savollar mantiqiy

harakatlarni talab qiladi.

Bir yoki bir nechta matnlarda mavjud muayyan qiyinchilik – bu tahlil matn shakli, matn elementlarining maqsadini tushunish, o‘zaro bog‘liqlik muallifning g‘oyasi bilan ishlatiladigan texnikalarni anglashga olib keladi. O‘quvchi savodxonligining yorqin namoyishi funksional savodxonlikning tarkibiy qismi quyidagilardan foydalanish bilan bog‘liq ko‘nikmalardir: talab qilinadigan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilishda olingan ma’lumotlar; matnda muhokama qilingan o‘z gipotezasini ilgari surish, taxminlar qilish, o‘z nuqtai nazarini bildirish kabilar.

Quyidagilar o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlariga qo‘yiladigan talablar va uni baholash obyekti sifatida ishlaydi:

1. Ma’lumotni topish va qayta ishlash;
  - 1.1. Kerakli ma’lumot joylashgan joyni aniqlash uchun matn parchasi, ko‘prik, veb-saytga havola va boshqalar;
  - 1.2. Qidiruv so‘rovini aniqlashtirish;
  - 1.3. Muhim ma’lumotni topish va tahlil qilish;
  - 1.4. Joylashgan bir nechta ma’lumotlarni topish va kerakli mazmunni aniqlash;
  - 1.5. Joylashgan bir nechta ma’lumotlarni topish va turli matn fragmentlari bilan bog‘lash;
  - 1.6. Joylashgan bir nechta ma’lumotlarni topish va boshqa turli matnlarga bog‘lash;
  - 1.7. Ma’lumotlarning mavjudligini/yo‘qligini aniqlash;
2. Axborotni birlashtirish va talqin qilish;
  - 2.1. Haqqoniy axborotni tushunish (syujet, voqealar ketma-ketligi va hokazo)
  - 2.2. Matnning semantik tuzilishini tushunish (mavzuni aniqlash, asosiy g‘oya /g‘oya, matnning maqsadini bilish);
  - 2.3. Kontekst asosida so‘z yoki iboraning ma’nosini tushunish;
  - 2.4. Voqealar yoki bayonotlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish (sababiy

munosabatlar, argument-qarshi munosabatlar, tezis-misol, o'xshashlik-farq va hokazo);

2.5. Grafik va og'zaki ma'lumotlarni o'zaro bog'lash;

2.6. Ma'lumotlarni taqqoslash asosida xulosa chiqarish;

2.7. Matnning turli qismlaridan olingan ma'lumotlarni birlashtirish asosida xulosalar chiqarish yoki turli matnlarga bog'lay olish;

2.8. Qahramonlarning his-tuyg'ulari, motivlari, xarakterlarini tushunish;

2.9. Muhokama qilinayotgan muammoga nisbatan muallifning pozitsiyasini tushunish;

2.10. Grafik ma'lumotlarni tushunish;

2.11. Fakt va fikrni farqlash;

2.12. Janr yoki vaziyatni hisobga olgan holda matnni yoki uning parchasini sharhlash, matnni qayta ishlash;

2.13. Keltirilgan ma'lumotlar asosida matn parchasi haqida xulosa chiqarish;

3. Matnning mazmuni va shaklini tushunish va baholash;

3.1. Matn yoki uning elementlari (misollar, argumentlar) mazmunini muallifning maqsadiga nisbatan baholash (illustratsiyalar va boshqalar);

3.2. Muallifning kommunikativ niyatini, matnning maqsadini tushunib olish<sup>31</sup>.

3.3. Matnning shaklini (tuzilishi, uslubi va boshqalarni baholang), maqsadga muvofiqligini, muallif tomonidan qo'llaniladigan usullarni tahlil qilish;

3.4. Muallif tomonidan ishlatilgan matnning tarkibiy birligining maqsadini tushunib olish;

3.5. Matn tarkibidagi ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini baholash;

3.6. Axborot manbasining obyektivligi va ishonchliligini baholash;

3.7. Bir yoki bir nechta matndagi qarama-qarshiliklarni aniqlash;

3.8. Masala bo'yicha o'z nuqtai nazarini ifoda etish va asoslash, matnda

---

31 Ўқиш саводхонлигини шакллантириш бўйича методик тавсиялар. 5-9 синфлар ўқиш саводхонлиги 15 бетдан 124 бет

muhokama qilish;

3.9. Matn yoki matn elementlari/qismlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish;

4. Matndagi ma'lumotlardan foydalanish;

4.1. Amaliy muammoni hal qilish uchun matndagi ma'lumotlardan foydalanish;

4.2. Matndan olingan ma'lumotlar asosida o'z farazini shakllantirish, hodisalarni bashorat qilish, jarayonning borishi, eksperiment natijalari asosida matn ma'lumotlarini sintez qilish;

4.3. Sinfga tegishli yangi hodisaning talqinini taklif qilish, matnda muhokama qilinadigan hodisalar (shu jumladan, bitta mavzudan ko'chirish);

4.4. O'qilgan narsalar va zamonaviy haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Topshiriqlarni ishlab chiqish: unda haqiqiy o'qish holatlarida matn funksiyalari hisobga olinadi:

shaxsiy maqsadlar uchun o'qish: shaxsiy yozishmalar (shu jumladan, bloglar, chatlar, SMS);

- badiiy adabiyot, biografiyalar va boshqalar;
- davlat maqsadlari uchun o'qish: rasmiy hujjatlar haqida ma'lumot, davlat ahamiyatiga molik tadbirlar va boshqalar;
- ta'lim olish uchun ma'lumotnomani o'z ichiga oladi;
- badiiy, ilmiy-ommabop matnlar;
- bir nechta (bir xil vazifa doirasida) turli xil kontekstlarning kombinatsiyasi.

O'quvchining savodxonlik vazifasining mazmuni matndan foydalanish holatlari bilan belgilanadi. O'quvchi savodxonligini rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar banki quyidagi vazifalarni taqdim etadi:

Formatlar:

- 1) bitta to'g'ri javobni tanlash topshirig'i;
- 2) bir nechta to'g'ri javoblarni tanlash topshirig'i;

- 3) qisqa javob bilan ishlash topshirig'i;
- 4) bir nechta qisqa javoblar bilan ishlash vazifasi (javoblar uchun alohida joylar);
- 5) batafsil javobga ega bo'lgan topshiriq (matn, rasm yoki rasm shaklida va matn);
- 6) muvofiqlikni o'rnatish uchun topshiriq (obyektlarning ikki guruhi);
- 7) muvofiqlikni o'rnatish uchun topshiriq (obyektlarning bir nechta guruhlari);
- 8) ketma-ketlikni o'rnatish topshirig'i;
- 9) matn parchasini tanlash topshirig'i;
- 10) murakkab bir nechta tanlovga ega bo'lgan topshiriq;
- 11) javob va tushuntirishni tanlash bilan bog'liq murakkab topshiriq;
- 12) qisqa javobli topshiriq va unga tushuntirish.

O'quvchi savodxonligini rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar banki: vazifa formatlari xilma-xildir. Umumta'lim maktablarida ona tili, o'zbek tili bo'yicha amalda bo'lgan dasturlarning mazmuni va asosiy yo'nalishlari 1950-yillarning o'rtalarida shakllangan bo'lib, shundan beri ular ayrim o'zgarishlar, to'ldirishlar bilan bugunga qadar kun tartibidan tushgani yo'q. Shu asosda darsliklar yaratildi, ular takror-takror davr sinovidan o'tdi. Bir tomondan qaraganda, bu boradagi ishlar takomillashib, mukammallashib borganga o'xshab ko'rinadi. Biroq ijtimoiy hayotimizda keyingi chorak asrdan ko'proq o'tgan vaqt mobaynida siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan keskin o'zgarishlar ro'y berdi; milliy dunyoqarashimizda, shu bilan bog'liq shaxs tarbiyasiga munosabat masalasida yangilanishlar kuzatildi; mustaqillik mafkurasi jamiyatning har bir a'zosi, har bir sohasi, har bir ko'rinishi oldiga yangicha talablarni qo'ydi.

Jamiyatimizda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi va ro'y bermoqda. Shunday o'zgarishlar sirasida o'zbek tilshunosligi va uning tadriji bilan bog'liq yangilanishlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek tilshunosligida tilni umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab xarakteridagi tizim; nutqni esa alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat sifatida o'rganuvchi substansial tilshunoslik

yoʻnalishi shakllandi, rivojlandi, ulkan yutuqlarni qoʻlga kiritdi.

Biroq bu yangilanishlarning barchasi taʼlim tizimi bosqichlarida saralanib, birdek qabul qilingani yoʻq. Jumladan, oʻzbek substansial tilshunosligining yuzaga kelishi uchun poydevor vazifasini oʻtagan anʼanaviy tilshunoslik yutuqlari oliy taʼlim dastur-u darsliklarida ham, oʻrta maxsus taʼlim tizimida ham, maktab dasturida ham yangi yoʻnalish yutuqlari bilan qorishib ketdi. Bir-birini rad etuvchi nazariy bilimlar maktab darsliklarida koʻplab uchrashi ham achinarli holdir.

Atrofimizga nazar tashlasak, ilgʻor davlatlarning koʻpida ona tili boʻyicha taʼlim mazmuni tubdan yangilandi. Taʼlim mazmuni sirasida oʻquvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozimligi belgilandi.

Oʻquvchilarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlash koʻnikmasini shakllantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki va yozma shaklda toʻgʻri, ravon ifodalashga oʻrgatish uchun ona tili taʼlimining mazmunini tubdan yangilash, oʻquv materiallarini zamon ehtiyojiga moslash talab qilindi. Buni amalga oshirishda, tabiiyki, taʼlim vositalari muhim ahamiyatga ega. Bugunga qadar bir qator maktab “Ona tili” darsliklari yaratildi, lekin ulardagi oʻquv materiallarining hammasi ham talabga javob beradimi, degan savol atrofida mulohaza yuritishga toʻgʻri keladi. Professorlar H. Neʼmatov va A. Gʻulomov ona tili taʼlimining bugungi holatini, uni yaxshilashda nimalar qilish kerakligini, oʻquvchilarga nimalarni oʻrgatish lozimligini jiddiy tahlil orqali oʻrinli asoslagan edilar.

Raqobatbardosh, malakali kadrlarni tarbiyalash ona tili taʼlimi oldida turgan dolzarb vazifa boʻlib, uni amalga oshirish umumiy oʻrta taʼlimning asosiy vositasi boʻlgan darsliklar, ulardan oʻrin olgan oʻquv materiallarining saviyasiga koʻproq bogʻliqdir. Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, bugungi kun ona tili taʼlimi maqsadi darslarda asosiy taʼlim vositasi faqat darslik boʻlishini taqozo etmaydi. Oʻqituvchi ham, oʻquvchilar ham belgilangan mavzular mohiyati bilan bogʻliq tarzda, odatda, “Axborot banki” materiallari (lugʻatlar, maʼlumotnomalar, qomuslar, qaydlar va h.o.lar)ga tez-tez murojaat etishlari lozim. Afsuski, ona tili taʼlimi mazmuni yangilanganiga qariyb yigirma yildan oshgan boʻlsa-da, maktab oʻqituvchilarining

aksariyati hamon faqatgina darslik materiallaridan foydalanmoqda. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda darslik ma’lumotlarining o‘zi yetarli emas. Albatta, lug‘atlar, ensiklopediyalar, xaritalar, elektron manbalar, internet kerak bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, yangi 2019 – 2020 - yillarda yaratilgan 8-, 10-, 11-sinf “Ona tili” darsliklari mazmuni o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. 2022-yilda yangilangan 6-, 7-, 10-sinf “Ona tili” darsliklari ham o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq jarayoniga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Zero, hozirgi zamon fan asoslarini to‘liq egallashda ona tilining roli nihoyat darajada muhimdir. Ona tilidan to‘liq bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan o‘quvchigina boshqa fanlarni o‘zlashtirishda qiynalmaydi. Yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an‘analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tilining tutgan o‘rni hamda imkoniyatlari benihoya katta. Ayniqsa, mustaqil mamlakatimiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ta’limning ustuvor muammosi bo‘lib turgan hozirgi sharoitda bu fanning o‘qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda XX asr boshlarida milliy til uchun kurashgan pedagog, tilshunos va adabiyotshunos A.Avloniyning: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”<sup>32</sup>, - degan fikrlari umumta’lim maktablarida ona tilini o‘qitishning ahamiyati naqadar katta ekanligiga dalildir. Shu ma’noda ona tilini mukammal o‘qitish har bir ona tili fani o‘qituvchisining sharaflı burchidir.

Zero, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisining o‘qish savodxonligi bo‘yicha egallagan malakasi O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan barkamol avlodni yuksak insoniy fazilatlar sohibi qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham til va ta’lim haqidagi qonunlarda o‘zbek tili o‘qituvchisi oldiga yangi vazifalar

---

32 Abdulla. Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq: Ibratli hikoyalar/.—T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,. 2004.-96 b.

qo'yilgan.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning nutqini o'stirish, ularga to'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rgatib borish, so'z boyligini kengaytirish bilan birga turli uslubdagi matnlarni o'qib tushunish, tushuntirib bera olish, o'zgaralar fikrini anglashga o'rgatish har bir ona tili o'qituvchisining bosh vazifasidir.

Demak, ona tili ta'limining bosh maqsadi ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat ekan, nutq o'stirish muammosi til ta'limida alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ona tili mashg'ulotlarida nutq o'stirish, o'qish savodxonligi ko'nikmasini tarbiyalash va ro'yobga chiqarish yo'llari o'rgatiladi.

Maktabda ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchida turli mazmundagi matnlarni o'qib tushuna olish, tushuntirib bera olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Bunda:

1. Turli shakl va mazmundagi matnlarni tushunish imkonini beruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
2. Turli shakl va mazmundagi matnlarni tushunish imkonini beruvchi savollar tizimini ishlab chiqish;
3. Turli shakl va mazmundagi matnlarni tushunganligini aniqlash imkonini beruvchi savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishga alohida e'tibor berish lozim.

Ta'kidlash joizki, o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish o'quv topshiriqlari orqali amalga oshadi. Ona tili o'qituvchisi barcha sinflarda, umuman, barkamol avlodni tarbiyalashda milliy ma'naviyat va mafkuraviy ruh, madaniyat va qadriyatlarning ulkan xazinasini bo'lmish ona tilini o'qitish jarayonida har bir darsda millat tafakkurini shakllantirib va rivojlantira borishdek g'oyat mas'uliyatli va sharafli vazifani bajaradi. Bunda, avvalo, o'z o'quvchisida tushunish ko'nikmasini rivojlantirishi kerak. Shunda o'quvchi boshqa ma'lumotlarni o'zi o'qib o'zlashtirib olaveradi. Zero, bugungi globallashuv sharoitida bilim muammo emas, o'qituvchi o'quvchilarga hamma bilimlarni o'rgata olmaydi. Shu ma'noda,



o'qish savodxonligi o'quvchini turli manbalar bilan mustaqil ishlash, mulohaza qila olish orqali o'ziga kerakli ma'lumotlarni topib olish imkonini beradi.

To'g'ri, o'quvchilarning ona tili ta'limi natijasida egallagan bilimlari, hosil qilgan malaka va ko'nikmalari quyidagi mezonlar bo'yicha belgilanadi:

- 1) to'g'ri va ravon o'qish;
- 2) o'z fikrini to'g'ri, izchil va ravon bayon etish mahorati;
- 3) ona tilining qurilishi va imkoniyatlari bo'yicha bilimlar tizimini o'rganganligi bilan.

O'qish savodxonligi, o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishga qo'yiladigan dastlabki qadamlardan biri bu – o'qish tezligi masalasidir.

Ammo har bir mezon bo'yicha ko'rsatkichlar sinfma-sinf sifat va miqdor jihatdan mukammallashib borishi lozim. O'qish tezligi bo'yicha miqdoriy ko'rsatkich 1 daqiqada talaffuz va boshqa me'yorlarga rioya qilgan holda 80-90 ta so'zni o'qiy olish; 30 daqiqada berilgan mavzu asosida 8-10 gapdan iborat matn yaratib, fikr bayon qila olish; fonetika, imlo, talaffuz, tinish belgilar; so'z va uning ma'nosi; grammatika: so'z tarkibi, o'zak, qo'shimcha; mustaqil va yordamchi so'z turkumlari; nutq madaniyati: adabiy nutq va so'zlashuv nutqi kabilardan ilk zaruriy va nazariy bilim unsurlari DTSning asosiy mezoni qilib belgilangan.

Jamiyatdagi har bir shaxs o'z ona tilini puxta o'rganib olsagina, uning zehni, ongi va umumiy madaniy darajasi ortadi. O'z tilining keng imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bimalol foydalana oladigan shaxsgina boshqa fanlar asosini chuqur o'zlashtirishga dadil qadam tashlay oladi. Og'zaki hamda yozma nutqdan foydalanish malakasiga ega bo'lgan o'quvchi kelajakda mutaxassis sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsata oladi. Mustaqil turmushda uning ona tilidan o'rgangan bilimlari, to'g'ri yozish va o'qish malakalari, to'g'ri va chiroyli so'zlash san'ati, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash, ish qog'ozlari bilan ishlay olish ko'nikmalari qo'l keladi.

Ona tili o'qitishning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri imloviy savodxonlikni rivojlantirishdir. Bunda ham o'qish savodxonligi yaqindan yordam beradi. Zero, mazkur ko'nikma o'quvchida mustaqil fikrlash, mantiqiy o'ylash

malakasini rivojlantiradi. Har bir ona tili o'qituvchisi barcha darslarda o'quvchilarning imloviy savodxonligi ustida tizimli ravishda ish olib borishi lozim. Bu narsa o'quvchining umumiy savodxonligini oshirishga ko'mak beruvchi birinchi omildir. O'qituvchi orfografik malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash yo'llarini belgilab oladi. Orfografik malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati ham talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki tahlil qila bilish ham talab qilinadi. Bunda grammatik va orfografik hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan qolipga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

O'quvchida mantiqiy fikrlash ko'nikmasi rivojlantirib olinsa, u o'ziga kerakli manbalar bilan ishlay oladi. Nimaning yechimi qayerda ekanini o'zi mulohaza qilib topa oladi. Shu ma'noda, ona tili o'qitishda ko'zda tutiladigan eng muhim jihatlar to'g'ri yozish, mantiqan va usluban fikrni to'g'ri shakllantirish, o'zini o'zi tekshirib ko'rishga odatlantirish o'qish savodxonligi orqali amalga oshadi.

Umumta'lim maktablarining 8-, 9-sinf dastur va darsliklarida o'qish savodxonligi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qanday yondashilayotganligini tahliliy o'rganish bu borada muayyan xulosalarga kelishga asos bo'ladi.

### **1.3-§. Ona tili darslarida o'qish savodxonligini rivojlantirishning mavjud holati tahlili**

Dunyoga yuz tutib, rivojlanib borayotgan mustaqil davlatimizga hozirgi kunda o'z haq-huquqini anglaydigan, mustaqil fikr yurita oladigan va fikrini isbotlab biladigan, gapga chechan, so'zini o'tkaza oladigan insonlar zarur.

Shunday ekan, ona tili ta'limi oldida turgan o'ta muhim vazifalardan biri tafakkur sohibini tarbiyalashdir. Tafakkur doirasi keng bolagina ijodiy fikrlay oladi hamda fikrlarini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, mazmunli, sodda, ravon ifodalay oladi. Shuning uchun ham o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini hosil qilish, aniq va teran fikrlash, o'z fikrlarini ixcham, tushunarli bayon qilish malakasini shakllantirish ona tili o'qituvchilari oldida turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki bunday malaka va ko'nikmalarni egallagan tafakkur sohibi ko'zda tutilgan til materiallarini shunchaki o'rganmaydi, balki ularning mohiyatini anglashga, til hodisalari orasidagi o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlashga kuzatish, qiyoslash, guruhlash, umumlashtirish singari aqliy faoliyat usullarini bajarish vositasida erishadi.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishning dastlabki qadami ularning so'z zahirasini oshirishdan boshlanadi, yetarli so'z zahirasiga ega bo'lgan shaxsgina til birliklarini o'rinli qo'llab, fikrini to'g'ri ifodalay oladi. Shu bilan birga, mustaqil qobiliyatga ega bo'ladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham ko'zda tutilgan talablarga binoan o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish eng asosiy vazifadir. Chunki mustaqil fikrlash voqelikka ijodiy yondashish, mantiqan to'g'ri jumlar tuzish, o'z fikrini erkin ifoda etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Demak, maktabda o'qitish jarayonining, asosan, ona tili ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarda o'qish savodxonligi ko'nikmalarini hosil qilish, ularni o'z fikrini mantiqan izchil va usluban savodli qilib bayon etishga o'rgatishdan iboratdir.

O'quvchilarning yozma nutqini o'stirish, avvalo, egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish malakasi bilan bog'liqdir. O'quvchi savol va topshiriqlar asosida berilgan mashqlarni bajarar ekan, u grammatik qoidalarni yozma nutqda qo'llashga harakat qiladi. Buning uchun har bir o'rganilgan qoida mashqlar bilan mustahkamlanib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tilga oid qoidalarining barchasini to'liq o'zlashtirish, shu qoidalarining hammasiga amal qilish orqali erishiladi. Shuning uchun doimo ona tili darslarida

imlo qoidalariga qo'yilgan talabni hisobga olishimiz, unga amal qilishimiz lozim. Bu vazifani unutish yoki bu talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfga qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy, izchil va qat'iy amal qilinsagina o'quvchilarda imlo savodxonligi samarali kechadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini o'z vaqtida olish savodxonlikni o'stirishning asosiy garovidir. O'qituvchi o'quvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolarni quyidagi chora-tadbirlar orqali bartaraf qilishi mumkin:

1. Ona tili darslarida imloviy daqiqalar o'tkazish va lug'at bilan ishlashni keng yo'lga qo'yish.

2. Har darsda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan umumiy xatolarni aniqlash.

3. Dars jarayonida o'quvchilarning individual xatolari ustida ishlash va ularni o'z vaqtida bartaraf qilib borish.

4. Takrorlash darslarida yoki to'garak mashg'ulotlarida «Savodxon o'quvchi» tanlovini tashkil qilish.

5. O'quvchilar o'rtasida turli yozma ishlar tanlovini tashkil qilish.

6. Har bir darsda matn ustida ishlash. Quyi sinfdan boshlab matn daftarlarini tashkil etish.

7. O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarning oldini olishning muhim yo'li - «Imlo lug'ati» daftarini tashkil etish.

Zero, o'quvchining yo'l qo'ygan xatosi o'qituvchining nazorat daftarida qayd qilinsa, o'quvchi qaysi qoidalarni bilmasligi oydinlashadi. Xullas, ona tili darslari orqali o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda yuqoridagi usullardan foydalanish rejalashtirilgan mavzularni puxta egallash va amalda qo'llashda katta samara beradi.

Ona tili ta'limini o'rganishdan asosiy maqsad kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san'atidan xabardor, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini mukammal egallagan, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Chunki yoshlar ham jismoniy,

ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiya olsagina har jihatdan barkamol, erkin shaxs bo'lib rivojlana oladi. Ona tili o'qitishning asosiy maqsadi til qonun – qoidalarini biladigan, undan ongli ravishda to'la foydalana oladigan, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini, imlo qoidalarini, to'g'ri o'qish ko'nikmalarini egallagan, mustaqil fikrlaydigan, hartomonlama komil o'quvchilarni yetishtirishdir. Bugungi kunda ona tili ta'limidan talab qilinadigan asosiy maqsad bola tildagi har bir hodisani va har bir lug'aviy birlikni, barqaror birikmalarni ajrata bilishi kerak. Mana shu til hodisalaridan va lug'aviy birliklardan o'zining og'zaki hamda yozma nutqida keng foydalana olishi lozim. Ular tildan amalda foydalana olsagina ona tili o'qituvchisi o'zining maqsadiga erishgan bo'ladi. Shundagina bolaning ijodiy qobiliyatlari to'liq shakllanadi va rivojlanadi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishning dastlabki qadami ularning so'z zahirasi oshirishdan boshlanadi, yetarli so'z zahirasi ega bo'lgan shaxsgina til birliklarini o'rinli qo'llab, fikrini to'g'ri ifodalay oladi.

Amaldagi 8-sinf "Ona tili" darsligida ham o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari mavjud:

### **1-topshiriq. Hikmatlarni o'qing va mag'zini chaqing.**

1. Boshimizga kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, me'yordan ortiq so'ylaganimizdan kelur. 2. Viqor deb kibr va g'ururdan, manmanlikdan o'z fe'lini saqlamoqqa aytilur. 3. Intizom deb ibodatlarimizni, ishlarimizni o'z vaqtida tartibi ila qilmoqqa aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa ham yasholmas edilar. 4. Iffat deb gunoh va buzuvchi ishlardan saqlanmoqqa aytilur. Bizni gunohdan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni asrovchi narsa faqat iffatimizdir. 5. Hayo deb ishda, so'zda odobga rioya qilmoqni aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdir. (*Abdulla Avloniy*)<sup>33</sup>.

**1-topshiriq** mazmuniga ko'ra o'quvchida o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, o'quvchining so'z boyligini oshiradi, nutqini ravonlashtirishga yordam beradi.

---

<sup>33</sup> Қодиров М., Неъматов Х, Менглиев Б. Ва бошқ. Она тили. 8-синфлар учун дарслик. – Т.: Чўлпон. 2019. 6 б.

**1-mashq.** Quyidagi izohlardan *viqor, kibr, g'urur, gunoh, iffat, harom-harish, hayo, odob, ma'naviy, ma'naviyat, ziyo* so'zlarining ma'nosini aniqlab lug'at daftaringizga ko'chiring: 1) vijdoniy poklik, nomus; 2) mag'rurona va ulug'vor ko'rinish, salobat; 3) o'zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish hissi; 5) insonning o'z qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi; izzat-nafs; 6) odob-axloq doirasiga sig'maydigan ish, nojo'ya xatti-harakat; ayb; 7) nopok, iste'molga yaramaydigan; 8) nojo'ya, noma'qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm; 9) bilim, ilm, ma'rifat; 10) axloqqa, shaxsning ichki dunyosiga oid; 11) ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomalalik<sup>34</sup>.

Mazkur mashq o'quvchilarda so'z boyligining oshishiga yordam beradi va yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Quyidagi mashq esa gapirish, o'z fikrini to'g'ri ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**1.2-mashq.** Yuqoridagi so'zlar asosidagi "So'z va ma'no" tafakkur mashqida ishtirok eting.

**Namuna:**

**1-tur.**

1-o'quvchi: Intizom – bu ...

2-o'quvchi: Ibodat va ishlarni o'z vaqtida tartib bilan bajarmoq.

**2-tur.**

1-o'quvchi: Ibodat va ishlarni o'z vaqtida tartib bilan bajarmoq – bu ...

2-o'quvchi: Intizom.<sup>35</sup>

Yuqoridagi o'quv topshiriqlari orqali o'quvchini ijodiy ishlashga tayyorlab olish mumkin. Keyingi bosqichlarda esa o'quvchini fikrlashga, fikr mahsulini muloqot vaziyatiga moslab ifoda qilishga o'rgatadi. O'quvchi berilgan savollarga to'g'ri va aniq, qisqa hamda lo'nda javob berishni mashq qiladi:

**1.3-mashq.** Savollarga javob bering.

1. Iffatning qanday turlari bor?

---

34 Қодиров М., Неъматов Х, Менглиев Б. Ва бошқ. Она тили. 8-синфлар учун дарслик. – Т.: Чўлпон. 2019. 6 б.

35 Қодиров М., Неъматов Х, Менглиев Б. Ва бошқ. Она тили. 8-синфлар учун дарслик. – Т.: Чўлпон. 2019. 7 б.

2. Iffat va hayoning farqi nimada?
3. Iffatsiz kishini ko‘rganmisiz?
4. Odobning qanday turlarini bilasiz?
5. “Odobni odobsizdan o‘rgan” maqolining mazmunini qanday tushunasiz?
6. Kibr va g‘ururning farqi nimada?
7. Kibrli kishi manman bo‘ladimi yoki mag‘rur?
8. Gerdayish kibrga kiradimi yoki g‘ururga?<sup>36</sup>

B.Mengliyev muallifligida amaliyotga joriy qilingan 8-sinf “Ona tili” darsligi o‘qitishning qisman izlanuvchanlik va asosan tadqiqot (izlanuvchanlik) metodlariga tayanilgan, uning mohiyati quyidagicha: masalan, “Uyga vazifa” ruknida mashqning sharti o‘quvchini mustaqil shug‘ullanishga undaydi.

**5-mashq. “Odob – hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lmoq” mavzusida radionutq tayyorlang<sup>37</sup>.**

Izlanuvchanlik quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda muammoni shakllantiradi, uning yechimi maktabda dars mobaynida aniqlanadi;
- bilim o‘quvchilar bilan bo‘lishilmaydi. O‘quvchilar muammoni o‘rganish jarayonida uni mustaqil oladilar, olingan javoblarning turli versiyalarini taqqoslaydilar. Natijalarga erishish uchun vositalar ham o‘quvchilar tomonidan belgilanadi;
- o‘qituvchining faoliyati muammoni hal qilish jarayonini operativ boshqarish;
- ta’lim jarayoni yuqori intensivligi bilan ajralib turadi, o‘qitishga qiziqish ortadi va olingan bilimlar chuqur farqlanadi.

O‘quv topshiriqlari darslikning asosiy qismini tashkil qilar ekan, darslik masalasiga ham qisman to‘xtalish lozim. Ta’lim mazmuni o‘quv adabiyotlarida (darsliklar, ma’lumotnomalar, qo‘shimcha o‘qish uchun kitoblar, atlaslar, xaritalar,

---

36 Қодиров М., Неъматов Х. Менглиев Б. Ва бошқ. Она тили 8-синфлар учун дарслик. – Т.: Чўлпон. 2019. 8 б.

37 Қодиров М., Неъматов Х. Менглиев Б. Ва бошқ. Она тили 8-синфлар учун дарслик. – Т.: Чўлпон. 2019. 8 б.

topshiriq va mashqlar to'plamlari, bosma asosida daftarlar va boshqalar) batafsil bayon etilgan).

Bola o'z ona tilini o'qib o'rganib olgandagina uning zehni, aqli, fikrlash qobiliyati, ongi va ma'naviy-axloqiy darajasi oshadi. Ayniqsa, o'zbek xalqi tarixida xalq yaratgan madaniy-tarixiy boyliklardan hamda bugungi kundagi mustaqil elimizning erishayotgan yutuqlaridan xabardor bo'ladi. Boshqa fanlar asosini chuqur o'zlashtirishga dadil qadam tashlaydi. Ana shuning uchun ham o'qituvchi, birinchi navbatda, o'quvchilarning o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatini uyg'otishi lozim. Chunki ona tiliga bo'lgan muhabbat Vatanga, xalqqa bo'lgan muhabbat bilan chambarchas bog'liqdir.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq Respublikamizda xalqimizning milliy qadriyatlari, ma'naviyati hamda til madaniyatiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Mana shuning natijasida uzoq yillar davomida saqlanib, bizga meros bo'lib qolgan xalqimiz qadriyatlari va madaniyatimizning tiklanishiga ham erishildi. Shu jumladan, xalq og'zaki ijodining noyob namunalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, maqol va matallarning bola tarbiyasidagi muhim vazifasi ustida ko'proq amaliy ishlar qilindi. Chunki maqol va matallar xalqning ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, ma'naviy boyligi, durdonalaridir. Ularni o'rganmay turib, xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixi, uning madaniyati va turmushi o'ziga xosliklarining shakllanishi haqidagi tarixiy fan etnografiyani chetlab o'tish mumkin emas. Xalq maqollarining matni bilan tanishar ekanmiz, xalqimiz el farzandlarining bir-biriga hamkor, halol, pok bo'lishi bilan birga mard, vatanparvar, ilmni sevuvchi shaxs darajasiga ko'tarilishini ham xohlaganligiga ishonamiz.

Maqollar va matallar – xalq og'zaki ijodi merosining keng tarqalgan va eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o'ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchlidir.

Xalq maqol va matallari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat



va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamosoli bir oynasidir. Ularda xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari to'la namoyon bo'lgan. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro o'qish savodxonligi munosabatlarida, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelingan va qo'llanmoqda.

Ayrim darsliklarda xalq maqollariga alohida e'tibor qaratiladi. Ammo o'qish savodxonligi ko'nikmasi rivojlantirilmagani sababli maqol janrini yondosh hodisalardan farqlash malakasi yetishmaydi. Oqibatda o'quvchi maqol va matalni farqlay olmaydi. Maqol va matallar uzoq o'tmishda bo'lgani kabi bugungi kunda ham mustaqillikka erishgan o'zbek xalqining yosh avlodini ajdodlar havas qilgan barkamol inson darajasiga yetaklovchi asosiy tarbiya vositalaridandir. Tilshunoslikning barcha sohalarini o'rgatish jarayonida maqol va matallardan samarali foydalanish mumkin. Shuningdek, milliy qadriyatlar aks etgan milliy asarlar matnini ham o'qib tushunish nihoyatda zarur. Shu ma'noda 7-sinf "Ona tili" darsligida berilgan "Kurashning qayta tug'ilishi" nomli matn to'g'ri tavsiya qilingan:

### **Kurashning qayta tug'ilishi**

Kurash – sportning qadimiy turlaridan biri. U besh ming yildan ortiq vaqtdan beri mavjud. O'zbek kurashida xalqimizning ruhiyatiga, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo'lgan mardlik, jasurlik, bag'rikenglik, raqibga nisbatan olijanoblik, halollik, insonparvarlik fazilatlarini mujassamlashgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Amir Temur hukmronligi davrida milliy kurashning 400 ga yaqin usuli ma'lum bo'lgan. Bu usullarning deyarli barchasi hozirgacha saqlanib qolgan, ammo turli sport turlariga tarqalib ketgan. Sambo, dyzyu-do, yunon-rum, erkin kurash shular jumlasidandir. Qadimdan bayram sayllarida, to'ylarda odamlar to'planib davra hosil qilishgan va unda polvonlar o'zaro kurash

tushishgan. Odamlar qishloqqa qishloq, urug‘ga urug‘, tumanga tuman bo‘lib bellashishgan. G‘olibga turli sovg‘alar berilgan. Mag‘lubning o‘rtoqlari, aka yoki ukasi o‘z yeri va oilasi sha‘nini himoya qilishni istasa, g‘olib bilan bellashishiga ruxsat berilgan. G‘irromlik qilgan, raqibiga atay zarar keltirmoqchi bo‘lgan polvonlar davradan quvilgan. Ular el orasida g‘irromchi deya nom chiqarib, elga sharmanda bo‘lganlar. Halol kurashganlarni esa hatto mag‘lub bo‘lsa ham, el olqishlagan. Kurashchilarning asosiy maqsadi o‘z tug‘ilgan yeri, ota-bobolari ornomusini himoya qilish bo‘lgan. Bayram va to‘ylardagi kurashni yoshi katta polvonlar yoshlarga o‘rnak bo‘lish maqsadini ko‘zlab boshlab berganlar. Bu holatning go‘zal ta‘rifini Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida ham ko‘rishingiz mumkin.

Kurash ana shunday otadan bolaga, ustozdan shogirdga o‘tib saqlanib kelgan. 1980-yillarning boshida mashhur o‘zbek kurashi ustasi, dyzyudochi va sambochi Komil Yusupov o‘zbek kurashining boy merosini tadqiq etish ishlarini boshlab yubordi. Ushbu sport turining qayta tiklanishida faollardan biri Komil polvonning asosiy maqsadi kurashning xalqaro me‘yorlarga mos bo‘lgan yangicha qoidalarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. To‘qsoninchi yillarning boshlariga kelib u ushbu sharaflı vazifani muvaffaqiyatli ado etib, o‘zbek kurashini xalqaro arenaga olib chiqishni o‘z oldiga maqsad qildi.

Avvaliga u o‘zi ishlab chiqqan kurash qoidalarini jamoatchilik, mutaxassislar va ishqibozlar e‘tiboriga havola etdi. Yangi qoidalar o‘zbek kurashining eng ardoqli an‘analari va maxsus kiyimbosh (kurashchilar oyoqyalang, yashil va ko‘k yaktak, qizil belbog‘ va oq ishtonda maydonga chiqqan), musobaqalarni o‘tkazish joyi va bellashuvning davom etish muddati kabi xalqaro sport me‘yorlarini o‘zida mujassam etdi. Sport mutaxassislari Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan kurash qoidalari to‘laligicha xalqaro sport talablariga javob berishini e‘tirof etdilar. Kurash qoidalarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular yotgan holda bellashuvning davom ettirilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Sportchilardan birining tizzasi gilamga tegishi bilanoq hakam bellashuvni to‘xtatadi va kurashchilar turgan holda musobaqani davom ettirishadi.

Bu hol kurashning jadal va tezkor bo‘lishini va muxlislar uchun qiziqarli hamda maroqli bo‘lishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari kurash qoidalari belbog‘dan pastki qismni ushlovchi yoki og‘riq qo‘zg‘atuvchi va bo‘g‘uvchi uslublarni ishlatishni ta’qiqlaydi. Shu tariqa kurash sportchilarga tan jarohati yetkazilishining oldi olingan eng xavfsiz sport turlaridan biriga aylandi.

1. Muallif matnni nega shunday nomlagan?
2. Kurash dastlab ko‘ngilochar o‘yin bo‘lganini matnning qaysi qismlaridan bilish mumkin?
3. Kurashni xalqaro darajaga olib chiqishda jonbozlik ko‘rsatgan polvon kim?
4. Nima deb o‘ylaysiz, nega kurashning qonun-qoidalari xalqaro talablarga moslab qayta ishlab chiqildi?
5. Bayram va to‘ylarda kurashchilar taroziga chiqib keyin bellashmagani aniq, sizningcha, raqiblar qanday tanlangan?
6. Kurashning qanday turlarini bilasiz?
7. Kurash atamalaridan qaysilarini bilasiz?
8. Kurash bilan birga yana nimalar xalqaro sport maydoniga kirib bordi, deb o‘ylaysiz?<sup>38</sup>

Darslikning “Zamonaviy kasblar” ruknida o‘quvchi hayotida asqatadigan juda muhim ma’lumotlar keltirilgan, biroq unga doir o‘quv topshiriqlari ona tili o‘quv maqsadlaridan biroz uzoqlashgan, murakkablashgan:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qaysi sohalarga oid mutaxassislariga talab oshib bormoqda?
2. Injinereng sohasida kimlar faoliyat yuritadi? Ularning vazifalari nimalardan iborat?
3. Nima uchun IT mutaxassislari iqtisodiyotning hal qiluvchi kuchi sifatida e’tirof etilmoqda?

---

38 Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan darslik. Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiq. Toshkent – 2022 63-64 b.

4. Axborot texnologiyalarining davlat taraqqiyotidagi o‘rni haqida nimalarni bilasiz?

5. Zamonaviy tibbiyot soha mutaxassislariga qanday talablarni qo‘ymoqda? Zamonaviy shifokorlarga xos bo‘lgan sifatlarni sanang.

6. O‘zbekistonda turizm sohasi mutaxassislariga qanchalik ehtiyoj mavjud? Bu kasb orqali yurtimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga qanday hissa qo‘shish mumkin deb hisoblaysiz?

7. Logist-naqliyotchi kasbi haqida nimalarni bilib oldingiz? Bu qanday kasb ekanligi haqida ustozingiz bilan fikr almashing.

8. Nima uchun har bir davlatda ekologlarga ehtiyoj mavjud deb o‘ylaysiz? Siz ushbu soha mutaxassisi bo‘lganingizda nimalarga e‘tibor bergan bo‘lar edingiz?

9. Kimyogar va energetiklarning vazifalari nimalardan iborat? Ular kelajakda iqtisodiy sohaning taraqqiyotiga qanday qilib o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

10. Robotlar va mikrotizimlardan foydalanishning ahamiyati haqida gapiring. Ular insonga nima uchun kerak?

11. Jurnalist va imijmeykerlarning qanday foydali jihatlari bor? Ularning vazifalari va buning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?

12. O‘zbekiston sharoitida yana qanday kasb egalariga ehtiyoj borligi haqida ma’lumot bering.

13. Har qanday kasbda muvaffaqiyat qozonish uchun inson qanday sifatlarga ega bo‘lishi muhim, deb hisoblaysiz?<sup>39</sup>

Yuqoridagi savollar o‘quvchini hayotga tayyorlashni maqsad qilgan, biroq o‘quvchining yosh xususiyatini hisobga olib buni biroz takomillashtirish, lingvistik jihatlari ham diqqat qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilar ham til qoidalarini o‘zlashtirishlari, ham nutqiy ko‘nikmalari rivojlanishi kerak. Shu bilan bir qatorda, bu topshiriq va savollarni o‘quvchilarga bajartirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish, muloqot ko‘nikmasini rivojlantirishdir.

---

39 O‘sha manba. 70-b.

Xullas, o‘quvchilar nutqini boyitishda va ularni hartamonlama barkamol, yetuk qilib tarbiyalashda o‘qish savodxonligi katta rol o‘ynaydi. O‘qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham mazkur ko‘nikma kerak. Darsliklarda mavzuga bog‘liq holda mashq matnlari ichida xilma-xil mavzular, ijodi namunalari beriladi. O‘qish savodxonligi orqali o‘quvchilar o‘qilgan asarning mazmunini anglaydi, axloqiy jihati bilan, hayotiy sharoitni bog‘lay oladilar. Shunday ekan, badiiy matnlarni tahlil materiali sifatida tanlash o‘quvchini topqir va zukko qilib tarbiyalashga, shu bilan birga, ularni odob-axloqli qilib o‘stirishga juda katta yordam beradi. Qolaversa, ona tilidagi so‘zlarning ma‘no tovlanishlarini, lingvistik xususiyatlarini ham o‘rganadi.

### **Bob bo‘yicha xulosa**

1. Amaldagi ona tili ta‘limida o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish mexanizmi mavjud emas, ta‘lim mazmuni o‘quvchida o‘qish savodxonligi kompetensiyasini rivojlantirish imkonini bermaydi. Bugungi o‘qitish metodikasida ikki yondashuv yonma-yon turibdi. Biri jahon tajribasiga to‘la mos holatda tilning grammatik strukturasi tayanmasdan faqat o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini, xususan, xorijiy tillarga xos to‘rtta ko‘nikmani rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchisi – an‘anaviy grammatika asosida ona tili o‘qitish. Bu borada oltin o‘rtalikni topish lozim.

2. Bugungi ona tili ta‘limi jarayonlarini kuzatib shuni aytish mumkinki, grammatika o‘qitishga asoslangan ona tili ta‘limi ham o‘zini oqlamadi, ya‘ni o‘quvchilar kelajakda tilshunos bo‘lmasalar-da, ularga qaysi sohani tanlashlaridan qat‘i nazar til sathlari batafsil o‘qitildi va bu o‘quvchilarning fandan bezishiga, mashg‘ulotdan zerikishiga olib keldi. Amaldagi mashg‘ulotlarda o‘quvchiga berilgan “So‘z turkumlarini toping”, “Matndagi so‘zlarni turkumlarga ajrating” kabi topshiriqlar pragmatik xarakterda emasligi, o‘quvchining o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmasligi, ertangi hayotida deyarli foydalanmasligi ma‘lum bo‘ldi.

3. DTS, dastur va darsliklar mazmuni tahlil qilinganda yigirma birinchi asr boshlarida H.Ne‘matov va A.G‘ulomovlar tomonidan ta‘lim maqsadi to‘g‘ri qo‘-

yilib, shunga mos ravishda ta'lim mazmuni va usuli ham to'g'ri tanlangan edi, ya'ni ta'lim usuli induktiv bo'lib, pragmatik yondashuvda o'qitish boshlangan edi. Shunda o'quvchilarda o'qish savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin edi. Biroq mazkur yondashuv tez fursatda amaliyotdan olinib, grammatika o'qitishga asoslangan, uzviylashtirilgan ta'lim dasturi ishga tushdi. Bugungi kunda yana o'qish savodxonligi ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishga, pragmatik yondashuvga katta ehtiyoj sezilmoqda.

## **II BOB. ONA TILI DARSLARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI O‘QUV TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI**

### **2.1-§. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn tanlash va o‘quv topshiriqlari tuzish masalasi**

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tilini o‘qitish samarali bo‘lishiga erishish uchun amaldagi o‘quv materiallarini bu boradagi muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi shuki, o‘quvchida, avvalo, o‘quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma’lumotdan unumli foydalanish ko‘nikma hamda malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. Bu borada ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlardan samarali foydalanish, mashq va topshiriqlarga munosabatni ham tahliliy o‘rganish lozim. Jumladan, I.Davronov<sup>40</sup>ning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq ona tili o‘qitishda shunday mavzular bo‘ladiki, ularning ta’limida didaktik o‘yinlardan ko‘ra an’anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo‘ladi.

Ta’kidlash kerakki, o‘qish savodxonligining nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga va, aksincha, nutqiy ko‘nikma va malakalarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishga ta’siri bo‘lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, zamon-u zaminlar o‘zgarmasin, baribir insoniyat uchun yozma nutq masalasi hech qachon o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi. Shunday ekan, bu masala hamisha ta’limning birinchi darajali muammosi bo‘lib qolaveradi.

O‘quvchilar o‘z ona tili imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalansalar, o‘z fikrlarini ta’sirchan, tushunarli bayon qila olsalar, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o‘z tilini bilsalar, ona tili ta’limi o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. Buning uchun ona tili darslarida foydalaniladigan o‘quv materiallari nihoyatda puxta ishlanishi, ko‘nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bir paytning

---

23 Давронов И. Алгоритмик машқ ва унинг хусусияти. Филология ва усулий масалалари. Илмий –усулий мақолалар тўплами. – Бухоро, 2010. – 188-193- б.

o‘zida ham matnni o‘qib tushunish, ham imlo, ham so‘z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo‘naltirishga sharoit yaratish zarurati takrorlash jarayonini taqozo etadi, bu esa o‘qish savodxonligi mahoratini oshiradi<sup>41</sup>.

O‘quvchi o‘qish savodxonligi malakasining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratuvchi ona tili mashg‘ulotlarida savollardan foydalanish, qolgan o‘rinlarda esa topshiriqlar asosida o‘qitish, fikrimizcha, kutilgan natijani beradi.

Shu o‘rinda bir muhim yondashuv haqida to‘xtalish o‘rinli. Ona tili ta’limiga joriy qilinayotgan zamonaviy o‘qitish metodikasida, asosan, publitsistik matnlar, ilmiy matnlarga urg‘u berilmoqda, bu ham ijobiy holat, biroq til va adabiyot yondosh fanlar bo‘lgani holda ona tili ta’limi badiiy matn mazmunini anglashga o‘rgatishi zarur. Shu ma’noda, biz o‘z tadqiqotimizda badiiy matnlar ustida ishlashga ko‘proq e’tibor qaratdik.

Matn tanlash masalasi ham mualliflardan, tadqiqotchilardan katta mas’uliyat talab qiladi. Ona tili darslariga istalgan matnni tahlil material sifatida keltirish samarali bo‘lavermaydi. O‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun ham maxsus matnlar tanlanadi. O‘zbek adabiyotidagi ayrim hikoya, esse va boshqa kichik hajmli asarlarni, katta hajmli asarlarning zarur qismlarini tanlab olishda o‘quvchining fikrlash ko‘nikmasini oshiradigan, didaktik ahamiyatga ega, mulohazaga chorlovchi matnlarni tanlash zarur. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi, bizningcha, shunday xususiyatga ega va uni o‘qish savodxonligini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

## ULOQDA

### (Hikoya)

Kecha dadamdan so‘rag‘anim uchun bu kun akam ham: «Kerak emas, borma!» degan so‘zini qilmadi. Choyni naridan beri ichib, otxonag‘a yugurdim. Orqamdan: «Oyog‘ing olti, qo‘ling yetti bo‘lub qoldi-a!» deb dadam bilan oyim kulishub qolishdilar. Qashlog‘ichni oldim-da, qora qashqamni qashlay boshladim.

---

41 Давронов И. Алгоритмик машқ ва унинг хусусияти. Филология ва усулий масалалари. Илмий –усулий мақолалар тўплами. – Бухоро, 2010. – 44- б.



Jonvor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydir, yer tepinadir, dum silkitadir. Shuning ila manim ko'nglimga: «Xudo xohlasa, kelar yilga biror uloqlar chopayki, hamma mani «Turg'un chavandoz» deb yurutsunlar, degan tilaklar tushadir.

Endi toycham juda ham gijinglar, xudda to'ralarnikidak bo'lib ketkan edi. U yoq-bu yog'ini tozalab, ustunga qantarib qo'ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulni, o'ruscha shimni, amirkon etukni, duxoba to'ppini kiyish... Ana shundan keyin otqa minsak, chin to'racha bo'lamiz.

Xizmatchidan otni olub mindim. To'nimning etaklarini yig'ishtirub, bir-iki berib edim, qashqacham shatoloq otub ketdi. Xizmatchining: «Xab barakalla, chavandoz!» degan so'zini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, qashqacham tushkur ko'tarib ketayozdi.

Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotib edim, bir to'da uloqchi chavandozlar kelib qo'shildilar. Ularning ba'zisi akamning oshnalari bo'lg'ani uchun man bilan so'rashdilar. Ulardan biri akamni so'rab edi, men:

- Ertalab uloqg'a ketdi, – dedim.
- U1 kulub oshnalarig'a:
- Bizning Mahkamboy uloqg'a juda ham ishqiboz-da! – dedi. Yana biravi mandan:
- Yo'l bo'lsun, boyvachcha? – deb so'rag'an edi, men uyolinqirab:
- Uloqg'a! – dedim. (Abdulla Qodiriy “Uloqda”)

Mazkur hikoya garchi uzoq yillar 5-sinf “Adabiyot” darsligida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, uni o'qitish, hikoya mazmunini o'qib tushunish masalasi qoniqarli emas edi, ya'ni aksariyat o'qituvchilar ham mazkur hikoya orqali muallif nima demoqchi bo'lganini o'qib tushuna olmas edi. Biz tadqiqotimiz davomida ko'plab (3000 ga yaqin) o'qituvchi fikrini o'rgandik, shulardan 3 nafari hikoya mazmunini teran anglagan va uni o'z o'quvchilariga to'g'ri tushuntira olgan.

“Ma'rifat” gazetasining 2022-yil 28-apreldagi sonida Termiz shahridagi IDIUM o'qituvchisi Narzulla Ulug'ovning “Uloqda” hikoyasini o'rganganda”

sarlavhali maqolasi e'lon qilingan. To'g'ri, maqolada, asosan, hikoyaning til xususiyatlari, so'zlarning izohi lug'at bilan taqqoslab tushuntirilgan, ammo, shu bilan birga, hikoya mazmuni haqida o'qituvchining munsabati ham oydinlashgan:

...“Uloqda” hikoyasini 21 yoshida bitgan. Alohida ta'kidlash joizki, u shu yoshida jahon adabiyoti andozalariga har jihatdan muvofiq keladigan hikoya yozgan. “Uloqda” nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotidagi badiiy mukammal hikoyalar sirasiga kiradi. O'zbek adibining ushbu asarini Gi de Mopassan, Anton Chexov, Rabindranat Tagor kabi jahon adabiyoti darg'alari hikoyalari bilan yonma-yon qo'yib o'qigan kishilar bunga to'la ishonch hosil qilishadi. “Uloqda” voqelikni haqqoniy aks ettirishi, personajlar ruhiyatini ishonarli ko'rsatib berishi bilan realistik adabiyot mezonlariga to'la javob beradi. Chunki unda milliy turmush manzarasi xuddi hayotning o'zidagidek jonli va ta'sirchan tasvirlanadi.

Hikoyada voqelik personaj tilidan naql qilinsa-da, mavzu juda ta'sirchan yoritib beriladi. O'n ikki yashar o'spirin Turg'un milliy qadriyatlarimizdan biri uloq chopish – ko'pkari o'yini turmushimizdan qanchalik mustahkam o'rin olgani, eldoshlarimiz bu sport turiga juda qiziqishini maroq bilan so'zlaydi. Hikoyada o'spirinning ko'pkari – uloq chopishga orzumandligi, bu tomosha kishilarga katta zavq bag'ishlashi yorqin ifodalanadi. Abdulla Qodiriy personajlarning holati, kechinmasi, xatti-harakatini xuddi filmda aks ettirilgandek aniq va ta'sirchan tasvirlab ko'rsatadi. O'quvchi “Uloqda”dagi ishtirokchilarni xuddi ko'rib turganday bo'ladi. Chunki hikoyada voqelik: “Xizmatchi go'sht keltirib turgan ekan. Otxonadagi qora qashqani ko'chaga chiqarib turishga buyurib, go'shtni oyimga kirgizib berdim-da, tashqariga qarab chopdim... Xizmatchidan otni olib mindim, to'nimning etaklarini yig'ishtirib, qashqachamning choviga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi. Xizmatchining “Ha, barakalla! Chavandoz!” degan tovushini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, jonivor qashqacham ko'tarib ketayozdi... Biz bir durkum otliq boramiz. Jonivor toycham boshqa otlardan qolishmaydi va goho ularning otlaridan o'tib ham ketadi. Toycham o'ta qolsa: “Otingiz juda ham yo'rg'a ekan-da, boyvachcha!”- deb menga piching otishadilar” tarzida tasvirlanadi. (O'sha manba. – 419-bet). Maktab

darsliklaridan o‘rin olgan, (Hozirda darsliklardan chiqarilgan o‘zbek adabiyotidagi dastlabki realistik hikoya namunasi sifatida e’tirof etiladigan “Uloqda” Abdulla Qodiriy turmushni hartaraflama o‘rgangan, undagi har sohadan xabardor bo‘lgan, yozmoqchi bo‘lgan mavzusiga daxldor materiallarni puxta o‘rgangan, undagi eng mayda narsa – detallarga ham e’tibor bergan so‘z san’atkori ekaniga yorqin dalil bo‘la oladi. Ayni hikoya adib ijodiga xos yana ko‘plab xususiyatlarni bamisoli oyna bo‘lib ko‘rsatib turadi. Shu bois Abdulla Qodiriy asarlaridagi personajlar hayotdagi odamlar kabi diqqatni darhol jalb etadi. Ularning har biri o‘z qiyofasi, xatti-harakati, gap-so‘zi bilan boshqalardan alohida ajralib turadi. Ayrim qalamkashlarning yozgan asarlaridagi personajlar qiyofasiz, mujmal ekanligi bois e’tiborni tortmaydi. Abdulla Qodiriy personajlari harakatlanadigan zamon va makonni, ular turgan muhitni juda aniq tasvirlaydi<sup>42</sup>.

Mazkur fikrlarni bir o‘qituvchining munosabati, “Uloqda” hikoyasini anglash darajasi sifatida qabul qilish mumkin. Umuman, o‘qituvchilarning javoblarini quyidagi jadvalda taqdim qilamiz:

<b>T/r</b>	<b>Savol</b>	<b>O‘qituvchilarning javoblari</b>
1.	Abdulla Qodiriy	Uloqni milliy qadriyat sifatida ulug‘lash
2.	“Uloqda” hikoyasi	Milliy qadriyatlarimizni yoshlarga eslatish
3.	orqali o‘quvchiga	Quvonch va o‘limni yonma-yon tasvirlash
4.	nima demoqchi, asarning asosiy	Kontrast usulini qo‘llab, quvonch bor joyda qayg‘u ham bo‘lishini tushuntirish
5.	g‘oyasi nima?	Uloq o‘yini haqida o‘quvchilar tasavvurini boyitish
6.		Umrni behuda narsalarga sarflamay, madaniy turmush sari intilib yashashga undash

Aslida, “Uloqda” hikoyasi jahonning mashhur asarlariga tenglasha oladigan nodir ijod mahsulidir. Uning o‘ziga xos jihati shundaki, unda Abdulla Qodiriy hikoyada o‘zi ifoda qilib bermoqchi bo‘lgan g‘oyani mutlaqo hikoya qilib

<sup>42</sup>Ulug‘ov N. “Uloqda” hikoyasini o‘rganganda” “Ma’rifat” gazetasining 2022-yil 28-aprel soni

bermaydi, unga ishora ham qilmaydi, birorta ta'kid ham qo'llamaydi<sup>43</sup>.

“Uloqda” hikoyasi orqali muallif o'quvchiga nima demoqchi bo'lgani, matn mazmunini anglash, o'qib tushunilganlar haqidagi tasavvurlar quyidagi savolga berilgan javoblarda aks etgan (o'qituvchilarning javobi):




### 2.1.1-rasm. Matn muallifining maqsadini anglashga doir aniqlashtiruvchi savol va unga berilgan javoblar

O'qituvchi, avvalo, ijodi o'rganilayotgan adibning yoki shoirning yashagan davri va o'sha paytdagi millat, jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolarni ko'z oldiga keltirishi lozim. Masalan, Maqsud Shayxzoda, O'tkir Hoshimov, Said Ahmad asarlari matnni o'rganar ekanmiz, ularda urushning asoratlari, bu davrdagi insonlar turmushi ochib berilgan. Yoki G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabilarning ijodini tahlil qilishda ular yashagan davrni his etishingiz kerak bo'ladi. Negaki “O'g'ri”, “Mening o'g'rigina bolam” hikoyalari bejiz yozilmagan. Yoki “Bemor” hikoyasini ham tahlil material sifatida olish

43 <https://library.navoiy-uni.uz/files/%D1%81.%D1%81%D0%BE%D0%B4%D0%B8%D2%9B%D0%BE%D0%B2%20%D0%BA%D1%80%D0%B8%D0%BB%D0%BB.pdf>

mumkin. Bularda umumiylik borligini esdan chiqarmaslik lozim.

Aniqlashtiruvchi savol va topshiriqlarni davom ettiramiz:



### 2.1.2-rasm. Aniqlashtiruvchi savol va topshiriqlar

Endi “Uloqda” hikoyasiga kelamiz. Birinchidan, ona tili darslarida “Uloqda” hikoyasini o‘rganish uchun notanish so‘zlarni aniqlab olish, keyin matnning kerakli o‘rinlarini maxsus o‘qish va ma’nolarini izohlashga kirishish zarur.

Mana shu savollarga javob topishimiz bilan biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan asar mazmuni oydinlasha boshlaydi. Keling, Qodiriyning “Uloqda” hikoyasini tahlil qilamiz.

G‘.Hamroyev hikoya tahliliga to‘xtalar ekan: “Hikoya nomlanishidan boshlab to yakunigacha uloq voqeasi tasvirini beradi. O‘quvchi bir qaraganda milliy qadriyatlarimizdan biri ko‘pkarini yorqin, real ifodalab beribdi, deb o‘ylaydi. Asar tuzilishi, nazariyasidan xabardor o‘quvchi adibning xursandchilik bilan qayg‘uni bir paytda yonma-yon tasvirlash maqsadi bo‘lgan, degan xulosaga keladi. To‘g‘ri, asarni o‘qib, undan qanday zavq olish, qanday xulosa chiqarish o‘quvchining ixtiyorida, ammo ijodkorning maqsadini, g‘oyasini anglash eng

muhim masala hisoblanadi”<sup>44</sup>.

O‘quvchi, to‘g‘rirog‘i, o‘qituvchi Qodiriyning jadid adabiyoti vakili ekanini hech qachon unutmash lozim. Uning safdoshlari Cho‘lpon, Fitrat, Avloniy kabilar. Asar tahlilida millat fidoiylarining birdan bir maqsadi xalqni ilm-ma‘rifatli qilish ekanligini nazarda tutish lozim. Shu o‘rinda maslakdoshlarining ijodiga ham mavzuni bog‘lash kerak. Masalan, Avloniyning mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “Tarbiya zamoni” fasli bor. Unda tarbiyani kimlar qilur, degan nihoyatda og‘ir savolga ijodkorning o‘zi javob beradi:

- Onalarmi, desak.
- Qaysi onalarni aytursiz?! Sochi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarni ayturmisiz?! Ular o‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan berurlar?
- Xay, otalar-chi, desak.
- Qaysi otalarni aytursiz?! Karnaychi, surnaychi, to‘ychi, bazmchi, do‘mbirachi, uloqchi otalarni ayturmisiz?! Ular ilm uchun bir tiyin ham sarflashni istamaydi. Shular tarbiyalaydimi, degan ayanchli javoblarni beradi.

Endi “Uloqda” hikoyasiga qaytamiz. Adib mabodo xalqning qadimiy ko‘pkari marosimini maqtamoqchi bo‘lgan bo‘lsa, umri shu ish bilan o‘tgan Esonboyning otga bostirib o‘ldirmagan bo‘lardi. Bilaks, unga zarbof to‘n kiydirib, bir ot yoki, bir qo‘chqor hadya qilgan bo‘lardi.

Avloniy ham uloqchi otalarni qoralaydi, jumladan, Qodiriy ham bu bilan uloqni ma‘lum ma‘noda yoqlamayapti. U o‘z hikoyasi orqali 12-13 yashar, ya‘ni mukka tushib kitob o‘qishi lozim bo‘lgan bolalarning o‘z vaqtlarini behuda narsalarga sarflayotganini uloq fojiasi orqali ko‘rsatib bermoqda. Esonboy ham shu bolalar kabi bir umr otning ortidan yurgan. Adib o‘z o‘quvchilariga, millat bolalariga umrni behuda sarflamay ilm-ma‘rifatga, madaniy turmushga intilib yashash zarurligini so‘z san‘ati orqali ifodalab bergan. Shu o‘rinda Qodiriyning maslakdoshi Hamzaning “Dardiga darmon istamas” she‘riga ham to‘xtalish lozim.

---

<sup>44</sup> Hamroyev G‘.Palvanova N. Adabiy o‘qish yoki mutolaa zavqi. Metodik qo‘llanma. –Toshkent. Bayoz nashriyoti, 2018. 174 b.

Unda shoir shunday deydi:

*O'zga ellar hikmat topib, uchsalar suyi samo*

*Bizni ellar loaqi yer uzra davron istamas.*

Ko'rib turibmizki, jadidlar o'z yelkalariga millatni uyg'otish, ilm-ma'rifatga chaqirishdek buyuk bir mas'uliyatni olib yurgan bir paytda uloq o'yin, xo'roz urishtirish, it urishtirish kabi ko'ngilni xushlash uchun bo'ladigan ishlarni targ'ib qilishi haqiqatdan ancha uzoqdir.

O'quvchilarni badiiy matni o'qib tushunishga o'rgatishda hamma savollar ham yordam beravermaydi. Bugun adabiyot darslarida qo'llanilayotgan o'quv topshiriqlari har doim ham o'zini oqlamaydi:

T/r	O'qib tushunishga yordam beruvchi amalda qo'llaniladigan savollar
1.	Abdulla Qodiriy nechta roman yozgan?
2.	Nechanchi yilda nashr qilingan?
3.	Nechanchi yilda hibsga olingan? kabi tarjimai holiga doir;
4.	Hikoyada nechta bola qatnashgan?
5.	Uloqqa kim biya minib kelgan?
6.	Kimning akasi chavandoz edi?
7.	Uloqning yoshi nechada edi? kabi hikoya mazmuniga doir savollar berish o'quvchiga kamroq badiiy-estetik ozuqa beradi.

Asar mazmuniga kirish, matni to'g'ri tahlil qilishda, avvalo, ona tili darslarida quyidagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

T/r	Aniqlashtiruvchi savollar
1.	Mantnda uchragan tushunarsiz so'zlar qaysilar?
2.	Qaysi so'zlarni birinchi marta uchratyapsiz?
3.	Qaysi so'zlarni avval eshirgan, o'qigansiz, ammo ma'nosini bilmaysiz?


Hikoya mazmuniga teranroq tushunishga doir quyidagi savollarni berish tavsiya etiladi:

<b>T/r</b>	<b>O‘qib tushunishga yo‘naltiruvchi savollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	Nega asar shunday nomlangan?	Asar mazmunini tushunishga yordam beradi.
2.	Uloq deganda nimani tushunasiz?	Mulohaza qilishga undaydi.
3.	Uloq so‘zining ma‘nosini ayting.	Ma‘lumotlarni qidirishni o‘rganadi.
4.	Uloq xalq orasida yana qanday nomlanadi? Ma‘nodoshi qanday?	Munosabat bildirishni o‘rganadi.
5.	Uloqning bugungi kunimizdagi ahamiyati qanday?	Tanqidiy fikrlashga yo‘naladi.
6.	Siz otlarga qiziqasizmi? Otning qanday turlarini bilasiz?	Asar mazmuniga olib kiradi.
7.	Kim chavandoz bo‘lmoqchi? Bu so‘zning ma‘nosini izohli lug‘atdan aniqlang.	Dars hayotga bog‘lanadi.
8.	Chavandozlik kasbmi yoki hobbimi?	Farqlashni o‘rganadi.
9.	Siz tengi bolalarning asosiy qiladigan ishi nima?	Fikrlashni boshlaydi.
10.	Esonboy tirik qolishi mumkin edimi?	Matndan olgan taassurotlarini umum-lashtiradi.
11.	Qodiriy o‘z hikoyasi orqali nima demoqchi?	O‘qib, tahlil qilib, tushunganlarini bayon qiladi.

O‘quvchini “Uloqda” asari matnini anglashga, o‘qib tushunishga to‘g‘ri yo‘naltirish uchun faqat matndagi ma‘lumotlar yetarli emas, uni matndan tashqaridagi ma‘lumotlar bilan ham tanishtirish, ularni o‘zaro bog‘lashga ham o‘rgatish lozim. Matn mazmunini anglash uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish




tavsiya qilinishi kerak:



### 2.1.3-rasm. Matn mazmunini tushunishga yordam beruvchi topshiriqlar


Matn tanlash borasida faqat badiiy matnlarga tayanib qolish to'g'ri bo'lmaydi, biroq o'qish savodxonligi bo'yicha asosiy ko'nikmalar adabiyot va ona tili mashg'ulotlarida shakllantirilishini e'tiborga olsak, ko'proq badiiy matnlar ustida ishlash zarurati borligi ma'lum bo'ladi, chunki publitsistik, rasmiy hatto ilmiy matnlarda ham o'quvchiga tushunarli, tagma'nosi bo'lmagan ma'lumotlar taqdim etiladi. Har qanday topshiriqning samarali bo'lishi tahlil uchun tanlangan matnga bog'liq bo'ladi. Matnlarning quyidagi turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:



### 2.1.4-rasm. O'qish savodxonligini rivojlantirish uchun tanlanadigan matnlarning mavzulari

Tanlangan matnlar bilan samarali ishlash uchun topshiriqlar tizimli va

maqsadli tuzilgan bo'lishi lozim. Bu jarayonda ishtirok etadigan topshiriqlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:



### 2.1.5-rasm. O'qish savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlarning xususiyatlari

Ta'lim tizimida topshiriqlarning xilma-xil turlaridan foydalanib kelinadi. Jumladan, ona tili ta'limi modernizatsiya qilinishi munosabati bilan juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo o'quv topshiriqlaridan foydalanish masalasiga ko'p hollarda eskicha yondashilmoqda. Keyingi yillarda ona tili ta'limi mazmunini takomillashtirish bo'yicha ijobiy natijalarga erishildi, ya'ni ortiqcha grammatizmdan voz kechib, matn ustida ishlash orqali nutqiy ko'nikma va malakalarni, o'qish savodxonligi malakalarini rivojlantirishga, matn ustida ishlashga o'tildi. 9-sinf "Adabiyot" darsligida o'zbek adabiyotining eng sara asarlaridan biri "O'tkan kunlar" romani o'qitilib kelindi, keyin bu asar 10-sinf dasturiga o'tkazilganligi sababli 2017-yilda nashr etilgan 10-sinf darsligiga kiritildi, (hozirda bu asar umumiy o'rta ta'lim dasturidan chiqarilganligi sababli 2022-yilda nashr etilgan darslikda mavjud emas) ammo o'quvchilar asar matnidagi eng muhim jihatlarni e'tibordan chetda qoldirib, boshqa voqealar ortidan ketib, muallif maqsadini to'la anglay olishmadi. Ona tili darslarida eng muhim badiiy asarlarning zarur nuqtalarini tahlil qilish, o'tilgan va o'tilajak asarni teran

tushunishga yordam beradi.

## **Nasriy matnlar bilan ishlash**

“O‘tkan kunlar” romani (Birinchi bob)

### Matn

Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora charog‘ sasig‘anda, bu hujrada sham‘ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabi‘atlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda.

Og‘ir tabi‘atlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur a‘yonlaridan bo‘lg‘an Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek. Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan biravi darboza yonidag‘i kimdandir so‘radi:

– Otabek shu saroyga tushkanmi? Bizga tanish hujra ko‘rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo‘lib, Marg‘ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o‘g‘lidir, ikkinchisi: uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttuz besh yoshlarda bo‘lg‘an ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshig‘ina davlatmand bo‘lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, «Homid xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashkanda uning otig‘a taqilg‘an laqabni qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz «Homidboy» deyish ila uni tanita olmaydilar. Homidning Otabek bilan tanishlig‘i bo‘lmasa ham, Rahmatka yaqin qarindosh— Ziyo shohichining qaynisi, Rahmatning tog‘asi. Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek **kelguchilarni ulug‘lab qarshiladi.**

– Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, – **vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.**

Otabek ularga yuqoridan joy ko‘rsatar ekan, yoqimlik bir vaziyatda:

– **Tinchsizlamadingizlar**, bil’aks, quvontirdingizlar, – dedi, – shahringizga birinchi marotaba kelishim bo’lg’ani uchun **tanishsizliq**, yolg’izliq meni juda zeriktirgan edi.

Matn orasida ham aniqlashtiruvchi savol va topshiriqlar berib ketish mumkin:

**1-topshiriq. Ajratib ko’rsatilgan til birliklari bugungi adabiy tildan nimasi bilan farq qilishini izohlang.**

Shu orada hujraga bir chol kirib ul ham mehmonlar bilan so’rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq bo’lib, oltmish yoshlar chamasida, cho’ziq yuzlik, do’nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to’garak qora ko’zlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqlig’iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o’zgarish yo’q edi. Otabek mehmonlarni tanchaga o’tquzib, fotihadan so’ng Hasanalidan so’radi:

– Tuzukmisiz, ota?

– Xudoga shukur, – dedi Hasanali, – boyag’idan bir oz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.

– Ba’zi yumushlar buyursam...

– Buyuringiz, o’g’lim.

– Rahmat, ota, bo’lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

– Xo’b, begim.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog’liq so’rashqandan keyin so’radi:

– Bu kishi kimingiz bo’ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so’ngra javob berdi:

– **Qulimiz.**

Bu so’zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

– Qulingiz?

– Shundog’.

**1-savol. Otabekning o’z quliga bo’lgan hurmatini mehmonlar nega**

## **ajablanib qabul qilishdi?**

Hasanali dasturxon yozib qumg'on kirgizdi. Odatiy takalluflar bilan dasturxon va choyga qaraldi. Homid nonni shinniga bulg'ar ekan so'radi:

– Yoshingiz nechada, bek?

Otabekning labi qimirlamasdan choy quyib o'tirgan Hasanali javob berdi:

– Bekka xudo umr bersa, bu yil hamduna bo'lsa, to'ppa-to'g'ri yigirma to'rt yoshga qadam qo'yadilar.

– Yigirma to'rt yoshga kirdimmi, ota? – dedi bek.

– Chindan ham necha yoshga kirganimni o'zim bilmayman.

– Yigirma to'rt yoshga kirdingiz, bek.

Homid tag'in so'radi:

– **Uylanganmisiz?**

– Yo'q.

– **Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo'qdir,** – dedi Rahmat va Otabekka yuz o'girdi. – **Uylangach, xotining tab'ingga muvofiq kelsa, bu juda yaxshi; yo'qsa, munchalik og'ir gap dunyoda bo'lmas.**

Otabek Rahmatning bu so'zini samimiyat bilan qarshiladi.

– **So'zingizning to'g'rilig'ida shubha yo'q,** – dedi, – **ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladiring'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a muvofiquttab' bo'lsin.**

– **Xoting'a muvofiq bo'lish va bo'lmasliqni uncha keragi yo'q,** – dedi Homid e'tirozlanib, – **xotinlarga «er» degan ismning o'zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo'lsa bas.**

Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzolik tabassum orasi Homidga ko'z qirini tashladi.

– Uylanishdagi ixtiyorimiz, – dedi Rahmat, – ota-onalarimizda bo'lg'anliqdan, oladiring'an kelinlari o'g'illarig'a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o'zlariga yoqsa bas. Bu to'g'rida uylanguchi yigit bilan er qilg'uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo'lmay, bu odatimiz ma'qul va mashru' ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... ammo

xotini ota-onamga muvofiq bo'lsa ham menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol, men ham xotining'a muvofiq emasdirman...

– So'zingiz juda to'g'ri, bek aka. Otabek Rahmatning so'zini ixlos bilan eshitdi va «sen nima deysan?» degandek qilib Homidga qaradi.

– **Jiyan, – dedi Homid Rahmatka qarab, – boshlab uylanishing, albatta, ota-onang uchun bo'lib ulardan ranjib yurishingni o'rni yo'q. Xotining ko'nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa uchunchisini ol. Xotini muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.**

Rahmat Otabekka kulimsirab qaradi-da, tog'asig'a javob berdi.

– Xotin ko'paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo'lsin? – dedi.

– Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, manimcha, eng ma'qul ish.

**Masalan, ikki xotinliqning bittasi sizmi? Uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlig'ingiz yo'q.**

– Seningdek yigitlar uchun, albatta, bitta xotin ham ortiqchaliq qiladir, – deb kuldi Homid. – **Ko'b xotin orasida azoblanish o'zi nima degan so'z? Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan. Men bu kungacha ikki xotin o'rtasida turib janjalg'a to'ygunimcha yo'q, ammo xotinni uchta qilishg'a ham o'yim yo'q emas.**

– Sizga taraf yo'q, tog'a.

Homid mag'rur bir tusda Otabekka qaradi. Otabek uning so'zidan kulimsiragan edi.

**2-savol: Ajratib ko'rsatilgan jumlaning izohlab bering, tog'a-jiyan birga kelgan bo'lsa-da, uylanish masalasida ikkisinining fikri nega mos kelmagan, deb o'ylaysiz. Rahmat ham Homid xotinbozning hamtovog'i aslida. Lekin qaysi gaplari o'quvchida unga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi?**

Matnni tahlil qilishda undagi muhim nuqtalarga e'tibor berish lozim. Jumladan, "O'tkan kunlar" romanining mazmun-mohiyati, yozuvchining maqsadini anglash uchun, albatta, boblardagi eng muhim jumla, fikr yoki

yondashuvlarni ajratib olish va tahlil qilib ko'rish lozim.

Bunda matn bilan ishlash uchun savol va topshiriqlar tizimini puxta ishlab chiqish kerak bo'ladi. Amaliyotda, asosan, oddiy savollar beriladi. Masalan, Otabek o'tirgan hujraning jihozlanishi, nimlardan iboratligi, atrofdagi boshqa detallar, umuman, narsa-buyumlarning sifati va xususiyatiga e'tibor qaratilib, topshiriq ularni sanab berish yoki tavsiflashga yo'nalgan bo'ladi.

Aslida, mazkur roman orqali muallif o'quvchiga nima demoqchi, degan katta savolni qo'yish kerak va barcha vositalarni shunga xizmat qildirish lozim. Bu borada **savol va topshiriqlar** quyidagicha bo'ladi:

1. Keltirilgan matnni sinchiklab o'qib chiqing. Tushunarsiz so'zlarni aniqlab oling.

5. Rahmatning **“vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik** – degan gapida qaysi so'zlar bugungi yozuv shakliga mos kelmaydi. Vaqtsiz so'zi to'g'ri qo'llanganmi? Nima deysiz?

6. **“Tinchsizlamadingizlar,** bil'aks, quvontirdingizlar, – dedi, – shahringizgabirinchi marotaba kelishim bo'lg'ani uchun **tanishsizliq,** yolg'izliq meni juda zeriktirgan edi”. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning bugungi ma'nodoshlarini keltiring va izohlang.

7. “Qul” va “xizmatkor” so'zlarining ma'nosini tushuntirib bering. Hasanali oilada qanday maqomda edi? Izohlang.

O'qish savodxonligini oshiruvchi o'quv topshiriqlarini sirasida asar mazmunini tushunishga olib boruvchi quyidagi savol va topshiriqlarni tavsiya qilish mumkin:

1. Romandan olingan parchani ifodali o'qing.

2. Qaysi fikr sizga ma'qul bo'lgan bo'lsa, o'zingizga belgilab oling.

3. Otabekning shu yoshga qadar uylanmaganiga qanday munosabat bildirasiz va asardagi qahramonning javobiga nima deysiz?

4. Hasanali haqida mehmonlarga Otabek nega unga eshittirmasdan ma'lumot berdi?

5. Matnda uylanish va xotin haqida uch xil fikr aytilgan, ularni topib,

solishtiring. Siz qaysi fikrga qo'shilasiz, nega?

6. Uylanish, ayolga munosabat haqida qaysi manbalarda ma'lumot o'qigansiz?

7. Homidni oqlab bo'ladimi?

8. Matnda ma'no ko'chishining qanday turlari mavjud?

9. Metonemiya va metafora hodisasiga misollar keltiring.

10. Asardagi kinoyaviy jamlalarni aniqlab, unga fikringizni bildiring.

Berilgan matn va unga ishlab chiqilgan savol va topshiriqlar, avvalo, so'z, jumla mazmunini, o'zbek tilining keng lisoniy imkoniyatlarini anglashga yordam beradi, eng muhimi, dialog orqali muloqot madaniyatini o'rganib olish mumkin, qolaversa, ikki xotinlilik oqibatlarini yoki ayollarga munosabat qanday bo'lishi lozimligi haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'ladi.

## **2.2-§. Ona tili darslarida o'qish savodxonligini oshiruvchi matn va o'quv topshiriqlari ustida ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar**

Ona tili darslarida o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar va ular bilan bog'liq matnlar ustida ishlash bugungi ona tili, adabiyot ta'limining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. O'quvchilarni tinglab, o'qib tushunishga undaydigan o'quv topshiriqlari turli uslublarda yozilgan matnlar ustida ishlash orqali yuzaga chiqadi, ularaning ahamiyati, muhimlik darajasi aniq bo'ladi.

Biz ishda badiiy matnlar ustida ishlash orqali o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan bo'lsak-da bugun "Ona tili" darsliklarida faol foydalaniladigan, publitsistik va ilmiy-ommabop matnlar ustida ishlash yuzasidan ham ayrim metodik tavsiyalar ishlab chiqdik.

### **1-METODIK TAVSIYA**

**1-topshiriq. Berilgan matnni o'qib, tushunganingizni gapirib bering. Bunday vaziyatda siz qanday yo'l tutishingiz haqida qisqa va tushunarli qilib yozma bayon qiling. Berilgan savollarga ikki xil javob yozing.**

#### **Matn**

Bir odam hovuz oldida dam olayotganida chayon suvga tushib ketganini va



suvdan chiqishga harakat qilayotganini ko'rib qolibdi. Ammo u qancha harakat qilmasin, suvdan chiqa olmabdi va cho'ka boshlabdi. Odam chayonni qutqarmoqchi bo'libdi, qo'lini cho'zib, uni suvdan olibdi, ammo suvdan olay deganida chayon uni chaqib olibdi. Og'riqqa chiday olmasdan odam qo'llarini ochib yuboribdi va chayon yana suvga tushib cho'ka boshlabdi. Odam ikkinchi bor chayonni qutqarishga harakat qilibdi. Ikkinchi bora ham chayon uni qutqarayotgan qo'lni chaqib olibdi. Buni tomosha qilayotgan yo'lovchi insonning oldiga kelib:

– Kechirasiz, siz nihoyatda qaysar ekansiz! Har safar siz uni suvdan olib chiqmoqchi bo'lganingizda u sizni chaqishini tushunmayapsizmi? Bunga esa inson sokinlik bilan javob beribdi: – Chayonning tabiati-da – chaqmoq, xoh u hujum qilsin, xoh u himoyalansin. Ammo bu insonning tabiatini, ya'ni – insonni sevish va yordam berish tabiatini o'zgartirmaydi. Shu so'zlarni aytib u yerga tushgan bargni olibdi va barg yordamida suvdan chayonni olib qo'yib yuboribdi.

Inson bo'lish nima degani? Qanday sifatlar yaxshi va yomon insonlarni farqlaydi?

### **Savollarga javob bering!**

1. Matn nima haqida?
2. Qaysi so'zlarning ma'nosi tushunarsiz?
3. Matnda eng muhim jumla qaysi?
4. Matn mazmuniga xos qanday maqol bilasiz?

### **Matn asosida quyidagi mashqlarni bajaring.**

Har bir inson yoshligidanoq ezgulik va yovuzlik nima ekanligini biladi. **Aksariyat** filmlarda, badiiy adabiyotda, **animatsiyalarda** doimo yaxshi, ezgulikka to'la ijobiy qahramonlar bor. Ularga esa salbiy, yovuz **personajlar** qarshi turadi va ular o'rtasida doimo ezgulik va yovuzlik kurashi ketadi. Va, albatta, ezgulik yovuzlikdan ustun kelganida hamma xursand bo'ladi.

Bu esa insonda avvaldan ezgulikka intilish borligining tasdig'idir. Chunki ezgulik insonning o'sishiga, rivojlanishiga, yuksalishiga olib keladi. Ezgulik insonning qalbi va yuragida **xursandchilik** va eng oliy hissiyotlar bo'lgan do'stlik, minnatdorchilik, sadoqat, hurmatni uyg'otadi va rivojlantiradi. O'z navbatida,

inson bu ezgu hissiyotlarni atrofdagi dunyosiga, atrofidagi insonlariga beradi.

**1-mashq.** Matnni ajratilgan soʻzlarning maʼnosiga eʼtibor qilib oʻqing.

**2-mashq.** Aytilganidek yozilmaydigan unli tovushlari mavjud soʻzlarni aniqlab, daftaringizga yozing.

**3-mashq.** Yozilganidek aytilmaydigan unli harflari mavjud soʻzlarni aniqlab, daftaringizga koʻchiring.

**4-mashq.** Talaffuzi va imlosi bir xil soʻzlarni aniqlab, daftaringizga koʻchiring.

**Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**2.1-topshiriq.** “Bayramingiz qutlugʻ boʻlsin!” mavzusidagi tabrik nutqi musobaqasiga yozma matn tayyorlash.

**2.2-topshiriq.** Tabrik nutqini videoyozuv koʻrinishida namoyish qiling.

**2.3-topshiriq.** Barcha axloqiy xislatlarni ikki toifaga boʻling: siz yaxshi deb hisoblagan va ezgulikka olib keluvchi xislatlar hamda siz yomon deb hisoblagan va yovuzlik keltiruvchi illatlar.

Yaxshi xislatlar	Bilmayman	Yomon illatlar

Mazkur metodik tavsiyada oʻquvchilar bir paytning oʻzida oʻqish, yozish, tinglab tushunish va nutq soʻzlash koʻnikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega boʻladi. Shuningdek, tanlangan matn ham oʻquvchilarning dunyoqarashini, tafakkurini oʻstiradi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgani uchun oʻquvchi xotirasida saqlanib qoladi, soʻz boyligining oshishiga olib keladi.

## **2-METODIK TAVSIYA**

### **8-sinf**

**1-mashq.** Matnni ajratilgan soʻzlarning urgʻusiga eʼtibor qilib oʻqing.

**Ichimlik suvining yetishmasligi.** Tinch okeanidagi axlat dogʻi maydon

bo'yicha Fransiya hududidan uch barobardan oshdi. **Neftni** suv bo'ylab tashishda odamlarning mas'uliyatsizligi yoki beparvoligi tufayli neft suvga tushadi va suv yuzasiga katta dog' bo'lib quyiladi, suvni zaharlaydi va dengiz, okeanlarning hayvonot hamda o'simlik dunyosini o'ldiradi.



Yer yuzida ikki milliard odamga toza ichimlik suvi yetishmaydi. 2030 - yilga kelib 700 **million** kishi toza suv yetishmasligi tufayli qochoqlar bo'lishi mumkin. Uning yetishmasligi, asosan, ushbu tabiiy **resurslardan** oqilona foydalanmaslik sababli yuzaga keladi.



**Havoning ifloslanishi.** Havoning ifloslanishi zavodlar, fabrikalar, issiqlik elektr stansiyalari va yonilg'i sarflaydigan transport vositalarining ishlashi vaqtida atmosferaga turli xil gazlar chiqarilganda sodir bo'ladi.



**Global isish.** O'tgan 100 yil davomida kuzatishlar yerdagi o'rtacha harorat asta-sekin o'sib borayotganini ko'rsatadi. Buning sababi turli gazlarning doimiy chiqarilishi tufayli atmosferaning ifloslanishi. Natijada, yer yuzasida iqlim o'zgaradi, muzliklar eriydi, turli xil o'simliklar va hayvonlar yo'qoladi.

**Muzliklarning erishi.** Muzliklarning erishi Arktikada oq ayiqlar sonining kamayishi, suv toshqinlari, yaylovlarni suv bosishi, **okean** oqimlari va umumiy iqlim o'zgarishiga olib keladi.



**O'simliklar va hayvonlarning yo'qolishi.** Sayyorada har bir daqiqada o'simlik va hayvonlarning bitta turi yo'qoladi. Bunga sabab – iqlim o'zgarishi, o'rmon yong'inlari, dengiz va okeanlarning ifloslanishi, mo'yna, teri, yodgorlik mahsuloti uchun ov qilish va yo'q qilishdir. Barcha holatlarda sabab inson faoliyati hisoblanadi.

**2-mashq.** Berilgan matndagi o'zlashma so'zlarning urg'usini to'g'ri qo'yib o'qishni mashq qiling.

**3-mashq.** Qaysi so'zlarda urg'u belgisi noto'g'ri qo'yilganligini aniqlang.

**4-mashq.** Nazariy matn mazmunini og'zaki bayon qiling.

**5-mashq.** Rasm va matnlardagi hodisalarni taqqoslang, ularning bir-biriga

bog'liqligini izohlang.

**6-mashq.** Urg'u ta'sirida sodir bo'ladigan talaffuzda tovush o'zgarishini aniqlang.

**O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**1-topshiriq.** "Ona tabiat" mavzusida yozma nutq matnini tayyorlash.

**2-topshiriq.** "Tabiatni asrashga men qanday hissa qo'shaman" mavzusida og'zaki nutq bayon qilish.

Ikkinchi metodik tavsiya ham har bir o'quvchida o'qish savodxonligi ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishga sharoit yaratib beradi. Ayniqsa, tanlangan matnning global ekologik muammolarga daxldorligi, shuningdek, undagi ma'lumotlarning o'quvchi tafakkuriga ta'sir etishi, tabiatni asrashga, tabiiy boyliklarni asrashga bo'lgan mas'uliyati ham oshib boradi.

### **3-METODIK TAVSIYA**

#### **8-sinf**

**1-topshiriq. Matnni o'qib, tushunganingizni so'zlab bering.**

Har biringizning uyingiz hovlisida yoki yerto'lasida, albatta, bir yoki bir nechta mushuk yashaydi. Shahar ko'chalari bo'ylab sayr qilganingizda ba'zan yugurib yurgan itlarni ko'rasiz. Bular – uysiz itlardir. Ular shahar ko'chalarida qanday paydo bo'lishgan? Uysiz hayvonlar – bu insonlarning faoliyati, ularning his-tuyg'ulari, mas'uliyatsizligi, berahmligining natijasi hisoblandi. Ularning ko'pchiligi insonlar bilan birga yonma-yon yashagan, uyidan ayrilgan, chunki ularni parvarish qilgan, boqqan va ular haqida g'amxo'rlik qilgan egalari qaysidir sabab bilan uy hayvonlaridan qutulishga qaror qilishgan. Egalariga sodiqligiga, nasl-nasabiga, ularning chiroyiga qaramasdan, hech nima ularni uysiz bo'lish qismatidan qutqarib qolmasligi mumkin. Shunday qilib, ular ko'chalarda qolib ketadi, ayrimlari halok bo'ladi, qolganlari tirik qolish va moslashishga urinishadi. Ular odamlarning uylari yaqinida yashay boshlashadi, vaqt o'tishi bilan bolalashadi, natijada uysiz hayvonlar soni yildan yilga ko'payib boradi.

Shuni yodda saqlash kerakki, mushuklar, itlar va boshqa hayvonlar – bu tirik

jon. Ularda ham boshqalarda bo‘lgani kabi yurak uradi, qon-tomirlarida qon oqadi, ular ham siz kabi ochlik va sovqotish hissiga ega, og‘riqni his qilishadi, azoblanishadi, quvonishadi. Ular sizdan qo‘rqishlari va duch kelishganda qochishlari yoki sizga ishonishlari, oldingizga kelishlari, siz ularni silashingiz va ovqat berishingiz umidida ko‘zingizga qarashlari mumkin. It yoki mushuk sizning eng yaxshi va sadoqatli do‘stingiz bo‘lishi, sizga eng yaxshi ijobiy his-tuyg‘ularni ato etishi, sizni mehribonroq va yaxshiroq qilishi mumkin.

**1-mashq.** Matn bilan tanishib, ulardagi asosiy so‘zlarni aniqlang.

**2-mashq.** Berilgan so‘zlarni ikki guruhga ajrating:

- 1) talaffuzi va imlosi mos so‘zlar;
- 2) talaffuzi va imlosi mos bo‘lmagan so‘zlar.

**3-mashq.** Matndan o‘qib tushunganingizni bitta so‘z yoki bitta jumla bilan ifodalang.

**4-mashq.** So‘zlarni urg‘usi qaysi bo‘g‘inga tushishiga qarab, ikki guruhga ajrating va lug‘atdan foydalanib, so‘zlarning o‘z yoki o‘zlashma qatlamga mansubligini aniqlang.

**O‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**1-topshiriq.** “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi” mavzusida radionutq matnini tayyorlash.

**2-topshiriq.** Radionutqni videoyozuv ko‘rinishida bayon qilish.

Uchinchi metodik tavsiyada tanlangan matn orqali o‘quvchining ravon gapirish, ifodali o‘qish, savodli yozish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish bilan birga ularni jonivorlarga yaxshi munosabatda bo‘lishga o‘rgatish imkoniyati mavjud.

## **4-METODIK TAVSIYA**

### **8-sinf**

Odamlarning insoniylik darajasi, rahm-shafqatliligi, hamdardligi nafaqat keksalarga, nogironlar va bolalarga bo‘lgan munosabatida, balki hayvonlarga, ya’ni g‘amxo‘rlikka va e’tiborga **muhtoj** bo‘lgan barcha **objiz**larga munosabatida

ham ko‘rinadi. Lekin ba’zida insonlar hayvonlarga juda beshafqat munosabatda bo‘lishadi, ularga ozor berishadi va qiynashadi. Hayvonlarga shafqatsizlik bilan munosabatda bo‘lishning sabablaridan biri - insonlarning ojizligida. Kuchli va jasur odam hech qachon kuchsizlarni xafa qilmaydi.

Yana bir muhim jihat mavjud. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda odamlarning o‘zlari noto‘g‘ri va o‘ylamasdan qilingan harakatlari bilan hayvonlarning g‘azabini qo‘zg‘atishadi. Hayvonni ham shaxs sifatida qabul qilish kerak. Uni darrov silash, siypalash, o‘ynash, ayniqsa, baqirish va qo‘llarini silkitishga urinmaslik kerak. **Daydi** hayvonlar ko‘p hollarda holdan toygan, ochqagan, ehtimol, kasallangan bo‘lishadi. Ular odamlarning **shafqatsizligini** boshdan kechirishgan bo‘lishlari mumkin, shuning uchun ular sizga ishonishmaydi yoki sizdan qo‘rqishadi va o‘zlarini himoya qilishga tayyor bo‘lishadi. Bunda ular bilan qanday munosabatda bo‘lishni va to‘g‘ri harakat qilishni o‘rganishingiz kerak.

**1-mashq.** Matnni tinglang va o‘qituvchi ajratib ko‘rsatgan so‘zlarni daftaringizga yozing.

**2-mashq.** Izohli lug‘at yoki o‘qituvchi ko‘magidan foydalanib notanish so‘zlar ma‘nosini bilib oling.

**3-mashq.** Qo‘shimcha qo‘shilganda qaysi so‘zlarda tovush o‘zgarishi sodir bo‘lishini aniqlang.

**4-mashq.** Matn mazmuni bilan bog‘liq maqol yoki hikmatli so‘zlar yozing.

**5-mashq.** Matn mazmunini bir jumla yoki bir so‘z bilan ifodalashga harakat qiling.

**6-mashq.** So‘zlarni uch guruhga ajrating:

- 1) qo‘shimcha qo‘shilganda tovush o‘zgarishi yuz beradigan so‘zlar;
- 2) qo‘shimcha qo‘shilmasa ham, tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladigan so‘zlar;
- 3) hech qanday holatda tovush o‘zgarishiga uchramaydigan so‘zlar.

5-metodik tavsiya 4-tavsiyaning bevosita davomi bo‘lib, unda ham natqiy ko‘nikmalar tizimli ravishda rivojlantiriladi.

## 5-METODIK TAVSIYA

### 8-sinf

Hayotda har bir insonga o‘qish va mehnat qilish uchun bir xil imkoniyatlar beriladi. Ammo yakunda yutuqlar turli bo‘ladi. Bu esa ishtiyoq, ruhlanish, turtki, ruhlantirishga bog‘liq. Motivatsiya / ruhlanish / turtki / ruhlantirish ta’siridagi odamni qanday bilsa bo‘ladi? Avvalambor, bunday inson maqsad sari intilgan bo‘ladi. Nima istashini biladi va to‘siqlarni yengib o‘tib oldinga harakat qiladi. O‘z maqsadlariga erishishida unga ichki motivatsiya / ruhlanish / turtki / ruhlantirish madad bo‘ladi.

Motivatsiya / ruhlanish / turtki / ruhlantirish — u-bu yoki boshqa narsa bilan shug‘ullanish istagi. Shaxsiy istak, tashqaridan buyurilmagan, insonning ichidan paydo bo‘ladigan istak. Uni anglash harakatga asos bo‘ladi. Motivatsiya / ruhlanish / turtki / ruhlantirish ehtiyoj, motiv / asos va maqsaddan iborat bo‘ladi. To‘g‘ri, maqsadlarga erishish uchun qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik va o‘z sa’y-harakatlar tufayli erishish kerak. Barqarorlikka ega bo‘lish lozim – ma’lum reja asosida harakat qilish va bunda ma’lum harakatlarni amalga oshirish.

### **Rivoyat**

«Kunlarning birida, hayvonot bog‘ida fillar yonidan o‘tib ketayotganda, men fil old oyog‘iga bog‘langan ingichka arqon bilan bu yerda ushlanib turganidan hayratlanib to‘xtab qoldim. Na zanjir, na qafaslar bor. Fillar bog‘langan ingichka arqonidan osongina qutulishi aniq edi, lekin qanadaydir sababga ko‘ra ular ozod bo‘lishga harakat ham qilmayotgan edilar. Men hayvon o‘rgatuvchining yoniga kelib, nega bunday ulkan va go‘zal jonzotlar sokin turib, ozod bo‘lishga harakat qilmayotganliklariga qiziqdim. U shunday javob berdi: «Ular hozirgidan ko‘ra yosh va kichkina bo‘lganlarida, biz xuddi shu ingichka arqon bilan ularni bog‘lab qo‘yar edik, endi esa ular o‘sib-ulg‘ayganlarida, aynan shu ingichka arqon ularni ushlab turishga qodir. Fillar ulg‘aygach, shu ingichka arqon ularni ushlab qolishiga ishonadilar va qochishga ham harakat qilmaydilar». Bu ajoyib edi. Bu jonzotlar bunday «zanjirlardan» osongina xalos bo‘la olardilar, ammo fillar bunday qilishga qodir emasliklariga ishonganlari sabab, bu yerda ular abadiy qolardilar, hattoki ozod bo‘lish uchun hech qanday harakat ham qilmas edilar. Bu fillar kabi biz ham bir marta bir narsani uddalay olmaganimizdan keyin muvaffaqiyatga ishonmasdan



qodir emasligimizga ishonib qolib maqsadimizdan voz kechamizmi?»

**1-mashq.** Parchalarni o‘qing. Tushunganlaringizni so‘zlab bering.

**2-mashq.** Berilgan matndagi so‘zlarni “yumshoq”-“qattiq”ligiga ko‘ra juftlang.

**3-mashq.** Nuqtalar o‘rniga so‘z qo‘yib maqollarni ko‘chiring.

**Bu maqollar ma’nosini qanday tushunasiz?**

Yo‘l bosgan mo‘l bosar, o‘tirganni ... bosar.

Kim qat’iyatli bo‘lsa, o‘sha ...dir.

Nimani chala qilsang, o‘shanga ... bo‘lasan.

Bosh omon bo‘lsa, ... topiladi.

Insonda “Men hozir ega bo‘lganimdan ko‘ra ko‘prog‘iga erisha olaman”, degan ishonch bo‘lishi lozim. Insoniyat tarixida bunday misollar nihoyatda ko‘p. Agarda insonda ishtiyoq bo‘lsa, u maqsadi sari intilsa, qat’iyatli, barqaror, tirishqoq bo‘lsa, u albatta, qo‘ygan maqsadiga erishadi.

Muvaffaqiyat	Iqtidor	Mehnat, harakat

**4-mashq.** Matndan eng muhim deb hisoblagan ma’lumotlaringizni ajrating.

**5-mashq.** O‘z maqsadingizni bitta jumla bilan ifodalang.

**6-mashq.** Berilgan so‘zlarni “yumshoq”-“qattiq”ligiga ko‘ra tartiblang.

**O‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**1-topshiriq.** Matnda qo‘llangan “yumshoq” so‘zlarni aniqlab, o‘rniga yanada “yumshoq”roq muqobillarini qo‘ying.


**2-topshiriq.** “Kishining qalbi shishadek nozik” mavzusida “yumshoq” va “qattiq” ifodalarga bag‘ishlangan matn yarating.

## 6-METODIK TAVSIYA

### 8-sinf

**1-topshiriq.** “Sog‘lom turmush tarzi” matnini ifodali o‘qing.

“Sog‘lom tanda – sog‘ aql” maqolining ma‘nosi shundaki, jismonan sog‘lom odam yuqori darajada g‘ayratli va kuch-quvvatga ega bo‘ladi. Kuch manbalaridan biri – bu jismoniy mashqlardir. U shunday ataladi, sababi u bizga kun bo‘yi kuch-quvvat va yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi, organizmning uyg‘onishi, shuningdek, o‘qish hamda kundalik mashg‘ulotlar bilan faol shug‘ullanishimizga yordam beradi.



980-yil 16-avgustda afsonaviy olim Abu Ali Husayn ibn Sino dunyoga kelgan, uning nomini Yevropada “Avitsenna” deb ataydilar. Allomaning dono maslahatlariga bugungi kunda ham amal qilinadi. Ibn Sino uchun hayotidagi asosiy maqsad – bu tibbiyot bo‘lgan. 16 yoshidayoq uni Buxoro amirini davolash uchun taklif qilganlar. Shundan keyin Ibn Sino ko‘plab Sharq hukmdorlarining saroy tabibi bo‘lgan. Zamondoshlari uni “Shayx ar-Rais” (tabiblar shohi) deb atashgani bejiz emas.

**Mana uning ayrim fikrlari:**

“Sog‘lom odamlar uyquga jiddiy e‘tibor berishlari kerak. Ularning uyquasi o‘z vaqtida me‘yorda bo‘lishi va ortiqcha bo‘lmasligi kerak; uyqusizlikning miya va uning butun kuchiga zararidan ehtiyot bo‘lish kerak”.

“Eng yomoni, turli xil ovqatlarni aralash iste‘mol qilish va uzoq vaqt ovqatlanishdir”.

**Vazifa.** Quyidagi tushunchalarga nimalar kirishi haqida o‘ylab ko‘ring va ularni ifodalovchi otlarni jadvalga yozing:

<b>Sog‘lom oziq-ovqat</b>	<b>Sog‘lom uyqu</b>	<b>Kun tartibi</b>	<b>Gigiyena</b>	<b>Jismoniy tarbiya</b>
---------------------------	---------------------	--------------------	-----------------	-------------------------

--	--	--	--	--

**2-topshiriq.** Mazkur jadvaldan foydalanib, siz oziq-ovqatingizda qanday mahsulotlarni iste'mol qilishingizni yozing. Bu qanday vitaminlar qabul qilayotganingiz, qaysilarini qabul qilmayotganligingizni bilish imkoniyatini beradi. Partadoshingiz bilan muhokama qiling.

**1.2-mashq.** Talaffuzidagi tovush o'zgarishi imloda inobatga olinmaydigan so'zlarni aniqlang.

**1.3-mashq.** Yozilganidek aytilmaydigan otlarni aniqlang.

**1.4-mashq.** Matndagi muhim so'z va jummalarni belgilang.

**O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**1.1-topshiriq.** "Tug'ilgan kuningiz bilan!" mavzusidagi tabrik nutqi musobaqasiga yozma matn tayyorlash.

**1.2-topshiriq.** Tabrik nutqini videoyozuv ko'rinishida bayon qilish.

Oltinchi metodik tavsiya bevosita inson uchun nihoyatda zarur bo'lgan sog'lom turmush tarzi haqidagi matn ustida ishlash orqali ko'zda tutilgan o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Topshiriqlar orasida o'quvchilarni hayotga tayyorlash, mustaqil matnlar tuzishga o'rgatuvchi muhim yondashuvlar ham mavjud. Masalan, tabrik yozish...

## **7-METODIK TAVSIYA**

### **8-sinf**

**1-topshiriq. Matnni o'qib tushunganingizni yozma bayon qiling.**

#### **Men – Yer sayyorasining vakiliman**

Biz qiziqarli va foydali ixtirolar sababli odamlar hayotini osonlashtiradigan yangi texnologiyalar va texnologik taraqqiyot dunyosida yashayapmiz. Inson o'z hayotini elektr, televizor, **mobil** (uyali) aloqa yoki internetsiz tasavvur qila olmaydi. Atrofga nazar tashlasangiz, uyda, maktabda sizni o'rab turgan turli xil **gadjet**larni ko'rasiz. Lekin ushbu yutuqlarning orqa tomoni mavjud – bunday

taraqqiyotning natijalari butun dunyoda ekologik muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Inson uchun barcha zarur va muhim narsalarni ishlab chiqaradigan zavodlar va fabrikalar doimo **atmosferaga** zararli moddalarni chiqaradi, daryolar va suv havzalarini ishlab chiqarish chiqindilari bilan ifloslantiradi. Bularning barchasi sayyoramizga juda zararli ta'sir ko'rsatadi, jahon miqyosidagi ekologik muammolar paydo bo'ladi, toza atrof-muhitni saqlab qolish bilan bog'liq murakkabliklarni yuzaga keltiradi.

Inson faoliyati – bizning faoliyatimiz – o'rmonlar, dengizlar, okeanlar, hayvonlar – butun sayyoramizning asta-sekin nobud bo'lishiga olib keladi. Asosiy sabab – tabiiy boyliklarning ifloslanishi va asossiz ishlatilishidir. Yer sayyorasining kelajakdagi taqdiri siz bilan bizga, ekologik madaniyatimizning darajasiga bog'liq bo'ladi.

**Ekologiya** – atrof-muhitdagi turli organizmlarning hayotini o'rganadigan atrof-muhit fani bo'lib, atrofimizdagi barcha tirik mavjudotlar va jonsiz narsalar o'zaro ta'sir qiladi. «Eykos» - uy-joy, uy; «logos» - fan, bilim ma'nosini bildiradi.

Dunyoda har soniyada futbol maydoniga teng bo'lgan o'rmon maydoni kesiladi.



Yashil o'rmonlar sayyoramiz nafas olayotgan o'pka hisoblanadi. Olimlarning fikriga ko'ra, quyoshli kunda bir gektar o'rmon 120-280 kg karbonat angidridni havodan yutadi va 180-200 kg kislorodni chiqaradi.

**1-mashq.** Matni ajratilgan so'zlarning talaffuziga e'tibor qilib o'qing.

**2-mashq.** Aytilganidek yozilmaydigan undosh tovushlari mavjud son va

otlarni aniqlab, daftaringizga yozing.

**3-mashq.** Yozilganidek aytilmaydigan undosh harflari mavjud sonlarni aniqlab, daftaringizga ko‘chiring.

**4-mashq.** Matndan tushunganlaringizni so‘zlab bering. Bir so‘z bilan ifodalang. Insonning tabiatga ta’sirini tushuntirib bering. Tabiat so‘zining qanday ma’nodoshlari borligini ayting.

**5-mashq.** Talaffuzi va imlosi bir xil so‘zlarni aniqlab, daftaringizga ko‘chiring.

**O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**1-topshiriq.** “Bayram tilaklari” mavzusidagi tabrik nutqi musobaqasiga yozma matn tayyorlash.

**2-topshiriq.** Tabrik nutqini videoyozuv ko‘rinishida bayon qilish.

Yettinchi metodik tavsiya yana ekologiya mavzusiga doir matn ustida ishlashga yo‘naltirilgan. Buning sababi shundaki, har bir o‘quvchi kelajakda tabiatning bir qismi sifatida uni o‘z tana a’zolaridan biridek asrashga o‘rganishi va mashg‘ulotlar davomida o‘zini ekologiya haqidagi fikrlarini bayon qilib berish faoliyatiga tayyorlashga o‘rgatishi nazarda tutiladi.

## **8-METODIK TAVSIYA**

### **8-sinf**

**1-mashq.** Rasm haqida tushunganingizni yozing.



Turli davrlarda, turli mamlakatlarda turli insonlar inson uchun muhim bo‘lgan qoidalar haqida gapirgan, mushohada yuritgan. Ularning barchasini bir qoidaga birlashtirish va uni “axloqning oltin qoidasi” deb nomlash mumkin.

**2-mashq.** Rasmda ko‘rinib turgan manzaradan foydalanib gaplar tuzing va “Til va adabiyot himoyachisi” nomli qisqa matn yarating.

**3-mashq.** Yaratgan matningizni bitta jumla bilan bayon qiling.

**4-mashq.** Qodiriy haqida bilgan ma’lumotlaringizni tartib bilan aytib bering.

**O‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**1-topshiriq.** Matnda ko‘rib turgan narsalaringizning nomini birma-bir yozing.

**2-topshiriq.** “O‘tkan kunlar” asari haqida fikringizni (ko‘rgan filmingiz asosida bo‘sa ham) bir jumlada ifoda qiling. Yoki asar mazmunini aks ettiradigan maqol yo hikmatli ibora keltiring.

Sakkizinchi metodik tavsiya boshqalariga o‘xshamagan holda ko‘rganlarini yozma yoki og‘zaki bayon qilib berishga mo‘ljallangan. Bunda o‘quvchi rasmlarda ko‘rgan holatlar, harakatlarni o‘zicha ifodalab beradi. Bu ham o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga yordam beradi.

## **9-METODIK TAVSIYA**

### **9-sinf**

**1-mashq.** Hikmatlarni o‘qing. Bog‘liqlikni aniqlang. Barchasi uchun mos keladigan bitta so‘z yozing. Yoki bitta jumla bilan ifodalang.

**Mashhur insonlarning quyidagi hikmatli fikrlarini o‘qing va tushunchangizni ayting.**

1. «Inson hayvonni yaxshi ko‘rmagunga qadar ko‘nglining bir qismi uyg‘onmasdan qoladi» (Anatol Frans).
2. «Men hayvonlar huquqlarini, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilaman» (Avraam Linkoln).
3. «Millatning buyukligi va ma’naviy rivojlanganligi, uning hayvonlarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanishi mumkin» (Maxatma Gandi).
4. «Hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik – insonlari haqiqatan o‘qimishli, haqiqat, bilimdonlik hukmronlik qilgan joyda bo‘lishi mumkin emas» (Aleksandr Gumboldt).
5. «Hayvonlarga rahm-shafqatlilik xarakteri mehribonlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi uchun hayvonlarga nisbatan shafqatsiz bo‘lganlar mehribon bo‘la olmasligini ishonch bilan tasdiqlash mumkin» (Artur Shopengauer).
6. «Itlarning faqat bitta kamchiligi bor: u ham bo‘lsa, odamlarga ishonishidir» (Elian D. Finbert).
7. «Tabiat insonga tilsiz jonivorlarga ham ko‘rsatiladigan oliy va go‘zal rahm-shafqat hissiyotini in’om etgan» (Fkutsis Bekon).
8. «Kim och qolgan hayvonni ovqatlantirsa, u o‘zining dilini oziqlantiradi» (Charli Chaplin).
9. «Allohim, mening itim meni qanday inson deb hisoblasa, shunday bo‘lishga yordam bergin» (Yanush Vishnevskiy).

O‘zbekistonda hayvonlarni davlat va jamoat darajada himoya qilish muammolarini hal etishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lish uchun javobgarlik (jarimadan qamoqqa olishgacha) nazarda tutilgan. Bu ishlar tuman va shahar ichki ishlar boshqarmalari (IIB) xodimlari tomonidan nazorat qilinadi.

Bundan tashqari, kichik birodarlarimizga befarq bo‘lmagan ko‘ngilli fuqarolardan tashkil topgan «Mehr va oqibat» hayvonlarni himoya qilish jamiyati

ham mavjud. Jamiyatning asosiy vazifalari: aholining hayvonlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish haqidagi bilimlarini oshirish, ularning ko'payishini nazorat qilish, qonun hujjatlarini ishlab chiqishga doir takliflar berish, uysiz hayvonlarni boshpanalar bilan ta'minlash hisoblanadi.

**2-mashq.** Hikmatlarning mos izohlarini toping.

**3-mashq.** Matndagi hikmatlarga mos maqollar toping.

**4-mashq.** Matndagi tegishli gaplarni berilgan maqollarning mosi bilan almashtiring.

**5-mashq.** Matnga mavzu qo'ying.

**6-mashq.** Berilgan hikmatli so'zlardan qaysilarida kishilik olmoshlarini o'zlik olmoshiga almashtirish mumkin bo'lsa, o'zgartirib ko'ring.

**O'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**1-topshiriq.** Berilgan sinonim maqollardan tanlab, matn tuzing.

**2-topshiriq.** "Maqol bilan so'zlaymiz" bahsiga tayyorlaning, berilgan maqollardan ham foydalaning.

To'qqizinchi metodik tavsiyaning o'ziga xos jihati shundaki, o'quvchilar hikmatli so'zlar, donolar o'g'itlari ustida ishlaydilar. Ayniqsa, jahonda jonivorlarga munosabat qanday ekanligini mashhur insonlarning so'zlaridan anglab olish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, o'quvchi o'rgangan hikmatlari asosida nutq tayyorlashni o'rganadi.

## **10-METODIK TAVSIYA**

### **9-sinf**

**Quyidagi savollarga javob bering:**

1. Ko'chada daydi mushuklar yashaydi. Menga uni uyga olib kirishga ruxsat berishmaydi. Men ...
  - to'xtamay o'taman, bu mening mushugim emas.
  - unga uycha yasayman.
  - unga ovqat va (hamda, yoki) suv beraman.
  - hayvonlar saqlanadigan tashkilotga qo'ng'iroq qilaman.



- uning yangi egasini qidiraman.
2. Notanish bolalar kelishdi va (yoki, hamda) mushukni qiynashyapti. Men ...
- to‘xtamay o‘taman, bu mening mushugim emas.
  - mushukni himoya qilaman va (shuningdek, hamda) uni tortib olaman.
  - kattalarni yoki do‘stlarni yordamga chaqiraman.
3. Mushuk so‘vqotgan, kasal bo‘lgan yoki yaralangan. Men ...
- to‘xtamay o‘taman, bu mening mushugim emas.
  - uni uyga olib ketaman va davolashni boshlayman.
  - veterinar klinikasiga qo‘ng‘iroq qilaman.
  - kattalardan uni veterinar shifokoriga olib borish ... yordam so‘rayman.
4. Ko‘chada daydi it yotibdi (yuribdi). Balki (ammo, lekin) u kasal yoki yarador. Men...
- to‘xtamasdan o‘tib ketaman.
  - uning oldiga boraman, silashga harakat qilaman ... u bilan o‘ynayman.
  - veterinar klinikaga qo‘ng‘iroq qilaman.
  - hayvonlar saqlanadigan tashkilotga qo‘ng‘iroq qilaman.
  - kattalardan uni veterinar shifokoriga olib borish ... uchun yordam so‘rayman.

**4-mashq.** Matn mazmunini og‘zaki bayon qiling.

**5-mashq.** Matndan tushunganlaringizni yozma bayon qiling.

**6-mashq.** Gaplardagi ortiqcha qo‘shimchalarni aniqlab, sababini tushuntiring.

**O‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.**

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi ortiqcha qo‘shimchalarni topib, gaplarni tuzating.

**2-topshiriq.** Matndan olgan taassurotlaringizni yozma bayon qiling.

Yuqorida keltirilgan matn va ularga ishlab chiqilgan o‘quv topshiriqlari o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarining tizimli rivojlanishiga xizmat qiladi. Har bir

matn o‘quvchida tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga mo‘ljallangan.

Matnlarni tanlashda tabiat, ekologiya, jonivorlar mavzulariga bejiz murojaat qilinmadi, chunki 8-9-sinf o‘quvchilarining qiziqishlarini ham inobatga olish lozim edi. Qolaversa, sog‘lom turmush tarzi matni ustida ishlash mashg‘uloti shu yoshdagi o‘quvchilar uchun nihoyatda zarur.

### **2.3-§. Matn ustida ishlash orqali o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi**

Ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchilarni badiiy asar o‘qishga tayyorlashi kerak. Adabiyot mashg‘ulotlari esa badiiy asar orqali o‘quvchilarni fikrlashga, matn mazmunini anglashga, xulosa chiqarishga, munosabat bildirishga o‘rgatishi lozim. Shu ma’noda, o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Quyida ayrim asarlardan tanlab olingan matnlarni tahlil qilib, ularni anglash uchun savol va topshiriqlar ishlab chiqamiz. Masalan, vatanparvarlik haqidagi Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasini tahlil qilish orqali muhim nuqtalarga savollar berish usuli bilan muallif maqsadini aniqlashga harakat qilamiz, bunda o‘qish savodxonligini oshirish bo‘yicha ayrim mezonlardan foydalaniladi:

Yanguli otasi bilan Venetsian ko‘chasida, Chalbash daryosining bo‘yida yashardi. Onasini eslolmaydi – chaqaloqligidayoq yetim qolgan. Ota-bolaning bor-yo‘q davlati bir parcha tomorqa, bittagina sigir va eshakdan iborat. Oshko‘k, sut-qatiq sotib kun ko‘rishadi.

Yanguli hech qayerda o‘qimasdi. Otasining yumushlariga qarashar, ahyon-ahyon eshakda qo‘shnilarga sut-qatiq tarqatar edi. O‘ziga o‘zi in‘om etgan bor vaqtini u ko‘chada o‘tkazardi. Temiryo‘l kesib o‘tiladigan joyda maktabdan qaytadigan bolalarni poylab turar, bittama-bitta ularning cho‘ntaklarini timirskilab, tamakimi, sariq chaqami, soat zanjirimi yoxud rangli qalammi – nimaiki bo‘lsa, barini ship-shiydon qilib olib qo‘yar edi. Ertasiga esa o‘sha narsalarni yana o‘sha bolalarning o‘ziga arzonroqqa pullar, so‘ng tushgan aqchaga ular bilan qimor o‘ynab, noshud sheriklarining bor-budini obdon shilardi-da, cho‘ntaklarini

qappaytirib uyiga qaytardi. Xudoning bergan kuni ahvol shu edi...

O'n to'rt yoshli bu zolim Venetsian ko'chasida istiqomat qiluvchi barcha ustidan, jumladan, xolavachcham Koka ustidan ham tanho hukmronlik qilardi.

Xullasi kalom, Yanguli dahaning tan olingan sardori edi.

Bizning tanishuvimiz o'ttiz sakkizinchi yilning kuzlarida boshlangan. Nina xolam meni Tbilisidan olib kelgan kunning ertasigayoq butun Suxumiga nomi ketgan musiqa muallimi Yelena Mixaylovna Navrodskeyaning uyiga boshlab borib, o'zini tappa uning oyoqlari ostiga tashladi:

– Yetimchaga rahmingiz kelsin! Onasi skripkaga olib borardi... Olloning irodasi ekan, bir kunda onasidan ham ajraldi, skripkasidan ham judo bo'ldi... Shu bolani tarbiyangizga oling... Qancha so'rasangiz ham mayli...

Navrodskeya eshitish qobiliyatimni tekshirdi, har turli notalarni o'qitib ko'rdi, barmoqlarimni ko'zdan kechirdi, iyagim ostidagi qadoqni siypaladi. So'ng biroz ikkilanib turdi-da, narigi xonadan skripka ko'tarib chiqib, uni sozlashni buyurdi. Xolam tipirchilab qoldi, ammo topshiriqni tупpa-tuzuk uddalaganimni ko'rib sal xotirjam bo'ldi.

– Endi Betxovenning «Surka»sini chal!

– Yelena Mixaylovna shunday dedi-yu, kresloga yastanganicha chalishimni kuta boshladi.

Betxovenning nomini eshitib, xolamning avzoyi buzildi.

– Muhtaram Yelena Mixaylovna, balki boshqa, mundog'roq kompozitorni tanlagan ma'qulmikin? – dedi u ro'molchasi bilan peshonasidagi terni artib.

– Iye, «Surka»ni chalolmaydimi hali? – deya hayratdan Navrodskeyaning qoshlari chimirildi.

### ***Jamol nega musiqadan ta'lim olishni xohlamadi?***

Hayotimdagi orziqib kutilgan daqiqalar yetib keldi. Olti yoshimdan buyon meni ezib-yanchib kelayotgan shafqatsiz musiqa jabr-zulmidan birato'la va bir umrga xalos bo'lish imkoniyati tug'ilgan edi. Shu tobda birgina «Yo'q!» degan afsungar so'z og'zimdanda chiqsa, butun azoblarim barham topgan bo'lardi. Ammo... xolamning yolvorganday mo'ltirab qarab turishimi, Navrodskeyaning

taajjublanganimi yoxud o‘n uch yashar bolaning g‘ururimi – bilmadim, ishqilib, allaqanday sehrli kuch meni kamonchani qo‘lga olishga majbur qildi-yu... xona ichi «Surka»ning sodda va bemisl ohanglariga to‘lib ketdi...

**O‘qish savodxonligini tekshirib ko‘rish uchun quyidagicha savollar berish maqsadga muvofiq:**

- Yozuvchini qaysi voqea ta’sirlantirgan deb o‘ylaysiz?
- U nega hikoyani “Hellados” deb nomladi?
- Hikoya orqali muallif nima demoqchi?
- Yanguli maktabga bormagan bezori bola bo‘lsa, u vatanparvarlikni kimdan o‘rgandi?
- Yanguli vatanni qanday tasvirlab berdi. Matndan shu epizodni toping.
- Qaysi xatboshida Yangulining vatanga muhabbati ta’sirli tasvirlangan?
- Yangulini o‘zbek adabiyotidagi o‘zingiz bilgan qaysi qahramonga o‘xshatdingiz?
- Gretsiyaga ketishni shunchalik xohlamagan Yanguli nega indamay poroxodga chiqdi?
- Muallif hikoyaning mushtlashuv manzaralarini nega bunchalik batafsil tasvirladi?
- Hikoyani o‘qib bo‘lgach, vatan nima ekanligi haqida o‘zingizda aniq tasavvur paydo bo‘ldimi?
- Jamol baliqlarni zaharlab qo‘yganda musiqa ustози nega yig‘ladi?
- Nega Yanguli bolalarga rahm-shavqat qilmaydigan mushtumzo‘r bo‘lsa-da, eshakka rahmi keladi?
- Hikoyaning eng ta’sirli nuqtasi qaysi, sizningcha?

**1-topshiriq.** Matndan tashqari ma’lumotlarni o‘rganing va matndagi voqealarga aloqadorligini aniqlang.


1. Ellada Gretsiyaning qadimiy nomi, XIX asrda Usmonli turk imperiyasining mustamlakasi tufayli greklar avval Turkiyaga, so‘ng Gruziyaga ko‘chib kelishadi. Yangulining otasi ham Gruziyada yashayotgan va o‘z Vataniga

qaytish orzusida bo'lgan greklardan edi.

2. “Hellados” (“Ellada”) hikoyasidagi voqealar 1938-yili Gruziyaning Suxumi shahrida bo'lib o'tadi. Hikoya tibilisilik Jamolning Suxumiga ko'chib kelishi va shu yerlik mushtumzo'r o'spirin Yanguli bilan to'qnashuvidan boshlanadi.



Yanguli matndagi tasvirga qanchalik mos keladi?



**2-topshiriq.** Quyidagi dialogdan nimani tushundingiz, hikoya davomini qanday bashorat qilasiz?

- Jamol – skripka!
- Yanguli – mishiqli!
- Jamol – cho'chqa!
- Yanguli – ipirisqi grek!
- Jamol — sassiqtake!
- Chivinbotir!
- Eshshak!
- Chuvrindi!
- Bezori!

- Tbilisilik landavur!
- Shen deda vatire, Yanguli!
- Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!

**3-topshiriq.** Yangulining so‘z bilan ifodalangan qiyofasi va xarakteri rasmdagiga qanchalik mos keladi?

Yanguli – suxumilik grek Xrista Aleksandridining o‘g‘li. Cho‘pday ozg‘in, yelkalari turtib chiqqan, qirraburun, ko‘zlari charosdek qop-qora, qo‘llari uzunligidan tizzasiga tushib turadigan o‘n to‘rt yoshli bu bola yon-atrofdagi tengqurlari uchun naqd azroilning o‘zi edi. Mushtlashishda hech kim unga bas kelolmasdi. Ana-mana deguncha birvarakayiga ikki-uch bolani yerga chalpak qilib qo‘yaverardi. Mushukday chaqqon, qayishday chayir bola edi u. Qishin-yozin oldi ochiq qora satin ko‘ylak kiyib yurardi.

Yanguli haqidagi tasavvuringiz rasmdagiga mos keldimi?

Yanguli otasi bilan Venetsian ko‘chasida, Chalbash daryosining bo‘yida yashardi. Onasini eslolmaydi – chaqaloqligidayoq yetim qolgan. Ota-bolaning bor-yo‘q davlati bir parcha tomorqa, bittagina sigir va eshakdan iborat. Oshko‘k, sut-qatiq sotib kun ko‘rishadi.

Yanguli hech qayerda o‘qimasdi. Otasining yumushlariga qarashar, ahyon-ahyon eshakda qo‘shnilarga sut-qatiq tarqatar edi. O‘ziga o‘zi in‘om etgan bor vaqtini u ko‘chada o‘tkazardi. Temiryo‘l kesib o‘tiladigan joyda maktabdan qaytadigan bolalarni poylab turar, bittama-bitta ularning cho‘ntaklarini timirskilab, tamakimi, sariq chaqami, soat zanjirimi yoxud rangli qalammi — nimaiki bo‘lsa, barini ship-shiydon qilib olib qo‘yar edi. Ertasiga esa o‘sha narsalarni yana o‘sha bolalarning o‘ziga arzonroqqa pullar, so‘ng tushgan aqchaga ular bilan qimor o‘ynab, noshud sheriklarining bor-budini obdon shilardi-da, cho‘ntaklarini qappaytirib uyiga qaytardi. Xudoning bergan kuni ahvol shu edi...

**4-topshiriq.** Voqeani hikoya qilib beruvchi bolaning xarakteri haqida nima deya olasiz? U yaxshi bolami yo yomon? Nega?

O‘n to‘rt yoshli bu zolim Venetsian ko‘chasida istiqomat qiluvchi barcha ustidan, jumladan, xolavachcham Koka ustidan ham tanho hukmronlik qilardi.

Xullasi kalom, Yanguli dahaning tan olingan sardori edi. Bizning tanishuvimiz o‘ttiz sakkizinchi yilning kuzlarida boshlangan. Nina xolam meni Tbilisidan olib kelgan kunning ertasigayoq butun Suxumiga nomi ketgan musiqa muallimi Yelena Mixaylovna Navrodskeyaning uyiga boshlab borib, o‘zini tappa uning oyoqlari ostiga tashladi:

– Yetimchaga rahmingiz kelsin! Onasi skripkaga olib borardi... Olloning irodasi ekan, bir kunda onasidan ham ajraldi, skripkasidan ham judo bo‘ldi... Shu bolani tarbiyangizga oling... Qancha so‘rasangiz ham mayli... [2, 224-b.].

O‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha topshiriqning xususiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, topshiriq turi: pozitsion; matn turi: badiiy. Topshiriqning tuzilishi: matn mazmunining saviyasi (Birinchi va ikkinchi darajali)

### **1-topshiriq**

Ahamiyati: ma‘lumotlar ustida ishlash

*Topshiriqning qiyinlik darajasi (O‘qish savodxonligi): 2*

1 ball – javobda so‘zlarning ma‘nosi to‘g‘ri anglangan holda bayon qilingan.

0 ball – boshqa javoblar to‘liq emas

### **2-topshiriq**

Ahamiyati: zarur ma‘lumotlarni topa olish

*Topshiriqning qiyinlik darajasi (O‘qish savodxonligi): 2*

1 ball – matndan kerakli ma‘lumotlarni ajrata oladi. Jadvalga kerakli so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirgan.

0 ball – boshqa javoblar to‘liq emas.

### **3-topshiriq**

Ahamiyati: ma‘lumotlarni qiyoslash

*Topshiriqning qiyinlik darajasi (O‘qish savodxonligi): 2*

1 ball – javobda so‘zlarning ma‘nosi to‘g‘ri anglangan holda bayon qilingan.

0 ball – boshqa javoblar to‘liq emas

### **4-topshiriq**

Ahamiyati: ma‘lumot izlash

*Topshiriqning qiyinlik darajasi (O‘qish savodxonligi): 1*

1 ball – javobda talab etilgan ma'lumot o'rni to'g'ri aniqlangan.

0 ball – boshqa javoblar to'liq emas.[3]

Xullas, badiiy matnlar inson tafakkurini sayqallashtiradigan, teran fikrlashga undaydigan, obrazli fikrlash ko'nikmasini tarkib toptiradigan muhim estetik qiymatga ega san'at asaridir. Ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar ham adabiyotdan, badiiy matnlardan estetik zavq bilan birga, fikr, o'ziga kerakli tushunchalarni oladi. Shu ma'noda, matnlarni teran anglash uchun undagi yashirin ma'nolarni fahmlay olishga o'rgatish lozim. Bularning barchasi o'qish savodxonligini rivojlantiruchi topshiriqlarga bevosita bog'liq. Inson fikrlashni o'rgansa, nisbatan kam ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda ham zarur qarorlarni to'g'ri qabul qila oladi, muhim xulosalarga kela oladi.

**O'quvchilarda mumtoz matnlar orqali o'qish savodxonligini rivojlantirish.** Bugungi kunda yurtimiz milliy mustaqilligining yangi bosqichiga o'tildi. Bu, albatta, barcha sohalarda erishayotgan turli islohotlar qatorida uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta'lim muassasalarida jahon ta'lim standartlari asosida o'qitish, savodxonlikni oshirish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Hatto oliy ta'limning har bir yo'nalishida ona tili va adabiyot fanining mavqeini oshirish masalalari ham bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

Xo'sh, bu masalalar natijaviyligi – yoshlar tarbiyasiga oid hukumat qarorlarining ijrosini ta'minlash, XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga erishish kabi quyidagi ustuvor vazifalar bilan hamohangdir: o'quvchilarda filologiya fanlarini o'qitish asosida bilimlarini hayotda qo'llay olish hamda to'g'ri qaror qilish ko'nikmalarini shakllantirish; xalqaro standartlar asosida o'quvchilarning bilimini oshirish, ularning savodxon bo'lishi, axborot texnologiyalarini bilishi, chet tillarida muloqot qilishiga erishish; har sohada bilimlarini hayotga tatbiq eta olishi, iqtisodiy, huquqiy, o'qish savodxonligi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish; ma'naviy-axloqiy, siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burchi va kitobxonlik, mas'uliyat hislari shakllangan bo'lishi kabilar.

Darhaqiqat, bu masalalar o'z-o'zidan umumta'lim muassasalarida dastur va



darsliklarni takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu ma’noda, 2019-yil qayta nashr etilgan 8-sinf “Ona tili” darsligida mashq va topshiriqlarning jiddiy farqlanishi, lug‘atlar bilan ishlash davomiyligi, tarbiyaviy mazmunga ega bo‘lgan kichik hajmli rivoyat, hikoyat matnlarning berilishiga ahamiyat qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur darslik ona tili fanini adabiyot fani bilan integratsiya qilishga katta imkoniyat yaratib beradi. O‘quvchilarimiz mumtoz matnlarni o‘qib tushuna olmasligi bugungi adabiyot ta’limimizning eng og‘riqli nuqtalaridan biridir. Modomiki, o‘quvchi Navoiy asarlarini tushunmas ekan, berilayotgan adabiy ta’limni samarali, to‘laqonli deb bo‘lmaydi.

Aksariyat o‘qituvchilar tomonidan murakkab deb e’tirof etilayotgan professor B.Mengliyev hammuallifligida takomillashtirilgan 8-sinf “Ona tili” darsligi bugungi zamon talablariga to‘la mos kelishi bilan birga o‘quvchida lug‘at va matn bilan ishlash imkoniyatini beradi. Tan olish kerakki, ona tili va adabiyot o‘qituvchilari anchadan buyon o‘z ustida bunchalik jiddiy ishlamayotgan edi, to‘g‘rirog‘i, bunga ehtiyoj yo‘qdek edi. Mavjud darsliklar bunday sharoitni o‘quvchiga ham, o‘qituvchiga ham yaratib bera olmayotgan edi. 2019-yil nashrdan chiqqan mazkur darslik ona tili darslari orqali adabiyot, badiiy matn mohiyatini anglashga, so‘z ma’nolarini tushunishga, o‘quvchilarda o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangani bilan boshqa darsliklardan keskin farq qiladi. Tanlangan rasm, illustratsiya materiallari ham o‘quvchini fikrlashga, taqqoslash orqali xulosa chiqarishga undaydi. Darslikning eng qiyin qismi deb e’tirof etilayotgan “Mumtoz matn” bilan ishlash bo‘limi A.Navoiyning “Lison ut-tayr” asarining “Talab vodiysi” fasli matni tahliliga bag‘ishlangan. Agar o‘qituvchi o‘z ustida ishlashdan erinmasa, matn nihoyatda o‘rinlidir. Inson borki, unda maqsad bo‘ladi, kimda, qaysi o‘quvchida maqsad, muddao bo‘lmasa, uning istiqboli yo‘q. Shu ma’noda, tanlangan matn mohiyatiga yetilsa, o‘quvchilar o‘zlari uchun muhim xulosalar chiqarib olishadi, zero, mazkur asar Navoiy ijodining gultojlaridan biridir.

Bu borada professor B.Mengliyev tomonidan Navoiy ijodiga munosabat

tariqasida chop ettirilgan “Yuksalish metodologiyasi haqida o‘ylar” maqolasidan unumli foydalanishni tavsiya etamiz:

Mumtoz adabiyotda yuksalishning yetti bosqichini ajratish urf bo‘lgan: *talab, ishq, ma‘rifat, istig‘no, tavhid, hayrat, fano*. Bularni tor ma‘noda shaxs ruhiy takomillashuvining, keng ma‘noda esa ko‘zlangan maqsad sari harakatning alohida-alohida bekatlari deyish mumkin.

### **Talab – kuchaygan istak**

Har qanday maqsadning birinchi bekati – ehtiyoj. U istakni keltirib chiqaradi. Istakdan talab shakllanadi. Ehtiyoj – istak – talab uzviyligi mavhumlikdan aniqlik tomon siljishni ko‘rsatadi. Ehtiyoj ehtiyojligicha qolib, istakkacha chiqmasligi ham, shuningdek, istak talabga aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin. Bu ularning darajasi, kuchi bilan belgilanadi. Ehtiyojda faoliyat qariyb yo‘q darajada bo‘lsa, istakda faoliyat boshlanadi, talab bosqichida esa maqsadning birinchi bekati nihoyasiga yetadi.

Har bir bosqichning o‘ziga xos mashaqqatlari bor. Buni hazrat Navoiy shunday tavsiflaydi:

*Chun talab vodiysig‘a qo‘ysang qadam,*

*Ollinga har dam kelur yuz ming alam.*

Bu bosqichda talab obykti reallashmagan bo‘ladi, aynan nimani talab qilayotganligi aniq bo‘lmaydi:

*Istamoq ranji ko‘ngulni zor etar,*

*Topmamog‘lig‘ ruhni afgor etar.*

Buni shunday jo‘nlashtirish mumkin. Kishida boyish istagi paydo bo‘ladi, buning uchun tadbirkorlik yo‘lini tanlaydi. Ammo aynan qaysi turi bilan shug‘ullanishni hali tanlamagan. Obyekt aniqlanishi bilan u tomon intilish qat‘iylashadi, shuningdek, kishida ma‘lum darajada “yengillik” paydo bo‘ladi:

*Ganjdin yetgay asar vayroninga,*

*Zoti nuridin yorug‘lik joninga.*

Boshqa narsalarga chalg‘imaslik, maqsadga daxldor bo‘lmagan narsalarga o‘ralashib qolmaslik dastlabki bekatdagi ilk shartlardan:

*Har nekim g'ayritalabdir, tashlamoq,*

*O'zni maqsad manziliga boshlamoq.*

Yuksalish to'siqsiz bo'lishi mumkin emas. Yo'l hech qachon ravon bo'lmaydi. Maqsad aniq, faoliyat obyekt sari qat'iy yo'naltirilgan, irodasi o'ziga bo'ysundirilgan kishi uchun bu yo'ldagi to'siqlar, mashaqqatlar pisand emas:

*Oldinga kelsa agar pili domon,*

*Ko'rgasen pashsha hamonu ul hamon.*

Bunda talab, obyekt, maqsad va iroda uyg'unlashadi. Talab kuchli, obyekt aniq, maqsad qat'iy, iroda yengilmas xususiyatga ega bo'lsagina, faoliyatning ilk bosqichi samarali kechadi. Bulardan obyektga bo'lgan munosabat asosiy o'rin tutadi. Buni hazrat Navoiy shunday bayon qiladi:

*Durg'a topgan soyi ko'nglung xosliq,*

*Bo'lg'oy osonroq senga g'avvosliq.*

Demak, maqsad obyektiga mehr qo'yish, tanlagan yo'lni sevish – mashaqqatlarni yengish vositasi. O'ziga yoqmagan yo'l bilan kishi yuksalmaydi. O'z maqsad obyektida Haqning beqiyos qudratini ruhan va aqlan his qilish, albatta, shaxsning bu qudrat oldida zarraning mingdan biricha ham qiymatga ega emasligini anglab yetishiga olib keladi. Anglash shaxsning o'zini bu qudratga qiyosan baholashini keltirib chiqaradi. [Mengliyev,1.]

Xulosa o'rnida. Ma'rifat – o'quvchining o'zini o'zi baholash vositasi, u insonni poklaydi, kamolot sari yetaklaydi. Buyuk va ezgu ishlarga yo'llaydi. Tilni adabiyotdan ajratib bo'lmaydi, biri ikkinchisiga chambarchas bog'liq. Ona tili darslarida o'quvchilarni badiiy matnlarni o'qib tushunishga, mushohada qilishga undash ikkala fanga ham foydalidir. Shu ma'noda Alisher Navoiy ijodini ona tili darslari orqali ham o'rganish – bu shoirni, uning ulkan me'rosini anglashga olib keladi.

### **Bob bo'yicha xulosa**

1. Ona tili darslarida mumtoz matnlar va lug'at ustida ishlash ko'nikmalari shakllantirilsa, o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matnni anglash darajasi oshadi. Alisher Navoiy asarlarini ona tili darslarida o'rganish o'qitish

samaradorligini oshiradi.

2. Badiiy matn mazmunini anglash, muallif maqsadini tushunish uchun undagi dalillarni solishtirish, aloqadorlikni aniqlash, yaxlit fikrga kelish, xulosani asoslash kabi ko'nikmalarni hosil qilish va ularni baholashga doir topshiriqlarni ishlab chiqish haqida mulohaza yuritiladi.

3. Matn tanlash masalasi ham muallflardan, tadqiqotchilardan katta mas'uliyat talab qiladi. Ona tili darslariga istalgan matnni tahlil materialisi sifatida keltirish samarali bo'lavermaydi. O'qish savodxonligini rivojlantirish uchun ham maxsus matnlar tanlanadi. O'zbek adabiyotidagi ayrim hikoya, esse va boshqa kichik hajmli asarlarni, katta hajmli asarlarning zarur qismlarini tanlab olishda o'quvchining fikrlash ko'nikmasini oshiradigan, didaktik ahamiyatga ega, mulohazaga chorlovchi matnlarni tanlash zarur.

### **III BOB. O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLARNING AMALIYOTDA QO'LLANILISHI**

#### **3.1-§. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni**

Ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarni ona tili o'quv predmeti asosida mustaqil ishlashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, o'quvchilarni ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligini ta'kidlash lozim. Jumladan, umumta'lim maktablarining 8-, 9-sinf o'quvchilarida ona tili fanini o'qitish orqali ularda o'qish savodxonligini rivojlantirish, shuning barobarida ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish bugungi ona tili ta'limining mazmuni va maqsadini tashkil etadi. Uni amalga oshirish ona tili ta'limi oldiga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, innovatsion loyihalar yaratish muammosini ham qo'ymoqda.

Shu jihatdan olib qaraganda umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida tadqiq qilinishi

lozim bo'lgan muhim masalalar tizimida o'quvchilarda o'qish savodxonligi ko'nikmalarini tizimli rivojlantiruvchi o'quv materiallar asosida mustaqil, ijodiy fikrlash hamda o'z fikrini nutq sharoitiga mos holda to'g'ri va ravon ifodalash malakasini shakllantirish hamda takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangi metodik yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab ko'rish muhim pedagogik muammodir.

Mazkur tajriba-sinov ilmiy tadqiqotning eng sermahsul usuli bo'lib, u kuzatishlar jarayonida tug'ilgan g'oya, taqdim etilgan tavsiya va ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini belgilab beradi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi ham umumta'lim maktablarining 8-, 9-sinf o'quvchilarida ona tili fanini o'qitish orqali ularda o'qish savodxonligini rivojlantirish, shuning barobarida ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish va mazkur jarayonga zamonaviy usullarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tajriba jarayonida umumta'lim maktablarining 8-, 9-sinf o'quvchilarida ona tili fanini o'qitish orqali ularda o'qish savodxonligini rivojlantirish, shuning barobarida ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish yuzasidan kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalari aniqlandi. O'quvchilarni anketa yordamida o'qish savodxonligi ko'nikmalarni tizimli rivojlantiruvchi maxsus mashq va topshiriqlarga bo'lgan qiziqishlari, shuningdek, bilim darajalari aniqlandi. Yana quyidagilar ham ma'lum bo'ldi:

- 8-, 9-sinf o'quvchilarining mavjud o'qish savodxonligi ko'nikmalari savol va topshiriqlar asosida aniqlandi;

- o'qituvchilarning ona tili darslari, xususan, matn ustida ishlashda darslik va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklari aniqlandi;

- qiziqarli, noan'anaviy, ijodiy izlanishga asoslangan o'qish savodxonligi ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishga doir mashq va topshiriqlarga nisbatan o'quvchilarning munosabatini aniqlash hamda fikrlarni umumlashtirish maqsadida

anketa savol-javoblari o'tkazildi;

– ta'kidlovchi tajriba-sinovda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish usul, shakl va vositalari aniqlanib, 8-, 9-sinfda qiziqarli, noan'anaviy ijodiy izlanishga asoslangan o'qish savodxonligi ko'nikmalarini tizimli rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar asosida o'quvchilarda fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi ishlab chiqildi.

Ijodiy izlanishga asoslangan o'qish savodxonligi ko'nikmalarini tizimli rivojlantiruvchi topshiriqlar, mashqlar orqali, avvalo, umumta'lim maktablarining 8-, 9-sinf o'quvchilarida ona tili fanini o'qitish orqali ularda o'qish savodxonligini rivojlantirish, shuning barobarida, ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirishga, to'g'ri yoza olishiga, nasriy va she'riy matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rta qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mazmunli ifodalay olishiga e'tibor qaratildi. Zero, sanab o'tilganlarga nisbatan o'quvchida ko'nikma shakllantirish bugungi kundagi eng dolzarb va muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun 8-, 9-sinf o'quvchilarida ona tili darslari orqali ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri qo'llash malakalarini shakllantirish talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi ilmiy faraz tekshirib ko'rildi va o'z isbotini topdi:

– o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini tizimli rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlar orqali o'qish savodxonligini ko'nikmaga aylantirish;

– o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni maxsus o'rganilib, undagi kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, bartaraf etish yo'llari va omillari ishlab chiqildi;

– o'qish savodxonligini tizimli rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari bilan ishlashning ahamiyati va didaktik imkoniyatlari anglangan holda metodik jihatdan to'g'ri tatbiq etildi;

– o'qish savodxonligini tizimli rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarni o'rgatishning mazmuni, shakl, usul va vositalari ishlab chiqildi;

– o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni shakllantiradigan, o‘z fikrini turli shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalay olish ko‘nikmasini paydo qilishga yo‘naltirilgan hamda samaradorlik darajasi aniqlangan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarining maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

– o‘qituvchilar tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan o‘qish savodxonligi bo‘yicha o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar bilan tanishtirildi;

– o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar dars jarayoniga to‘liq tatbiq etildi;

– olingan natijalarga ko‘ra ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar takomillashtirildi.

– 8-, 9-sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligi ko‘nikmasini rivojlantirish, mustaqil ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishning yoritilmagan qirralari aniqlandi va kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga material bo‘la oladigan tavsiyalar berildi.

Umumta’lim maktablari ona tili darsliklarida o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga oid o‘quv materiallarining tarkibi va ona tili o‘qitishning bugungi holatini aniqlash maqsadida dastlab tajriba-sinov maydonchalari aniqlab olindi. Tajriba-sinov ishlari Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi 54-maktabda, Samarqand shahridagi 14-maktabda, Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 240-maktab, Shayxontohur tumanidagi 132-maktabda; Buxoro viloyatining Olot tumanidagi 8- va 34- maktablarida o‘tkazildi.

Tajriba-sinovda jami 350 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Shundan 175 tasi sinov guruhiga, 175 nafari nazorat guruhiga olindi. Tajribaning dastlabki kunlarida nazorat sinflaridan ham, tajriba sinflaridan ham yozma ishlar olindi. Bizga ikkala guruhning ham darslarni o‘zlashtirish darajasi deyarli bir xil ekanligi ma’lum bo‘ldi. “Iqlim o‘zgarishlarining sababi”, “Ichimlik suvi”, “Hayot uchun kurash”,

“Sog‘lom turmush tarzi” kabi mavzulardagi matnlar o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshirish uchun berildi.

Olot tumaniga qarashli 8-umumta’lim maktabida olib borilgan tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilar nutqida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

– berilgan matn tahlilida o‘quvchi yuzaki ma’lumotlar bilan ishladi, matndagi kalit so‘zlarni topa olmadi, mazmunini ochib bera olmadi;

– matndagi eng muhim so‘z va eng asosiy jumlaning aniqlashda qiynaldi, asosan, matndagi muallifning g‘oyasini to‘liq tushunib yetmadi. “Sog‘lom turmush tarzi” mavzusida tajriba hamda nazorat guruhlaridan olingan sinov natijalari o‘quvchilarning 80%ida mazkur kamchiliklar borligini ko‘rsatdi.

– o‘quvchilarning lug‘at boyligi, o‘qish savodxonligi talabga javob bermasligi hollari ham sezildi. Aslida, kishida so‘z zahirasi nochor bo‘lsa, matn mohiyatini anglab yeta olmaydi, xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. O‘quvchilarda o‘qib tushunish va manbalar bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanishida o‘qituvchilarning ta’siri katta ekanligi barchaga ma’lum. Umuman, darsni qanday tashkil qilish o‘qituvchining to‘plagan malakasiga bog‘liq. Umumta’lim maktablarida orfoepiya o‘qitish bilan bog‘liq muammolarning bir uchi maktab o‘qituvchilariga ham borib taqalmoqda.

Tajriba-sinov jarayonida shunday holatlarga duch kelindiki, ayrim o‘qituvchilar ona tili ta’limidan ko‘zlangan asosiy maqsad nima ekanligi haqida aniq tasavvurga ega emas. Hatto tajribali o‘qituvchilar ham darsni interfaol usulda turli zamonaviy metodlarda qiziqarli tashkil eta olsalar-da, o‘quvchilarga ona tili fanidan zarur ko‘nikma va malakalarni bera olmayapti. O‘quvchilarni darsga qiziqitira olish yaxshi, albatta, biroq shu qiziqitirish orqali o‘quvchini ijtimoiy hayotda doim asqatadigan bilim va malakalar bilan qurollantirish asosiy masala ekanligini doim esda tutish zarur.

Inson ijtimoiy hayotda faoliyat ko‘rsatar ekan u jamoa bilan muloqotga kirishish, ko‘pchilikka o‘z fikrini yetkazib berish, hisobot berish, da’vat qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zaruratga aylanadi. Shu ma’noda, umumta’lim maktablaridan boshlab, o‘quvchilarda nutq so‘zlash ko‘nikmasini rivojlantirish



asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarni ona tili o'quv predmeti asosida mustaqil ishlashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, o'quvchilarni ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda.

Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligini ta'kidlash lozim. Jumladan, umumta'lim maktablarining 8-, 9-sinf o'quvchilarida ona tili fani, xususan, o'qish savodxonligini ko'nikma sifatida shakllantirish, shuning barobarida ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish bugungi ona tili ta'limining mazmuni va maqsadini tashkil etadi. Uni amalga oshirish ona tili ta'limi oldiga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, innovatsion loyihalar yaratish muammosini ham qo'ymoqda.

Shu jihatdan olib qaraganda, umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar tizimida o'quvchilarda o'qish savodxonligini o'qitishga oid o'quv materiallar asosida mustaqil, ijodiy fikrlash hamda o'z fikrini nutq sharoitiga mos holda to'g'ri va ravon ifodalash malakasini shakllantirish hamda takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangi metodik yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab ko'rish muhim pedagogik muammodir.

1. **Tayyorlovchi bosqich.** Mazkur tajriba-sinov ilmiy tadqiqotning eng sermahsul usuli bo'lib, u kuzatishlar jarayonida tug'ilgan g'oya, taqdim etilgan tavsiya va ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarning samaradorlik darajasini belgilab beradi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi ham 8-, 9- sinf o'quvchilarida ona tili o'quv predmeti, xususan, o'qish savodxonligini rivojlantirish uchun ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish ko'nikmasini shakllantirishning didaktik

imkoniyatlarini o'rganish va mazkur jarayonga zamonaviy usullarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tajriba jarayonida 8-, 9-sinf o'quvchilarining darslik materiallarini o'zlashtirish imkoniyatlari aniqlandi va bu jarayonda ona tili o'quv predmeti o'qituvchilarning o'qish savodxonligi yuzasidan kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalari aniqlandi. O'quvchilarning anketa, taqdim etilgan matn hamda mavzular asosida bilim darajalari aniqlandi. Yana quyidagilar ham ma'lum bo'ldi:

– 8-, 9- sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi bo'yicha joriy ko'nikmalari aniqlandi;

– o'qituvchilarning ona tili darslari, xususan, grammatika bo'limini o'qitishda darslik va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklari aniqlandi;

– qiziqarli, noan'anaviy, ijodiy izlanishga asoslangan mashq va topshiriqlarga nisbatan o'quvchilarning munosabatini aniqlash hamda fikrlarini umumlashtirish maqsadida anketa savol-javoblari o'tkazildi.

**2. Ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichida** aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish usul, shakl va vositalari aniqlanib, 8-, 9-sinflarda qiziqarli, noan'anaviy ijodiy izlanishga asoslangan o'quv topshiriqlarni o'qitishga doir mashq va topshiriqlar asosida o'quvchilarda o'qish savodxonligi hamda matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqildi.

Ijodiy izlanishga asoslangan o'quv topshiriqlarni o'qitishga doir topshiriqlar, fonetik mashqlar orqali, avvalo, o'quvchining matndagi har bir so'zni to'g'ri talaffuz qila olishiga, to'g'ri yoza olishiga, nasriy va she'riy matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rta qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mazmunli ifodalay olishiga e'tibor qaratildi. Zero, sanab o'tilganlarga nisbatan o'quvchida ko'nikma shakllantirish bugungi kundagi eng dolzarb va muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun 8-, 9-sinf o'quvchilarida ona tili darslari orqali ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri qo'llash malakalarini shakllantirish talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi ilmiy faraz tekshirib ko'rildi va o'z

isbotini topdi:

- o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi ko‘nikmasini savol va topshiriqlar orqali shakllantirish;

- o‘qish savodxonligining o‘qitish jarayoni maxsus o‘rganilib, undagi kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, bartaraf etish yo‘llari va omillari ishlab chiqildi;

- tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarni o‘rgatishning ahamiyati va didaktik imkoniyatlari anglangan holda metodik jihatdan to‘g‘ri tatbiq etildi;

- o‘quvchilarga o‘qish savodxonligini o‘rgatishning mazmuni, shakli, usul va vositalari ishlab chiqildi;

- o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantiradigan, o‘z fikrini turli shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalay olish ko‘nikmasini paydo qilishga yo‘naltirilgan hamda samaradorlik darajasi aniqlangan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**3. Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida** ishlarning maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

- o‘qituvchilar ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan tanishtirildi;

- ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar dars jarayoniga to‘liq tatbiq etildi;

- olingan natijalarga ko‘ra ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar takomillashtirildi.

- 8-, 9-sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash, so‘z zaxirasini boyitish, mustaqil ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishning yoritilmagan qirralari aniqlandi va kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga material bo‘la oladigan tavsiyalar berildi.

Umumta’lim maktablari ona tili darsliklarida o‘qish savodxonligini o‘qitishga oid o‘quv materiallarining tarkibi va o‘quvchilarning nutq so‘zlashga doir ko‘nikmalarining bugungi holatini aniqlash maqsadida dastlab tajriba-sinov maydonchalari aniqlab olindi. Tajriba-sinov ishlari Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi 54-maktabda, Samarqand shahridagi 14-maktabda,

Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 240-maktab, Shayxontohur tumanidagi 132-maktabda; Buxoro viloyatining Olot tumanidagi 8- va 34- maktablarida o‘tkazildi.

Yunusobod tumaniga qarashli 240-umumta’lim maktabida olib borilgan tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilar nutqida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

– notanish so‘zlarning ma’nolarini bilmaydi, topish yo‘llari haqida ham tushunchaga ega emas;

– matndagi eng muhim fikr qaysi ekanini aniqlay olmaydi;

– muallifning maqsadini anglashda ham qiynalishi aniqlandi.

O‘quvchilarda matnni o‘qib tushunish ko‘nikmalari shakllanishida o‘qituvchilarning ta’siri katta ekanligi barchaga ma’lum. Umuman, darsni qanday tashkil qilish o‘qituvchining to‘plagan malakasiga bog‘liq. Umumta’lim maktablarida matn ustida ishlash bilan bog‘liq muammolarning bir uchi maktab o‘qituvchilariga ham borib taqalmoqda. Tajriba-sinov jarayonida shunday holatlarga duch kelindiki, ayrim o‘qituvchilar ona tili ta’limidan ko‘zlangan asosiy maqsad nima ekanligi haqida aniq tasavvurga ega emas. Hatto tajribali o‘qituvchilar ham darsni interfaol usulda turli zamonaviy metodlarda qiziqarli tashkil eta olsalar-da, o‘quvchilarga ona tili fanidan, matn ustida ishlash bo‘yicha zarur ko‘nikma va malakalarni bera olmayapti. O‘quvchilarni darsga qiziqтира olish yaxshi, albatta, biroq shu qiziqtirish orqali o‘quvchini ijtimoy hayotda doim asqatadigan bilim va malakalar bilan qurollantirish asosiy masala ekanligini doim esda tutish zarur. Ammo berilgan matn mazmunini anglamaslik, matn muallifining fikr ifodalashdan maqsadi nima ekanini bilmaslik o‘qish savodxonligining past ekanini ko‘rsatadi. Ushbu holatning sababini aniqlash maqsadida tajriba-sinovda ishtirok etgan maktab o‘qituvchilari orasida quyidagi anketa-so‘rovnomalari o‘tkazildi:

*1. Maktabda o‘quvchiga o‘qish savodxonligini oshirish bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar olib boriladimi?*

*2. O‘qish savodxonligi deganda nimani tushunasiz?*

*3. Sinfingizda nechta o‘quvchi berilgan matn mazmunini bir o‘qishda anglay*

*oladi?*

*4. O'quvchilarga tahlil uchun qanday matnlar berasiz?*

*5. Yuqori sinf o'quvchilarida ilmiy va rasmiy matnlar tahlili bo'yicha ham topshiriqlar beriladimi?*

*6. Publitsistik matnni tahlil qilishda qanday vositalardan foydalanasiz?*

*7. O'quvchilarga badiiy matnlarni tahlil qildirishda qiyoslash usulini qo'llash foydalimi?*

*8. Matnni o'qib tushunishda qaysi mezonlarni hisobga olasiz?*

*9. O'quvchi bilan matn tahlil qilish jarayonida uni yana qanday manbalarga yo'naltirasiz?*

*10. O'qish savodxonligi va o'qib tushunish tushunchalarining farqi haqida, fikringizni bayon qiling.*

Yuqorida keltirilgan javoblardan ko'rinib turibdiki, ona tili darslarini tashkil qiluvchi, o'quvchilarni tildan mohirona foydalanishga o'rgatuvchi mutaxassislar KTMD talablarini, ona tilidan DTS malaka talablari va, eng muhimi, ona tili ta'limining maqsadini aniq bilishmaydi.

O'qish savodxonligiga o'rgatishdan ko'zlangan maqsad ham ona tili o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqadi. Aytish kerakki, o'qituvchilar orasida savolga aniq javob berganlar ham bor.

Til o'qitishda, aynan, o'qish savodxonligini o'qitishda ona tilini boshqa tillarga (o'quvchi maktabda o'rgatilayotgan tilga) bog'lab, qiyoslab o'rgatish bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Ma'lumki, umumta'lim maktablarida davrning mazkur talabiga mos sharoitlar, imkoniyatlar davlat, ya'ni buyurtmachi tomonidan yaratib qo'yilgan. Biroq til o'rganish masalasi na davlatning, na jamiyatning ehtiyojini qondira olmayapti. Bu borada o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda yaqindan yordamchi ona tili darslari bo'lishi zarur edi, ammo o'quvchi o'z adabiy tilida fikrini turli shakllarda ravon, jozibali ifodalay olmaydi.

O'quvchilarning bu boradagi fikrlari va ko'nikmalarini bilish maqsadida anketaga quyidagi savollar kiritilgan edi:

1. Siz qaysi uslubda yozilgan matnlarni o‘qib tushuna olmasiz?
2. Qaysi matnlarni qiynalmasdan erkin tahlil qila olasiz?
3. Matn tahlil qilishda qanday lug‘atlardan foydalanasiz?
4. Biror asar haqida xulosa chiqarishingiz uchun o‘sha asarning o‘zi yetarli bo‘ladimi?
5. Ona tili va adabiyot darsliklaridagi matn bilan ishlash uchun berilgan savol va topshiriqlar sizni qoniqtiradimi?
6. Sizga taqdim etilgan matnlarda notanish so‘zlar uchrasa, qanday yo‘l tutasiz?
7. Har doim bir marta o‘qiganda matnning mazmun-mohiyatini anglab olasizmi yoki qayta o‘qish talab etiladimi?
8. Darslikda tavsiya etilgan qaysi matnlar sizga ko‘proq ma‘qul keldi?
9. Yangi tavsiya etilgan matn va unga ishlab chiqilgan savol-topshiriqlar haqida fikringiz qanday?
10. Mumtoz matnlarni o‘qib tushunish bo‘yicha ona tili darslarida mashg‘ulotlar olib boriladimi?

### 3.2-§. Tajriba-sinov ishlarining o‘tkazilishi va natijalari

Tajriba-sinov ma‘lum ma‘noda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni va undan kelib chiquvchi vazifalarni uddaladi. Buni quyidagi jadvallarda aniq ko‘rish mumkin.

#### Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 240-umumta‘lim maktabi o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajalari

3.2.1-jadval

Me‘yorlar	Sinf, sinf turi (nazorat yoki tajriba)	O‘quv chilar soni	Xulosa chiqargan o‘quvchilar soni					
			To‘g‘ri va to‘liq bajarilgan		Qisman to‘g‘ri va xato bilan bajarilgan		Xato bajarilgan	
			T.bosh.	T.yaku ni	T.bosh.	T.yaku ni	T.bos h.	T.yaku Ni
Matnni o‘qib tushunish	8-a sinf, nazorat	26	4	6	12	13	10	7
	8-b sinf, tajriba	28	5	13	14	11	9	4
Matndagi	8-a sinf, nazorat	26	5	4	11	10	10	12

muhim soʻz va jumlani topish, izohlash	8-b sinf, tajriba	28	3	15	16	12	9	1
Matn mazmunini izohlash	8-a sinf, nazorat	26	3	5	10	11	13	10
	8-b sinf, tajriba	28	4	14	13	13	11	1
Yashirin maʼno va mazmunni aniqlash	8-a sinf, nazorat	26	6	4	9	14	11	8
	8-b sinf, tajriba	28	6	12	12	9	10	7
Oʻzaro bogʻliqlikni topish	8-a sinf, nazorat	26	7	6	10	12	9	8
	8-b sinf, tajriba	28	2	11	15	10	11	7
Mantiqiy fikrlash	8-a sinf, nazorat	26	5	5	8	12	13	9
	8-b sinf, tajriba	28	4	13	14	11	10	4
Jami	8-a sinf, nazorat	156	30	30	60	72	66	54
	8-b sinf, tajriba	168	24	78	84	66	60	24
Oʻrtachasi	8-a sinf, nazorat	26	5	5	10	12	11	9
	8-b sinf, tajriba	28	4	13	14	11	10	4

**Samarqand viloyati Pstdargʻom tumanidagi 54-umumtaʼlim maktabi**  
**oʻquvchilarining oʻzlashtirish darajalari**

3.2.2-jadval

Meʼyorlar	Sinf, sinf turi (nazorat yoki tajriba)	Oʻquv-chilar soni	Xulosa chiqargan oʻquvchilar soni					
			Toʻgʻri va toʻliq bajarilgan		Qisman toʻgʻri va xato bilan bajarilgan		Xato bajarilgan	
			T.bosh.	T.yakuni	T.bosh.	T.yakuni	T.bosh.	T.yakuni
Matnni oʻqib tushunish	9-a sinf, nazorat	27	4	6	10	12	13	9
	9-b sinf, tajriba	30	7	14	11	11	12	5
Matndagi muhim soʻz va jumlani topish, izohlash	9-a sinf, nazorat	27	6	5	14	13	7	9
	9-b sinf, tajriba	30	5	13	15	14	10	3
Matn mazmunini izohlash	9-a sinf, nazorat	27	3	6	12	12	12	9
	9-b sinf, tajriba	30	4	11	12	12	14	7
Yashirin maʼno va mazmunni aniqlash	9-a sinf, nazorat	27	5	7	11	14	11	6
	9-b sinf, tajriba	30	6	12	14	10	10	8
Oʻzaro	9-a sinf, nazorat	27	7	8	13	11	7	8

bog'liqlikni topish	9-b sinf, tajriba	30	8	14	13	13	9	3
Mantiqiy fikrlash	9-a sinf, nazorat	27	5	4	12	10	10	13
	9-b sinf, tajriba	30	6	14	13	12	11	4
Jami	9-a sinf, nazorat	162	30	36	72	72	60	54
	9-b sinf, tajriba	180	36	78	78	72	66	30
O'rtachasi	9-a sinf, nazorat	27	5	6	12	12	10	9
	9-b sinf, tajriba	30	6	13	13	12	11	5

### Buxoro viloyati Olot tumaniga qarashli 8-umumta'lim maktabi

#### o'quvchilarining o'zlashtirish darajalari

3.2.3-jadval

Me'yorlar	Sinf, sinf turi (nazorat yoki tajriba)	O'quv chilar soni	Xulosa chiqargan o'quvchilar soni					
			To'g'ri va to'liq bajarilgan		Qisman to'g'ri va xato bilan bajarilgan		Xato bajarilgan	
			T.bosh.	T.yaku ni	T. bosh.	T.yaku Ni	T.bosh.	T.yaku ni
Matnni o'qib tushunish	9-a sinf, nazorat	30	6	6	13	15	11	9
	9-b sinf, tajriba	32	7	14	14	13	11	5
Matndagi muhim so'z va jumlani topish, izohlash	9-a sinf, nazorat	30	7	5	12	12	11	13
	9-b sinf, tajriba	32	4	18	15	11	13	3
Matn mazmunini izohlash	9-a sinf, nazorat	30	5	7	11	16	14	7
	9-b sinf, tajriba	32	6	17	13	15	13	0
Yashirin ma'no va mazmunni aniqlash	9-a sinf, nazorat	30	8	4	12	14	10	12
	9-b sinf, tajriba	32	9	15	13	14	10	3
O'zaro bog'liqlikni topish	9-a sinf, nazorat	30	7	6	11	13	12	11
	9-b sinf, tajriba	32	8	16	15	15	9	1
Mantiqiy fikrlash	9-a sinf, nazorat	30	9	8	13	14	8	8
	9-b sinf, tajriba	32	8	16	14	10	10	6
Jami	9-a sinf, nazorat	180	42	36	72	84	66	60
	9-b sinf, tajriba	192	42	96	84	78	66	18
O'rtachasi	9-a sinf, nazorat	30	7	6	12	14	11	10
	9-b sinf, tajriba	32	7	16	14	13	11	3

### Olot tumani 34-umumta'lim maktabi o'quvchilarining o'zlashtirish darajalari

3.2.4-jadval

Me'yorlar	Sinf, sinf turi	O'quv	Xulosa chiqargan o'quvchilar soni					
-----------	-----------------	-------	-----------------------------------	--	--	--	--	--



	(nazorat yoki tajriba)	-chilar soni	To'g'ri va to'liq bajarilgan		Qisman to'g'ri va xato bilan bajarilgan		Xato bajarilgan	
			T.bosh.	T.yakuni	T.bosh.	T.yakuni	T.bosh.	T.yakuni
Matnni o'qib tushunish	8-a sinf, nazorat	31	3	5	11	13	17	13
